

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 8/1/14

MAGISTRATURA BO‘LIMI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

MATJANOV SHERALI ATAXANOVICH

**“Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida shakliy rang-baranglik va o‘ziga
xoslik”**

Mutaxassislik: 5A111201-o‘zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: p.f.n., dots. M.Allamberganova

Kafedra mudiri: f.f.d., prof. K.Quramboyev

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. K.Quramboyev

NUKUS-2017

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

I BOB.

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA SHAKLIY-USLUBIY YANGILANISHLAR

(H.Xudayberdiyeva she’riyati misolida)

1.1. Shoiralar lirikasida umuminsoniy g‘oyalarning badiiy talqini	8
1.2. Shoiralar she’riyatida milliy ruh va kolorid ifodasi	14

II BOB.

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA AN‘ANAVIYLIK VA NOVATORLIK

2.1. Lirikada tabiyat tasviri	24
2.2. She’riyatda ramziy majoziy talqin va tuyg‘ular uyg‘unligi	32

III BOB.

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA SHAKLIY IZLANISHLAR

(Modern she’riyat misolida)

3.1. She’riyatda modern yangi yo‘nalish sifatida	51
3.2. O‘zbek modern she’riyatida estetik va badiiy qarashlar	68
XULOSA	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	82

K I R I S H

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Lirik she'riyatning dunyo yuzini ko'rishi nihoyat darajada murakkab jarayon bo'lib, adabiyotshunoslik fani bu ilohiy jarayon siru sinoati-qonuniyatlarini kashf etib berolganicha yo'q.

“Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”.[2;3] O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin xalq xo'jaligining barcha sohalarida o'zgarishlar yangilanishlar sodir bo'ldi. Bu tabiiy jarayon edi. Jumladan, o'zbek adabiyotida ham shunday yangilanishlar, zamonga moslashish jarayoni boshlandi. O'zbek adabiyotini, xususan she'riyatini yangicha talablar, yangicha mezonlar asosida baholash zarurati paydo bo'ldi. Shunday ekan, bu holatni o'rganish adabiyotning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatini tubdan yangicha aspektda o'rganish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Bundan tashqari bu davrga kelib o'zbek she'riyatida yana bir o'ziga xoslik ko'zga tashlandi. Adabiyotning barcha janrlari qatorida she'riyatda ham milliy ruh kuchaydi, milliy qadriyatlarni emin-erkin talqin etish, targ'ib qilish imkoni tug'ildi. Sobiq sho'rolar davrida biror ijodkor milliy unsurlarni qo'llasa, biror o'zbek millatiga xos qadriyatlarni tilga olsa, albatta u taqibga uchrab, “millatchi shoir” degan tamg'a bilan qoralanar edi. U davrda ham o'z millatini ulug'lashga, uning qadriyatlarini targ'ib qilishga jasorat bilan qo'l urgan shoirlar bor edi. E.Vohidov, A.Oripov, H.Xudayberdiyeva, O.Hojiyeva, R.Parfi, Sh.Rahmon, M.Yusuf va yana bir qator shoirlarning o'z milliy qadriyatlarini targ'ib qilib, ko'plab she'riyat namunalarini yaratgan ijodkorlarni xalqimiz yaxshi biladi. E.Vohidov o'zining bazi she'rlari, xususan, “O'zbekim” qasidasi, A.Oripov esa “Men nechun sevaman O'zbekistonni” she'ri yohud “Tilla

baliqcha” she’ri uchun qanchalar taqib qilingani ana shunday tazyiqlarning bir ko’rinishi edi. Biz faqat ikki shoirnigina tilga oldik, vaholanki bunday ruhda asar yozgan shoirlar ancha muncha bor edi va ularning har biri ham shunday to’sqinliklarga uchradi.

Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida yangi bir shakliy izlanish ko‘zga tashlandi. Ya’ni an’anaviy she’riyat bilan birga modern yo‘nalishdagi she’riy shakl ham bo‘y ko‘rsata boshladi. “Moderncha talqinda mantiq va idrok sezgisi vazifadoshligi tasvir ruhiyati miqyoslarini o‘zgartiradi” [17;19]. Bundan tashqari o‘zbek she’riyatida yana bir yangilanish ko‘zga tashlandi. Bu-o‘zbek she’riyatida an’anaviylik negizida yangilik “novatorlik” yartish tendensiyasidir. Mustaqillik yillarida o‘zbek she’riyati faqat an’anaviylik doirasida qolib qo‘ymadi, balki har bir she’rda yangilik yartishga intildi. She’r qaysi mavzuda bo‘lmasin albatta unda fikr yangiligi, zamon muammolarini yangicha talqin etish masalalari kuzatildi. “Yaxshi yozilgan she’rni ham mo‘jiza deyish mumkin, chunki, u xuddi sening ham ko‘nglingda kechayotgan his-tuyg‘ularni, yoki sening holatingni tasvirlayotgandek bo‘ladi. «Joziba va sehr bilan paydo bo‘lgan she’r umrboqiydir. U qalblardan qalblarga, tillardan dillarga ko‘chadi. She’riyat muxlislariga zavq-shavq bag‘ishlaydi. Mahorat mevasi sifatida tug‘ilgan she’r zukko kitobxonni izidan ergashtiradi. O‘zidagi sokinlik o‘ychanlik, junbush, tabassum vazminlik kayfiyatini unga yuqtiradi”. [21;15] Chindan ham she’rda yangilik bo‘lmasa, fikr bilan tuyg‘ular uyg‘unlashtirilmasa, zamonga hamohanglik sezilmasa, u she’rni tom ma’nodagi she’riyat namunasi deb qabul qilish mumkin bo‘lmaydi. Shu ma’noda biz magistrlik dissertatsiyamizda an’anaviy she’riyat misolida o‘zbek she’riyatiga yangi poetik ohang, yangi poetik ruh, yangi fikr olib kelgan ba’zi shoirlar ijodi misolida mavzuni yoritishga harakat qilamiz. Shunday shoirlardan biri O‘zbekiston xalq shoirasi H.Xudayberdiyevadir.

Shoira istiqlool yillarida baralli ijod qildi. O‘nlab kitoblar nashr qildirildi. Matbuotda ham muntazam chiqib turdi. Shoiraning har bir she’ri faqat mavzusining dolzarbligi bilan emas, ma’noning teranligi, obrazli mushohadaning

o'tkirligi va originalligi bilan ham ajralib turadi. Muallifning har bir she'rida milliy qadriyatlarga ehtirom, qadrlash fonida milliylik belgilarini berish H.Xudayberdiyeva she'riyatiga xos xususiyatdir.

Mustaqillik yillari o'zbek she'riyati ayni kunlarda ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ham mazmun, ham shakl jihatdan taraqqiy etayapti deb xulosa chiqarishga asoslar etarlidir. M.Toyir, S.Sayyid, U.Azim, M.Ulug'ova, G.Matyoqubova, O.Hojiyeva, K.Rahimboyeva, Z.Mo'minova kabi talantli va taniqli shoirlar she'riyati bilan bugungi o'zbek she'riyati go'zal va jozibalidir. Istiqlol davri o'zbek she'riyatiga yangi avlodning kirib kelayotgani ham ibratli faktdir. Ular hozirgi o'zbek she'riyatini ham shakl, ham mazmun nuqtai nazaridan boyitib bormoqda. Albatta bu jarayon ham kelajakda adabiyotshunoslik nazarida bo'lishiga aminmiz.

Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik davri o'zbek she'riyati kundan kunga rivojlanib, shakli ham, mazmuni ham o'ziga xos tarzda yangilanib borayotgani o'zbek adabiyotining katta yutug'idir. Bu muvaffaqiyatlarni ilmiy jihatdan umumlashtirish, yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida ko'rsatib borish adabiyotimizga faqat naf keltirishi mumkin.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Dissertatsiyamizga asosiy tadqiqot ob'ekti qilib mustaqillik davri o'zbek she'riyati, aniqroq qilib aytganda, R.Parfi, H.Xudayberdiyeva, G.Matyoqubova ijodi, ularning istiqlol yillarida bitgan she'rlari shu bilan birga mustaqillik yillarida qalam tebratgan ayrim shoirlarning ba'zi she'rlariga, ularning ijodiga ham nazar tashlandi.

Asosiy predmeti sifatida mustaqillik yillarida yaratilgan turli mavzudagi she'riyati, tahlil ob'ektiga tanlangan shoirlarning konkret asarlari tanlandi. Istiqlol yillarida yaratilgan mustaqillik davri she'riyati haqidagi ilmiy-tadqiqotlar ham tadqiqot predmeti vazifasini o'tadi.

Dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyamizdan ko'zlangan asosiy maqsad, mustaqillik davri o'zbek she'riyati taraqqiyotining

o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish. Alohida-alohida shoirlar lirikasi misolida istiqlol yillarida o'zbek she'riyatida qaysi jihatlar etakchilik qilganini ilmiy jihatdan asoslash. Shuningdek, dissertatsiyamizda, mustaqillik yillarida o'zbek she'riyatida yangi paydo bo'lgan moderncha she'rning o'ziga xos qirralari ilmiy asoslashdan iborat. Shu orqali mustaqillik yillarida o'zbek she'riyati ham shakl, ham mazmun tomonidan o'zgarib, yangilanib borganini ko'rsatishdan iboratdir.

Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy vazifa mustaqillik yillarida o'zbek she'riyatining ham shakl, ham mazmun jihatidan o'zgarishiga, yangilanishiga sabab bo'lgan omillarni ko'rsatish. Bu davr she'riyatida paydo bo'lgan yangiliklar shakily yangilik, mazmunda milliylik, ifoda usullarining o'ziga xosligi, obrazlilikdadan foydalanishdagi shoirlarning o'zgachaligi va boshqa misollar bilan ko'rsatib berishdan iborat. Ishda yana bir vazifa bor edi. Bu sho'rolar davri she'riyati bilan istiqlol davri she'riyatining farqli jihatlarini ko'rsatish. Moderncha she'riyatning o'zbek adabiyotidagi o'rnini belgilash. O'quvchi va modern she'riyat savollariga imkon qadar javob berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ishimizning asosiy yangiligi, bizningcha, mustaqillik davri she'riyatining o'ziga xos jihatlarini, ijod erkinligining ta'minlagani haqidagi qarashlarimizni, modern she'riyatga nisbatan bildirilgan fikrlarni yangilik sifatida taqdim etgan bo'lardik.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Magistrlik dissertatsiyamizda mustaqillik davri o'zbek she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari saviyasi haqida so'z yuritiladi. Bu davr she'riyatining s+-86 obiq sho'rolar davri she'riyatidan farqli jihatlari, har bir shoir o'z she'rida milliy jilolarni berishga, sobiq mafkura haqiqatini emas, haqiqiy qalb haqiqatini berishni nazarda tutgani xususida fikrlar aytiladi. Mustaqillik davri she'riyatida mahorat masalalari, xususan, fikrni obrazli shaklda berish masalasiga alohida e'tibor qaratilgani aytiladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning tafsifi. Adabiyotshunoslikda keng qo'llaniladigan bir uslub bor. Bu qiyosiy tahlil, tipologik uslub. Har qanday ijodkorning o'ziga xosligini shu uslub orqali aniqlash mumkin bo'ladi. Mustaqillik davri she'riyati, jumladan, R.Parfi, H.Xudayberdiyevaning shoirlik mahorati, o'ziga xosligi qiyosiy usulda, solishtirish orqali aniqlandi. Demak, ishimizda qo'llanilgan bosh uslub bu qiyosiy tahlil uslubi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyamning nazariy ahamiyati shundaki, biz mustaqillik davri o'zbek she'riyatining o'ziga xos jihatlarini aniqlashga urindik. R.Parfi, H.Xudayberdiyeva, G.Matyoqubova she'riyati misolida she'riyatda an'anaviylik va novatorlikning ahamiyati, qolaversa modern she'riyatning kitobxonlarga ta'siri uning an'anaviy lirikadan farqli jihatlarini ilmiy asoslashga harakat qildik. Ishimizning amaliy ahamiyatiga kelsak, kelajakda shu yo'nalishda kelajakda shu yo'nalishda tadqiqot olib borilgudek bo'lsa, ishimizdagi ba'zi ilmiy qarashlarimiz, modern she'riyatga yondashuvimiz ma'lum darajada amaliy manba vazifasini o'tashi mumkin.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida bu mavzu qisman o'rganilgan. Maxsus tadqiqotlar ham yozildi. Q.Yo'ldoshev, N.Rahimjonov, M.Yo'ldasheva, M.Hamidova hamda boshqa olimlarning mustaqillik davri she'riyati to'g'risidagi tadqiqotlari bor. Modern she'riyati to'g'risidagi ham maqolalar yozilgan, risolalar nashr etildi. Jumladan, K.Tashanov va A.Allamberganovning "Moderncha talqin shukhi" risolasi shunday harakterdagi ishlar jumlasiga kiradi. Adabiyotshunosligimizda Rauf Parfi ijodi xususida bir qator tadqiqot va adabiy-tanqidiy maqolalar mavjud. Ulardan, ayniqsa, professor N.Rahimjonovning ilmiy-nazariy fikrlari alohida diqqatga sazovordir.

Tadqiqotning tuzilishi. Tadqiqotimiz kirish va xulosadan tashqari uch bobdan iborat. Har bir bob ikki faslga ajratilgan. Ishning oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berildi. Tadqiqotning umumiy hajmi 83 sahifadan iborat.

I BOB
ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA SHAKLIY-USLUBIY
YANGILANISHLAR

(H.Xudayberdiyeva she’riyati misolida)

1.1. Shoira lirikasida umuminsoniy g‘oyalarning badiiy talqini

Xalqchilik nafaqat mustaqillik davri estetikasining, shuningdek, XX asr adabiyoti tarixida yaratilgan badiiy barkamol asarlarning o‘zak mag‘zini tashkil etadi. Zero, u har bir xalq va millat nafis so‘z madaniyatining milliyligini, o‘ziga xos betakror tarovatini belgilaydi.

Xalqona, nozik qochirimlarga boy, maqollar va aforizmlarni eslatuvchi teran ma’nolar, tesha tegmagan, ohori to‘kilmagan, siyqalanmagan durdona so‘zlardan tug‘ilgan she’riyat xalqchildir. Lekin, xalqchil asar deyish uchun ma’noli, shirali xalq tilida yozish kifoya qilmaydi. Ustoz Abdulla Qahhor aytganidek, chinakam badiiy asar xalqning dilidagini topib aytishdir. Bizningcha, yana xalqning til uchida turganu, ammo aytishga istihola qilayotgan, hadiksirayotgan, jur’at qilolmayotgan so‘zlarni, tuyg‘ularni, hissiyotlar, kechinmalarni aytishdir.

“Qatag‘on yillari 1937-1941 yillardan so‘ng o‘zbek she’riyatida konfliktsizlik, madhiyabozlik kuchaydi. Oybekning 20-yillarda yozgan go‘zal asarlari- ko‘ngil she’riyati 50-yillarda bitilgan asarlari o‘zaro tenglasholmaydi. Sababi–jamiyat hayotida so‘z erkinligi bo‘g‘ilgan, faqat kommunizm gulbog‘larini maqtash shoirlar “obro‘si” ni oshirar edi. Halima Xudoyberdiyeva o‘zbek she’riyatiga kirib kelayotganida she’riyatda xalqlar do‘stligini, sevgi va yorga sadoqatni maqtovchi asarlar shoirlarga namuna edi.” [4;66] Halima Xudoyberdiyeva “partiyaviy” emas, xalqchil she’rlar yoza boshladi. U “Yurak, menga omonatga berganlar seni” she’rida

“Agar, agar... shu ahvolda ketsak dunyodan,
Qo‘shiq bo‘lib yangramasdan, qushday sayramay.
Suronlarga, kurashlarga o‘zni qayramay,
Vulqon bo‘lib otilmasdan, ketsak dunyodan,

Yashinga duch kelgan nihol, hayf degan jondir, armon, armondur. Shu tangligu hayronlikda o'lma, yuragim..." deydi. Bu endi, ko'pchilik shoirlar ijodidagi kabi zamonani madh etish emas edi. Bunday xalqchil ijod qilishga shoiraga Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Maruf Jalil, Asqar Qosimov, Omon Matjon, Cho'lpon Ergash asarlari dalda berdi, yuragi xalq dardi bilan yondi...

Har bir ijtimoiy tarixiy taraqqiyot bosqichlarida yaratilgan asarlar badiiy-estetik tafakkur tabiatida kechgan tadrijiylik, takomil jarayonlaridan voqif etadi. Xalqchilik, milliylik, bashariy qadriyatlar –badiiy tafakkurdagi evrilishlarning, sifat o'zgarishlarining farqli va mushtarak jihatlarini ko'rsatuvchi yetakchi mayor, bosh mezon. Birgina "xalq shoiri" yoki "xalq yozuvchisi"degan so'z orqali zamondoshlarimiz kelgusi avlodlar adib ijodining estetik mohiyati to'g'risida muayyan tasavvurlarga ega bo'ladi. Aksariyat hollarda umrzoq asarlarni "xalqona doston", "xalqchil roman", "xalq ruhining badiiy ko'zgusi" degan ifodalar bilan tarif-tavsif qilamiz.

Demak birinchidan, "xalqchilik" degan ibora adabiy tanqidda, estetika va badiiy so'z madaniyatida g'oyat teran va ko'lamli mazmunni, tesha tegmagan, taxi buzilmagan, shaxs va millat, Vatan manfaatlari bilan bog'liq badiiy- falsafiy g'oyalarni ifodalovchi sirli timsolga, sehrli ifodaga aylandi.

Ikkinchidan, xalqchilik-bu badiiy idrok va ifoda madaniyatidagi realistik hamda romantik xususiyatlarni, badiiy ijod hamda ilhom shukuhining o'ziga xos tabiatini, har bir millat adabiyotining milliyligini namoyon etuvchi badiiylikning yetakchi mezonlaridan biri bo'lib qoladi.

Uchinchidan, har bir xalqning badiiy didi saviyasini ko'z-ko'z etuvchi, ijtimoiy voqelikni, hayotni u yoki bu millat manfaatlari va qiziqishlari nuqtai nazaridan kuzatuvchi, o'rganuvchi, baholovchi estetik hodisa sifatida bo'y ko'rsatdi. Demak, har bir xalqning o'ziga xos milliy qiyofasi ijtimoiy- iqtisodiy hayot tarzi taqozosi bilan belgilanadigan turmush yo'sinida, xarakter xususiyatlarida, psixologiyasi va tafakkur tabiatida namoyon bo'ladi. Endi, poetik obrazlarning xalqchilligi, deganda ijodkor ongi-dunyoqarashi bilan bog'liq

ravishda uning olamga, odamga qarashini, hayot voqeligini tushuntirishini, fikrlash tabiati va til xususiyatlarini anglaymiz. Timsollar, o'xshatish va sifatlashlar poetik obrazlar xalqchilligini, milliy o'ziga xosligini namoyon etuvchi vositalardir.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatidagi qushcha obrazi serqirra ma'no anglatuvchi timsol. Shuningdek, gul, daraxt, bog', oq rang obrazlari ham shu taxlit serqirra ijtimoiy- falsafiy, axloqiy mazmundorligi bilan timsolli mavqeyga ega.

“Ikki qushcha bor” she'rida baxt bilan g'am qushchalarga qiyoslanadi. Ikki qushcha-bu lirik qahramonning quvonchi bilan qayg'uli kunlari. Ular har soniya hamroh. “G'am qushining rangi qop-qora”. Hatto qorong'u kechalari ham uning sharpasini ilg'ab vujudini titroq bosadi. Quvonch qushi tumanlar aro uchib kelganda yayrab uchadi.

Men bir ovchi noshuddan-noshud,
Bu ikki qush ham baxt, ham sho'rim.
Otdim, qaro qush bo'lmas nobud,
Oppoq qushni tutolmas to'rim...

Sharq she'riyatida, xususan o'zbek adabiyotida qushcha erk-ozodlik timsoliga aylangan. U shaxsning manaviy-intellektual erkinligini o'zida mujassamlashtiruvchi umumlashma obraz. Agar e'tibor bersak, ana shu obraz ongimizdagi tushunchaga muayyan shakl baxsh etayotir. Tushuncha-bu ibtidoiy intihoga ega bo'lmagan, qotib qolgan, rivojlanishdan mosuvo turg'un holat emas ekan. Ilk satirdagi fikr botiniy mantiq tadrijiga ko'ra badiiy g'oyaga aylanayotir. Qushcha—bu shunchaki oddiy jonzo parranda emas. U lirik qahramonni ertayu kech, qishin—yozin also tark etmaydigan ruhoni tuyg'u. Biri-g'am, ikkinchisi-quvonch. Achchiq ila shirin tam, tong ila tun, yaxshi bilan yomon-hamisha yonmayon yashaganidek, biri ikkinchisisiz ayro. Vafoning ortidan xiyonat ko'lankadek ergashib yurgani misoli. Demak, qushcha haqidagi tushuncha badiiy g'oyaga aylanar ekan, u ijtimoiy-falsafiy ma'no tashuvchi majoziy obraz mohiyatini kasb etayotir.

Shoiraning “Uchirma qush, polaponim uchmoqqa shaylanasan”, “Kaptar uchiramiz”, “Bir qo‘shiq yozarman”, “Gulni seskantirar bulbul nolishi”, “Tilak” va boshqa bir qator she‘rlarida qushcha so‘zlarning issiq bag‘riga bosh qo‘yadi. Ezgulikni, yaxshilikni mavh etishga kirishgan zulmga, Erkning qanotlarini qayirib kelayotgan zo‘ravonlikka qarshi bosh ko‘taradi.

Osmon-erkinlik vatan. Qushcha-hurfikrlik, erkinlik farzandi. Va lekin, zalolat yashirin iplar bilan uning qanotlarini bog‘lagan, qayirgan. Chappor urib uchishga qarshi. Hatto jisman yo‘q qilish ilinjida tishlarini qayraydi. Ana shunday bir holatda qushcha barcha to‘siqlarni yengib, yorug‘ kunlarga erishish orzusini ro‘yobga chiqarish uchun joni halak. Bekanor osmon etagiga yashiringan yorug‘lik esa erkinlikka talpingan, parvozlarga chog‘langan ruhoniylar erk kushandasi. Shu ma‘noda, qushcha Halima Xudoyberdievaning eng sevimli obrazlaridan. O‘nlab she‘rlarida tilga olingan qushcha obrazi shaxs erki masalasining yangi-yangi qirralarini namoyon etadi. Yaxlit umumlashgan holda esa, u Erk timsoliga, baxt ramziga aylanayotir.

Samolarning quchog‘iga o‘zni ochar u bu tong...

Uchar, yobulut bag‘riga toshday botar u bu tong ...

Uchmoqchisiz, yuksak uchgan –qulamoqqa ham shaysan,

Polaponim, polaponim, yuragimga o‘xshaysan... [19;21]

Tabiatning yozilmagan bir qonuniyati bor: unmagani, o‘smagan narsa chirishga mahkum. Kishilik hayotida ham shunday. O‘z shaxsini hurmat qilmagan, ruxiy erkinlikka intilmagan va erishmagan inson zo‘ravonlik qurboniga aylanadi. Umrini bo‘ynidagi mutelik sirtmog‘iga gul to‘kish bilan o‘tkazadi. Qullik botqog‘iga botgan tirikligiga qasida bitish bilan sevinadi. Halima Xudoyberdievaning lirik qahramoni ma‘naviy-intellektual erkinlikni, hurfikrlikni inson tirikligining gultoji, deb biladi. Shu ma‘noda, qushcha obrazi osmon uzra uchib yurgan bir parranda emas. Aksincha, ijtimoiy-falsafiy mazmunni ifodalayotgan, umumbashariy ma‘naviy-axloqiy qadriyat hisoblangan erk timsolida talqin etilayotir.

“Uchirma qush, polaponim uchmoqqa shaylanadi”, “alvon ranglar” singari she’rlaridagi qushcha badiiy ifodada farzandga, yurakka, qo‘shiqqa qiyoslanadi. Tuyg‘u-kechinmalarning tabiiyligi va samimiyligini ta’minlaydi. Hissiy idrokka konkretlik, obrazlilik va hayotiylik bag‘ishlaydi. Va shu tariqa she’rning badiiy mukammalligini asoslaydi. Polapon–bir o‘rinda hali qanoti mo‘rt, nimjon qushcha, bir gal-lirik qahramonning nolalari, olqishlari va mehrini o‘zida mujassamlashtirgan o‘jar bolalari, va yana boshqa holatda-behalovat yurak mujdasi sifatida ifodalanadi. Barchasi umumlashgan holatda umuminsoniy g‘oyalarni tashuvchi, teran falsafiy mazmun bilan yo‘g‘irilgan erk timsolining ma’no qirralarini jilolantiradi.

Shoira she’rlarida nur bilan qushcha obrazlari goh bulbul, goh burgut, goh kaptar, goh lochin, goh turna qiyofasida muhim g‘oyaviy-badiiy mazmunni ifodalagan holda ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Ular osmon quchog‘idagi tun, zulmat, qora kuchlarga qarshi qo‘yiladi. Obrazli vositalar milliy hayot holatlari, detallari va kartinalarini ifodalagan holda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalarni yoritishga xizmat qiladi. Va yaxlit, umumlashgan holda baxt, erk ozodlik hurfikrlik singari bashariy qadriyatlarning turfa qirralarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mana misol:

Daraxt bo‘laturib ikkilanaman.
Shoshilib shoximga qo‘yayotgan in.
Bu qush umr bo‘yi yasharmikan shan,
Ko‘zlagan yeriga yetadimikan?
Gullarga og‘rinmay yelka tutar qir,
O‘zim-ku hech gapmas, yiqilsam, yotsam.
Shu qush bo‘lmasmikan mendan domongir
Mabodo, mabodo kesilib ketsam...

Shoira lirikasida osmon-ozodlik o‘lkasi. Bulutlar o‘ramida diqqinafas o‘rtanayotgan ziyoni zulmat changalidan sug‘urib olib, ko‘k toqiga yulduz qilib

qadagan va o'zi qorong'ulikka singib ketgan lochin, yorug'likni yelkasida opichib, qorong'u go'shalarni yoritish niyatida birma-bir ulashib chiqqan va nihoyat zulmat iskanjasida nobud bo'lgan burgut, qorong'u saharlarda g'unchalarni uyg'otgan bulbul, vatan barhaqligini, xalqning o'lmasligini anglatuvchi so'lish bilmas-zavol topmas gulzor va yashnoq go'zallik-barcha-barchasi ana shunday ramzli serma'no obrazlardir.

Ko'kka bo'y cho'zgan, bulutlarga to'sh urgan daraxt obrazi esa Turon zaminga chuqur ildiz otgan xalq va millat timsolini anglatadi. Bog' obrazi esa turkiy xalqlar boshini birlashtirgan Turkiston o'lkasi sifatida talqin etiladi. Milliy obrazli vositalar shoira dunyoqarashidan ongi va estetik idealidan baxra olganligi bois baxt, tinchlik, hamjihatlik, hurfikrlik singari bashariy qadriyatlarni olqaydi, yoqlaydi. Yor yuzida qaror toptirish niyatida yonadi, yozg'iradi.

To'g'ri, bo'g', daraxt, shamol, qush, tog' obrazlarini turli millat shoirlari she'rlaridan ham istagancha topish, misol tariqasida ko'rsatib o'tish mumkin. Lekin, har bir shoir asarida ijodkorning badiiy g'oyasi va estetik ideali taqozosi bilan ushbu obrazlar bir-birini takrorlamagan holda butkul o'zgacha mazmunni ifodalaydi. Endi, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida badiiy talqin etilayotgan mazkur timsolli obrazlar sho'ro zug'umi-mutelik iskanjasida qolgan millat farzandlarining erkka, hurfikrlikka, baxtga yetishish yo'llarini izlayotgan va istiqloq sharoitida o'z-o'zini anglash, jahonga o'zligini tanitish sari yuz tutgan, ma'naviy-intellektual komillikka yetishishga o'zini safarbar etgan shaxsning ruhoniylarini ifodalovchi ramzli ma'no kasb etadi.

Demak, hamma gap poetik obrazlarga qanday g'oyaviy-badiiy vazifa yuklay olishda ekan. Halima Xudoyberdiyeva lirikasidagi qushcha, daraxt obrazlari hayot haqiqatini, qalb haqiqatini aks ettirishga qaratilgan. Shu ma'noda, milliy obrazli vositalarning imkoniyati keng. Ular umuminsoniy qadriyatlarni himoya qilishga, olqashga va yoqlashga qaratilganligi boisdan ham keng o'quvchilar ommasining ko'nglidan aks sado topadi. Xususan, "Bo'zlayotgan jonim qushi" she'rida esa qushcha lirik qahramonning davr-zamoni bedodliklariga qarshi tuyg'ular isyonini-qalb nidolarini ifodalovchi ramzli ma'no kasb etadi.

1.2 Shoira she'riyatida milliy ruh va kolorid ifodasi

Adabiyotshunoslik ilmidan ma'lumki, estetik ideal, bu-ijodkor badiiy ongining oftobi. Xususan, bu narsa har bir asarda hayot materialini tanlash va unga yondashish, badiiy talqin qilish va tadqiq etish, umumlashtirish va estetik baholash prinsplarida namoyon bo'ladi. Lirik qahramon har bir she'rda, garchand, o'z-o'zini takrorlamagan holda, o'zgacha fikrlashga intilsa-da, bu-san'atkor ijodiy prinsplarining, nuqtai nazarlari va qarashlarining muayyan silsilasini o'zida mujassamlashtirgan mo'jaz badiiy ko'zgu, deyish ham joiz.

Demak, ijodkor asarlaridagi lirik qahramonning hayotga munosabati, voqea-hodisalarni yoqlashi yoki inkor etishi, qanday nuqtai nazarlarni ilgari surishi, nimalarga da'vat etishi, yurak nidolari estetik idealidan bahra oladi. Zero, har bir she'rda ilgari surilayotgan fikr ijodkor ongida charxlanib, ko'nglida eshilib, qog'oz yuzini ko'radi. Shu jihatdan, lirik qahramon ijodkor shaxsiyatining "tarjimoni"dir. Ijodkorning hayotdan orttirgan tafakkur-tuyg'ular jamg'armasini umumlashtirgan holda badiiy tajriba omuxtaligi, sintezi san'atning estetik nazariyasini boyituvchi hosiladir.

Xalima Hudoyberdiyevaning "Inshollox", "So'nggi ox", "Tushunmasman", "Eldoshlarim", "Dunyolarga sig'magan g'avg'o", "Men ketsam...", "Eldoshlarim ichra yurib", "Xurlik o'ti", "Bu dunyoning ko'zlari", "Zehn solsam ..." singari ko'plab she'rlari shoiraning badiiy-falsafiy nuqtai nazarini tajassum etadi.

Inshoollox, bo'lsa umr vafosi

Men xalqimning suyanch tog'i bo'lurman.

Nodiraning qayta kelgan sadosi,

Turk-Turonning qo'ng'irog'i bo'lurman.[20;466]

Lirik qahramon iddaosi, bu-shoiraning yurak nidosi. Qavat-qavat tuproq qatlamlari orasidan bosh ko'targan buloq suvlari misoli u ham Xalima Hudoyberdiyevaning ongi-shuuridan, ko'nglidan sizib chiqqan tafakkur to'lqinlari,

shaffof sezimlari. Shu boisdan ham lirik qahramonni ijodkor ko'nglining tilmochi, deging keladi.

Halima Xudoyberdiyevaning lirik qahramoni zo'riqishni, ovozni baland ko'tarib baqirib-chaqirishni, ko'kragiga urib hayqirishni yomon ko'radi. U dehqonsifat oddiy va sodda, to'pori va jo'mard, dangal gapni yaxshi ko'radi. Anashu badiiy ifoda tarzidagi soddalik va samimiylilik yolg'iz Halima Xudoyberdiyevaning tafakkur tarzi uchun hos bo'lgan xususiyat, desak biryoqlamalikka berilgan bo'lamiz. Mazkur alomat 60-yillar o'rtasi va 70-yillar boshi adabiyot sahnida paydo bo'lgan avlod vakillarining badiiy-estetik izlanishlari uchun ham xos.

Ayniqsa, XX-asrning 50-yillarida adabiyotda keng palak yozgan dabdababozlik, ofarinbozlik, ritorika, soxta patetika, yolg'onchi pafos, jimjimadorlik singari chuchmal va tumtaroq adabiy uslub yosh avlodning g'ashiga tekkan, ko'ngliga o'tirishmagan edi".[4;21] Mazkur yo'nalish she'riyatdan o'quvchilar ishqini sovutib, ixlosini qaytarayotgan, ko'nglini qoldirayotgan edi. Eng muhimi, hayot haqiqatini, obrazli, timsolli ifoda etish madaniyatiga raxna solayotgan, puturini ketkazayotgan edi. Shu boisdan ushbu avlodning yetakchi vakillari, bir ovozdan kelishib olgandek, sun'iy dabdaba asosiga qurilgan havoiiy adabiy uslubni rad etishdi. She'riyatni, badiiy so'z madaniyatini azaliy va adabiy o'zanlariga qaytarishga-obrazlar, timsollar, ramzlar asosida fikrlashga chog'landilar. She'r-g'oyat nafis, ingichka, obrazli ifoda san'ati ekanligini yana bir bor isbotlashga jazm etdilar. Tuyg'ular realizimiga asosiy diqqat-e'tibor qaratdilar.

Inson irodasini faoliyatga kiritish uchun ko'ngilda qanday tuyg'ularni tarbiyalashi, hissiyotni shakllantirishi lozim? Va ana shu jarayonda ko'ngilda qanday kechinmalar qoladi: qay tariqa yashay boshladi? Vatanparvarlik psixologiyasini ilg'ash g'oyat mushkul bo'lgan, kechinmalarning kechish holatlari va jarayonlarini tasvirlash, ichki xatti-harakatini detallashtirib ko'rsatish Halima Xudoyberdiyeva badiiyatining tengdoshlari, salaflari ijodidan farqlantirib turgan muhim xususiyatlaridan biridir. Ko'ngilda, ong-tafakkurda kechadigan nuqtai nazarlar, fikrlar, g'oyalar kurashi, qat'iy bir to'xtamni tanlash, to'la-to'kis qarorga

kelish-shakllantirishdek bir necha bosqichli jarayonlarni o'z tarkibiga oladi. Lirik qahramon ko'nglida, ongi-tafakkurida shakllanajak vatanparvarlik tuyg'usining holatlari o'quvchi ko'z o'ngida suratlana boradi. Vatanga farzandlik burchi-mas'uliyatining davr sinovlariga, hayot mashaqqatlariga dosh berib qaddini va qadrini baland ko'tarajak hissiyot halqalari. O'y-kechinmalar zanjiri.

Lirik qahramon lovullab yonish ishtiyoqida. U qalbidan ko'chgan ohanglarni beparvo, loqayd va bepisand kuzatajak kimsalarga ko'ngil eshiklarini qarsillatib ochib tashlaydi. "Ohangga shunchaki solmasdan quloq, tarjima qilib yoz sim sadolarin", deydi. Tog'dagi buloqlar shunchaki qaynab chiqayotgan suv emas. U hayotga, erkka, sevgiga bandi ishq gadolarining ko'z yoshlari. Uning yelkasidan zil tog'-toshlar iskanjasi esa ham iroda kuchlarini to'plab, o'lim changalidan xalos bo'ladi. Ko'zlariga tuproq to'lib, basir qilmasligi uchun qora tuproqdan baland ko'tarila olish ham farzandlik burchi. Hayotni sevish, yorug'likni qadrlay bilish, erkin, ozod yashash haqqi-huquqini qo'ldan boy bermaslik-bular lirik qahramon ko'nglida yelanayotgan tuyg'ularning turfa xillari. Ular lirik qahramon psixologiyasida kurtak tugib, barg yozayotgan vatanparvarlik daraxtidan darak beradi. Tuyg'ularning namoyon bo'lish asnolarini detallashtirilgan tasvirlari lirik qahramonning falsafiy-publitsistik da'vati, qalb nidosi manzarasi bilan yakunlanadi.

Odatda adabiyotga kirib kelgan har bir avlod vakillarini birlashtirib turgan mushtarak jihatlari bilan barobar yana o'zaro farqlantiruvchi alomatlari ham bo'ladi. Bu narsa, avvalo, umumbashariy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatda, badiiy talqinlarda, baholashda, badiiy-estetik tafakkur madaniyatida, ularni asrash, avaylash va kelajak avlodlarga qay taxlitda yetkazish mas'uliyatida zohir bo'ladi. Xalq hayoti, ijtimoiy voqelik har bir avlod oldiga hal etilishi zarur bo'lgan yaxlit-umumiy masalalarni ko'ndalang qo'yadi.

Shaxs erki, millat ozodligi, Vatan mustaqilligi uchun kurash hamma zamonlarda va har bir millat adabiyotida o'zak-ustuvor vazifa hisoblangan. Hayot, ijtimoiy voqelikning Halima Xudoyberdiyeva avlodi oldiga ko'ndalang qo'ygan vazifalaridan biri-bu shaxs erki, millat ozodligi, ona-Vatan mustaqilligi edi. Bu-

mazkur avlod badiiy-estetik izlanishlarining o'zak mohiyatini tashkil etadi. Bu narsa mazkur avlod vakillari she'riyatidagi badiiy tafakkur madaniyatida, lirik qahramonlarining fikrlash tarzida, badiiy ongning tagdor, qatlam-qatlam teran ma'nolarida ayonlashadi. Aynan shu mohiyat, alal-oqibat Halima Xudoyberdiyeva mansub avlodning XX asr badiiy madaniyatimiz tarixidagi nafis so'z san'atidagi tutgan o'rni va ahamiyatini belgilab beradi.

Xususan, ayni shu avloddan oldingi sohir namoyondalardan biri Rauf Parfi she'riyatida-vatanparvarlik psixologiyasining zohir bo'lish xususiyatlarini kuzatish o'rinlidir. Rauf Parfining lirik qahramoni serqatlam razmlar vositasida fikrlaydi. Vatan tarixining olis kechmishiga, yaqin o'tmishining ayanchli sahifalariga murojaat orqali millatsevarlik tuyg'ulari ramzli obrazlar zamiriga singdirib yuboriladi. "Abdurauf Fitrat" sonetlar turkumida lirik qahramon nutqidagi e'tirof-murojaat -nido ohanglari yaxlit mazmunni omuxtalikda ochishga qaratilgan.

Ayriliq shamshiri boshimda sindi,
Borlig'im chopildi, ichdim qonimni.
Dunyo tarixini o'qib yukindim,
Uyqudan uyg'otdim Turkistonimni...
Falokat ustidan falokat tutdi,
Intiqom, intiqom, dedim, yugurdim.
Turkiston, Turkiston, Turkiston o'tdi –
Razolat qabrinda bosh egib turdim.
Ay, ulug' tog'larim, ay, shonli Turon,
Tokay uyg'onmassan, ay, qonli Turon.[7;59]

Lirik qahramon millatni, ona yurti mutelik, qullik, qaramlik iskanjasidan xalos bo'lishga, hurlikka da'vat etarkan, avvalo, odamlar ongini, mudroq ko'nglini uyqudan uyg'otishga undaydi. Shoirning badiiy ongida millat o'tmishi, buguni va kelajagi ko'ngillarga oqib kirajak va yashab qolajak, chiroqlar yoqajak olovli sado

timsolida gavdalanadi. “Yana keldim mahzun go‘shaga, Bunda bir nay yotibdi sinib”, deydi shoir lirik qahramoni “Termulaman olis ufqqa” she’rida. “Targ‘illanib bormoqda osmon”, “Termulaman olis ufqqa”, “Cheksiz-cheksiz daqiqalardan iboratdir”, “Chiroq. Chiroq yonar bo‘zarib”, “Daryo mavjlariga yozilmish g‘azal” singari she’rlarida erk-ozodlik g‘oyasining turfa talqinlarini, obrazlar qatimiga singdirib yuborilgan ma’no urug‘larini ko‘rishimiz, kuzatishimiz mumkin. Shoirning ilk to‘plami “Aks sado” dan o‘rin olgan ushbu she’rlarda erk, hurfiylik falsafasining kurtaklari mujassamlashgan.

Shaxs erki, millat ozodligi, Vatan mustaqilligi masalasi XX asr ijodkorlarining eng og‘riqli davri edi. Munavvar qori, Behbudiy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Elbek, Botu mansub avlodning ijtimoiy-estetik programmasiga aylandi. Oybek, M.Shayxzoda, Mirtemir, A.Muxtor avlodi izlanishlarida poetik obrazlarning qatim-qatimlariga ko‘chib o‘tdi. E.Vohidov, A.Oripov, H.Xudoyberdiyeva, G.Matyobova, R.Parfi avlodi she’riyatining badiiy-falsafiy kontsepsiyasi bo‘lib qoldi. Ustoz salafлари kurashgan hurriyat e’tiqodi Halima Xudoyberdiyeva avlodi ijodkorlarining ham yuragiga cho‘g‘ soldi.

Halima Xudoyberdiyeva she’riyatining lirik qahramoni tabiatida namoyon bo‘layotgan vatanparvarlik Shaxs erkinligi, ona yurt ozodligi, Vatan mustaqilligi bilan bog‘liq. U ko‘proq publitsistik ruh bilan yo‘g‘rilgan da’vat, e’tirof, murojaat, lirik monolog, yurak nidolari shaklida ko‘rinadi. Eng muhimi, Halima Xudoyberdiyevaning lirik qahramoni qiyofasini belgilayotgan vatanparvarlik, millatsevarlik tuyg‘lari yuksak insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Shaxsni ma’nan komil erkin, xalqni ozod, ona vatanni mustaqil ko‘rishdek bashriy qadriyatlarga yetishish, ulug‘lash, ularni kelajak avlodlarga tugallikda yetkazish g‘oyalari bilan to‘yinganligidir.

Davr, ijtimoiy voqelik ko‘ndalang qo‘ygan savollarga javob izlash, zamondoshlar ma’naviy dunyosini to‘kis ifodalashga intilish, inson tirikligining ma’no-mohiyati haqidagi o‘ylarning chuqurlashuvi, ko‘ngilda kechayotgan buhronlar-tug‘yonlar millatsevarlik tuyg‘ulari tarixiga e’tiborning ortishi, falsafiy mushohadalarning bevosita murojaat, publitsistik da’vat tarzida ifodalanishi

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatidagi insonparvarlik psixologiyasining rangin qirralaridir.

Shoiraning lirik qahramoni hayot haqida, umrning ma'no-mohiyati, tiriklik va taqdir, kunlarning tunga, yaxshilikning makr-riyoga ko'chishi haqida chuqurroq o'ylaydi. Yashash haqida gap borganda u o'zi uchun juda yuksak ma'naviy-axloqiy marralar belgilaydi: quyidagi misralar bizga litvalik shoir Eduardas Mejelaytesni eslatadi:

Dunyo ichra dunyo kabi balqimoq,
Charaqlagan yulduzlarni kaftga olmoq kerakdur.

Fikrlardagi bunday balandparvarlik Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida ham uchraydi.

Bedor, bezovta qalb bilan yashash shoira idealidir. Bu-ma'naviy komillikning, ko'ngil rasoligining yana bir muhim belgisi. "Qoplagani uchun ko'zimizni xob, balki umrim bo'yi berurman javob" deydi lirik qahramon. Shu boismikan, qallda so'ngsiz bezovtalik tuyg'ulari ko'piradi. Mehrsizlik, oqibatsizlik, loqaydlikni qoralab kuyinadi:

To yerda yasharkan yuragi kuyuk,
Hali oqlanganmas insonning yo'li.
Hali yelkamizdan bosadi bu yuk,
Hali quyosh bizga bermaydi qo'lin.
Onaning sochiga barvaqt qo'nsa oq,
Bolaning ko'ngliga bevaqt cho'ksa tosh,
Bu bizning o'zimiz sezmagan gunoh,
Bu ayb biznikidir mutlaq, zamondosh.

Hayotiy haqiqatlarni teran anglab borgan sari ijodkorda o'ziga va she'riyatga nisbatan mas'uliyati ham orta boradi. U dil-dildan erkinlikka, mustaqillikka, ezgulik va go'zallikka intilib o'tli she'rlar yarata boshlaydi.

She'r faqat quvonch qo'shig'i bo'libgina qolmay, yana unda inson qalbining ulug'vorligi-yu, tubanliklari ham o'z ifodasini topmog'i zarur, deb tushunadi shoira. Adolat-erkinlik g'oyalarini tarannum etuvchi isyonli ruh asta-sekin shoira ijodining o'zak mag'zi bo'la bordi. Ushbu yetakchi g'oyalarning badiiy talqinlari lirik qahramon qiyofasida ko'zga yanada yaqqolroq tashlanadi. Shoiraning ilk she'rlaridagi lirik qahramon bu-o'z taqdirini, tirikligini yanada go'zallashtirish uchun hayotsevarlik ishq bilan yongan, kuyib yashayotgan o'zbek ayoli. Shuningdek, ma'naviy to'kislik, ruhoniylar komillik inson baxt-iqbolini belgilaydigan omillar sirasidandir, degan badiiy-estetik kontseptsiya keyingi yillar shoira lirikasining qiyofasini belgilaydi. U nihoyatda olijanob, o'z baxti uchun kurashib yashovchi jafokash isyonkor ayol.

Ayol baxti, oilaviy tinch-totuvligi, iqboli shaxs erkinligi, ma'naviy go'zallikning muhim omillaridan yana biri sifatida badiiy tadqiq etiladi. Lirik qahramon baxt masalasiga g'oyat mas'ul yondoshadi. Afsuski, baxt-bozorlarda sotilmaydi deydi. Birovlar tomonidan tortiq ham etilmaydi. "Ma, olaqol, umringni bezab ol", deya ikki qo'llab tutilmaydi. Mehr-muhabbatni yuraklarda tarbiyalab, kamol toptiriladi, shakllantiriladi. Uning uchun kurasha bilish lozim. Ma'naviy to'kislikka erishish ana shu taxlit kurash shakllaridan biri. Va lekin, baxtsiz ayol taqdiri shoira yuragining og'riq nuqtalariga aylana boradi. Lirik qahramon tabiatidagi hayotga oshuftalik yonida dardli, alamli holatlar quyuq.

Siz bilan minnatdor xayrlashaman...

Neniki sharob deb o'ylab yugurdim,

Sarob bo'lib chiqib, qoqildim yo'lda.

Qayerdagi ko'm-ko'k jannatni ko'rdim.[20;61]

Ko'ngil ko'zida suratlangan, lirik qahramonning umidlarda aldangan kechinmalari manzarasini tashkil etayotgan detallar-bu ayollargagina xos azaliy mung, dilga yaqin ohang. Ayolning dardu quvonchi, hissiy dunyosi kamalak rang tovlanaveradi. Ular bizni hayotdan bezdirmaydi. Yashashdan toliqtirmaydi. Aksincha, baxt olis-olislardan izlanadigan bir yupanch emas. Also, o'z ko'nglida undiriladigan, o'stiriladigan, o'z qo'llari bilan tiklanadigan erk daraxtidir. Shu boisdan ham lirik qahramon yozg'irib: Opam, singlim ko'z yosh to'kmang sira-sira, Ayolga baxt berolmagan erkak uchun, deydi. Yoki, "Men baxtliman desam bugun bu yolg'ondir, yasamadir, To'marisdan tuyoqman-u, tirnog'iga o'xshamadim", deydi "Men baxtliman desam..." she'rida. Yoki:

Oh, bu elga kimlar qazdi chox
Qaydandir bu sanoqsiz gumroh.
Bugun bir porloq quyosh yo'q, oh
Moziyda... quyoshlar botadir.
Qay hofizga xudo-siymu zar
Qay shoiri xudo bexabar,
Qay otinining botini g'ar

Lirik qahramon turkiy ulusni bir yoqadan bosh chiqarib birlashishga da'vat etarkan, bu-millatni erkin-hur, ona-Vatanni mustaqil ko'rish istagidadir. Peshonalarning sho'rliгиyу ko'ngil ko'zlarining ko'rliги ham, kulgi-yu yig'ilar ham, baxt-u baxtsizliklar ham, yorug' kunlarning zimistonga aylanishi ham erksizlikdan. Millatning ongi-yu dili zanjirband etilganligida, muteligida. Illo, ana shunday mushkul bir holatda onglarni, ko'ngillarni g'aflat uyqusidan uyg'otadigan so'z bedor bo'lishi, yuragidagi olov so'nmasliги va aksincha, kul bosgan yuraklardagi g'uborni sidirib tashlab, cho'g'larni alangalatishi, gulxanlar yoqishi lozim. Lirik qahramon atrof-tevaragidagi chirmovuqdek o'ragan adolatsizlik, nohaqlik, baxtsizlik, loqayd va beparvolikdan beadam yozg'iradi. Kuyib kul bo'lgudek tutoqib yonadi.

Halima Xudoyberdiyevaning she'rlarida ham chin vatan farzandiga xos shunday fazilatlarini ko'ramiz. U "Chaman" to'plamidagi bir she'rida hayotiy kredosi-amolini bunday ifoda qilgan edi:

Mening qo'shiqlarim mening dardlarim,
O'quvchim, sen tomon talpinar har dam.
Tog'larga yuz ochgan birinchi lola-
Viqor, husni bilan aks etar unda.
To'pori, yalangbosh bir to'da bola
O'talar taqdirin baxs etar unda.[19;3]

Bundagi so'nggi baytlarda yaqin kelajakda O'zbekiston va butun Turonning eng navqiron farzandlari mustamlakachilar avj oldirgan afg'on urushida halok bo'lib, o'liklari sira ochilmas temir tobutlarda vataniga qaytishi, farzandining yuzini oxirgi marta ko'rolmagan onaning ko'hna dunyoni zir-zir titratuvchi faryodlari hali oldinda edi...

Shoira o'zining Vatan va xalq oldidagi mangu uzilmaydigan qarzlarini "Insonni kuylash uchun" she'rida bunday ifodalaydi:

...Zaxmatkash mehnat o'zi yaratar chin kuychini,
Bug'doy bo'liq yaltillab, boshhoq tortmas, ayting.
Qay ko'ngilga sig'ardi bug'doyzorda kuylamoq.
Yangi bug'doy nonini ko'zingga surtgan payting,

So'zlar-hayot misoli ko'hna, qadimiy. Inson ruhi singari boqiy. O'ng sakkiz ming olamga sig'magan narsalar tugmachadek, bulbulning ko'z yoshlaridek nuqra so'z og'ushiga jo-bajo bo'lg'usi. Daraxt bir joyda ko'karadi, degan maqolni biz yaratganmiz deya asrlar osha yerga chuqur ildiz otgan purviqortog'lar ham so'zning izmida. Bir og'iz aytsa bas, og'ir-og'ir odimlab yurib ketadi. Osmon to'la g'ujg'on yulduzlar, hayajoni ichiga sig'magan serg'uluv ummonlar ham shunaqa. So'zlar bahriga bosh qo'yadi. Bir piyola suvdek ro'parasida muhayyo bo'ladi.

Soʻzlar kuyib-pishgani, yozgʻirib kurashgani bois hiyonatu qabohatlar oʻrnida mehr-muhabbat, shavqat-muruvvat bogʻlari gullaydi, gurkiraydi. Yolgʻon-yolgʻonligini, zulm-yovuzligini butkul bas qilmasa-da, bir qadar koʻngli iliydi. Odamlar umrining uzayishga, yer yuzida tiriklik, hayot bogʻlari barq urishiga monelik koʻrsatmaydi.

Har kuni har birimiz gaplashib yuradigan oddiy va sodda soʻzlar Halima Xudoyberdiyeva sheʼrlariga koʻchib oʻtgach ana shunaqa sehrli kuch-qudrat kasb etadi. Aql bovar qilmas isteʼdodini namoyish eta boshlaydi. Oqibatda lirik qahramon oʻquvchining eng yaqin jigarbandi-opa-singlisi, doʻst-birodari boʻlib qoladi. Koʻngillardan joy oladi, ruhiyatimizning mulkiga aylanadi”[4;40]. Har qanday mukammal sheʼriyatning qadri, amaliy ahamiyati shunda. Oʻquvchilar qalbiga yoʻl topib, ularda salmoqli fikr, goʻzal tuygʻular uygʻotishida.

II BOB

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA AN’ANAVIYLIK VA NOVATORLIK

2.1. Lirikada tabiat tasviri

Ijodkor borki, qalam tebratar ekan, albatta tabiat tasviriga murojaat etadi. Xoh u she’r yozadimi, yoki nasrda qalam tebratadimi, peyzaj tasviridan foydalanadi. Umuman, lirikada bo‘lsin yo nasrdami, shoir yoki yozuvchi peyzaj tasvirini chetlab o‘tish hollari deyarli uchramaydi. Peyzajga murojaat o‘tmish adabiyotimizda, mumtoz shoirlar she’riyatida ham bot-bot uchraydi. Alisher Navoiy merosida ham turli fasllar ta’rifiga bag‘ishlangan ancha muncha g‘azallar, lirikaning boshqa namunalariga duch kelish mumkin. Bu an’ana zamonaviy adabiyotda, ayniqsa, lirikada etakchi o‘rinlardan birini egallaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Oybek, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Uyg‘un, Mirtemir, Zulfiya, M.Shayxzoda kabi o‘zbek shoirlari lirikasida tabiat tasviri namunalari tez uchraydi. H.Olimjonning “O‘rik gullaganda”, Oybekning “Kuzda”, “Kuz”, Uyg‘unning “Bahor haqida”, “Qor”, Zulfiyaning “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Oltin kuz”, “Qor”, Mirtemirning “Olma otaning qishi”, M.Shayxzodaning “Oqshom” va o‘nlab peyzaj she’rlari borki, har birida tabiat fasllari inson psixologiyasiga uyg‘unlashtirib talqin etilgani bilan ibratlidir. Lirikada peyzajdan foydalanishdan bosh maqsad ham shu-insonning muayyan vaziyatdagi holatini ta’kidlash, uning kayfiyatini tabiatning u yoki bu ko‘rinishiga taqqoslab talqin etishdir.

Bu jarayon, ya’ni peyzajni inson psixologiyasiga moslashtirib talqin etish, hozirgi she’riyatda ham mavjud va u lirik qahramonning ichki kechinmalaridagi har xil holatlarni yoritishga xizmat qiladi. Shoir insonning romantik kayfiyatini, quvonchu shodligini, baxtiyorligini tasvirlamoqchi bo‘lsa, albatta shunga monand peyzaj tanlaydi: gullar chamanini yoki bahor tarovatini, yoxud lirik qahramon qalbini nurlantiradigan shunday peyzaj yaratadiki, bunday tasvirdan o‘quvchi ham zavq oladi. Masalan, shoira G. Matyoqubova she’rlaridan birida shunday yozadi:

Shamollar ruhimni uyg‘otar ,
Goh zamin , goh osmon ustida ,
Derazam ortida tong otar ,
Uzaygan tunlarning qasdida .

Agar shoir lirik qahramonning iztiroblarini, dard-xasratini, ruhiy tushkinligini qalamga olmoqchi bo‘lsa, ushbu kayfiyatni ifodalaydigan peyzajga murojaat etadi: qahraton qish yoki dahshatli bo‘ron, zulmat oqshomi, quyosh nurini to‘sisib turgan bulut parchalari kabi tabiat ko‘rinishlarini lirik qahramon ruhiyatiga bo‘ysundiradi. Yana G.Matyoqubova lirikasidan misol keltiramiz:

Mayli yomg‘irlar yog‘sin, suron solsin shamollar ,
Mayli, qora tumanlar to‘shalsin so‘qmoqlarga ,
Bilaman, qora tuman, qora maqsad xayollar
Kezib yurar yonimda, goh yaqin–yiroqlarda

Peyzaj she‘riyatning bir qirrasidir. U lirik qahramon qalbini ochadigan badiiy vosita. Albatta tabiat tasviridan maqsadga muvofiq foydalana olish shoirning mahoratiga bog‘liq. Har bir peyzaj tasviri orqasida lirik qahramonning ruhiy holati talqin etilmas ekan, u qanchalik go‘zal chizilmasin, baribir she‘rda ortiqchaligi ko‘rinib qoladi. O‘zbek she‘riyatida tilga olinib yurgan atoqli shoirlar lirikasining yutuqlaridan biri ham ularning tabiat tasviridan muvaffaqiyatli foydalana olganida. R.Parfining “Shamolga osilib yashadim”, “Sochimni yuladi izg‘irin”, “Yomg‘ir yoqqanda”, Oppoq bulut izg‘ir sarosar”, “Shovullaydi, shamol uvllaydi”, M.Yusufning “Ko‘klamoyim” , “Qizilgul”, “Shabnam”, “Atirgul”, G.Matyoqubovaning “Kuz”, “Qor yog‘adi”, “Sirdoshim yomg‘ir”, “Yurtim shamoli”, “Har tong “she‘rlari va “Men nechun sevaman bog‘larni kuzda” ruhiy dostoni, Q.Rahimboevaning “Kuz”, “Daraxt sobit do‘stim”, “Tollar majnun bo‘ldi”, “Tong” kabi turkum she‘rlari, E.Vohidov, A.Oripov, Sh.Rahmon, H.Xudoyberdieva, O.Hojieva, U.Azim, A.Suyun, O.Matjon va yana boshqa bir qator taniqli so‘z ustalari lirikasining muayyan bo‘lagini tabiat tasviriga bag‘ishlangani bilan xarakterlidir.

Agar, chig‘anoqni qulog‘ingizga tutsangiz undan ummonning dolg‘ali shiddatnoq guvuri eshitiladi. Ulkan so‘z san‘atkorlarining nafaqat maqolalari, suhbatlari, intervyulari, shuningdek, she‘rlari, poemalari, qissa va romanlaridan ham adabiy-estetik qarashlarining epkini ufurib turadi. Badiiy so‘zlariga quloq tutar, adabiy qahramonlari e’tiroflarini tinglar ekanmiz, ustoz adiblarning shaxs va san‘atkorlik masnadini belgilab beruvchi dunyoqarashi, ijodiy ideali va e’tiqodi ularning mag‘iz-mag‘ziga singib ketganligidan xabar topamiz. Shu boisdan ham shoir-yozuvchilarning fikr-mushohazalari, adabiy qahramonlarining o‘y-kechinmalari yolg‘iz dil e’tiroflari emas; ular bizning zamondoshlarimizdir, aslida.

Ana shu mazmun-mohiyatiga ko‘ra nafis so‘z san‘ati vujudga kelgan ko‘hna zamonlardan beri lirika olam bilan odamni badiiy-estetik o‘rganishdagi hassos salohiyati bilan badiiy madaniyatimiz tarixida salmoqli o‘rin tutadi. Lirika hissiy nafosati, fikriy teranligi bois adabiyotning boshqa janrlari silsilasida nufuzi o‘zgacha. U olam bilan odam yuragini o‘rtagan kechinmalaru mushohadalar omixtaligida yuzaga kelgan ob‘ektiv mohiyati bilan go‘zal. Shu bois xalqimizning ma‘naviy hayotini, shaxsning fikriy-hissiy kamolotini, millatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini barkamol lirika asarlarisiz tasavvur etish qiyin.

“Shuhrat lirikasida ham mazkur yorug‘ xususiyatlar ustuvor. Badiiy tafakkur tabiatidagi sifat o‘zgarishlari o‘ziga xos she‘riy shakllarni ikkilik, to‘rtlik, oltilik, sakkizliklarida ifoda usullari xilma-xilligini taqozo etadi. Har bir avlod shoirlarining obrazlar tizimi bir-biriga o‘xshamaganidek so‘z san‘atkorlarining lirik qahramonlari ham har bir she‘rda betakror yo‘sinda fikrlaydi. Ushbu hol har bir ijodkor avlodning badiiyat tarixidagi o‘zlik qiyofasini belgilab berish barobarida shoirlarning individual dunyosini ham tayin etadi. Olam sir-sinoatlarini, inson ruhiyati iqlimlarini teran idrok etish borasida Shuhrat tinimsiz badiiy izlanishlar olib borganligidan dalolat beradi”[3;156].

Qush qanotidagi mayda patlari katta patlariga qanchalik madadkor bo‘lsa, har bir ijodkor badiiyatidagi yangi nuqtai nazar, tushuncha va talqinlar badiiy tafakkurning yorug‘lik darajasini oshiradi, yangi-yangi idrok pog‘onalariga ko‘taradi. Shuhrat lirikasi janrlarining boyligi, rang-barang shakliy izlanishlar

ildizi ana shu zamindan-hayotni, insonni yangicha tushunish hamda tushuntirishdan oziqlanadi. Tabiat va jamiyat hodisalarini, inson sir-sinoatlarini falsafiy tadqiq etishga moyillik samarasida sonet, ruboiy, fard singari an'anaviy janrlar, ikkilik, to'rtlik, oltilik, sakkizlik, o'nlik va h.k. poetik shakllar Shuhrat ijodidan mustahkam o'rin egalladi. Badiiy tafakkur tabiatidagi sifat o'zgarishlari shoir she'riyatining estetik ifoda imkoniyatlarini boyitdi. Xilma-xil poetik janrlar va she'riy shakllar hisobiga Shuhrat falsafiy lirikasi kanoralarini kengaytirib yubordi.

Baqo va fano, yorug'lik va zulmat, ezgulik va yovuzlik singari boqiy masalalar Shuhrat lirikasiga yangi nuqtai nazarlar, badiiy talqinlar, ijtimoiy falsafiy, axloqiy-ma'rifiy xulosalar, yangi umumlashma fikrlar olib keldi. Voqelikni yangicha estetik o'zlashtirish, tabiiyki, Shuhrat she'riyatida yangi yo'nalishlarni vujudga keltirdi. Shuhratning badiiy tafakkur tarzida xalqona hikmat his-tuyg'u va fikrning omixta sintezidan sizib chiqadi. Bu borada tahayurlar asosiga qurilgan obrazlilik ustuvor. Xususan, ijtimoiy voqelik yuzaga keltirgan, tabiat hodisalari uyg'otgan badiiy fikr lirik qahramonning ko'ngil chig'irig'idan o'tadi, tuyg'u-kechinmalarini o'ziga singdiradi; ong-shuurida muayyan poetik obraz sifatida shakllangach, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-tarbiyaviy ma'no kasb etgan holda teran mushohadakorlik hosilasiga aylanadi. U bir yo'la o'quvchi ko'nglida ham fikr gullarini undiradi, xalqona hikmatning go'zal namunalari sifatida ko'z ochadi.

Sen bolta urasan, bechora daraxt
Bir cho'chib, bag'riga ketar zirqiroq.
Sen undan o'zingga bunyod etsang baxt,
U esa mangu ko'z yumar biroq.[3;157]

Badiiy fikr tarbiyaviy-ma'rifiy mohiyati bilan yuzaga chiqayotir. Xususan, kimningdir iqboli birovlarining zavoli evaziga bo'lmasligi lozim, degan ma'no yetakchi. Yana, go'zallikni himoya qilish haqiqatni qaror toptirish bilan vobasta namoyon bo'ladi, degan ibratni ham anglash mumkin. Umuman, shoirning tabiat

va inson talqinidagi she'rlari, "Bog' ichidan qarab o'tding", "Injuning ta'rifi birolam", "Shu tuproqning qulog'iman, ko'ziman", "Men sening nomingni toshga o'yibman", "Sen suvga tosh otding, baliqqa tegdi" kabi she'rlarini bor. Ona yurt manzaralaridan hikmat o'qish, ibrat olish barobarida insonsevarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Yanayam muhimi, O'zbekiston tabiati xalqimizning yuksak axloqiy-gumanistik, insonparvarlik qarashlari bilan bog'liq talqin etiladi. Ularda shoir lirikasidagi Ona yurt obrazini belgilagan, kechinmalarga to'yingan, fikrga boy ma'noli bo'yoqlar yorqin ifodasini topgan.

O'choqni qazibsan, endi olov yoq,
Ustiga os, do'stim, toza bir qozon.
Bo'lmasa nimaga qaziding, o'rtoq,
Nimaga kerakdir bu chang, bu to'zon.

Yoki,

Subutsiz so'zini tonggi tuman bil,
Yo ko'prik o'rniga solingan bir qil.
Tumanning hayoti quyosh chiqquncha,
Qil holi ma'lumdir chiqsa agar fil.

Olov-yorug'lik, harorat, rizq-ro'z mujdasi tariqasida talqin etilsa, tabiatdagi chang, to'zon unsurlari o'tkinchi hoyu havaslar ma'nosiga aylangan. Subut, lafz-ma'naviy qadriyat; ularsiz odamdagi insoniylikka putur yetadi; qadrini yo'qotadi. Tabiat go'zalliklarini tuyish, qadrlash va baholash aqliy-ahloqiy madaniyatning yetakchi belgisi, muhim ko'rinishi tariqasida talqin etilayotir. Insonning tirikligi hayot izdihomida bir zarra, kukun misoli. Va lekin, lirik qahramonning ba'zan yo'lin bosib kelsa tun, ko'proq yo'lin ravshan etar nur. U g'ururiyu erkini ham Ona yurtida topdi. Shu bois, butun umrim she'rimda qoldi, Mehrim Ona yurtimda qoldi, deya faxr, e'zoz tuyg'ularini tuyadi. Shu bois vazmin tog'lar, sho'x-shan soylar, jiloli oftob, keng ufqlar jonli kitobdek o'qiladi. Hayot deb atalgan buyuk ne'matga munosib yashash ma'suliyati va qudratini lirik qahramon qalbiga singdiradi.

Shuhratning intellektual lirikasida falsafiy ma'no tabiat obrazlari-detallar rangdorligi va bo'yoqlar zamiridan balqib turadi; badiiyatni ta'minlovchi xos xususiyatga aylanadi. Bu, shoir estetik qarashlarining zohir bo'lishida tabiat unsurlari insoniy xislat-fazilatlar kasb etayotir; shoirning olam va odam sir-sinoatlarini tushunish hamda tushuntirishdagi o'ziga xos nuqtai nazarlari tizimini belgilayotir.[3;159]

Shuhratni tabiatning sirdosh kuychisi, deyish kamlik qiladi. Tabiat shoir uchun boqiy betimsol ustoz. Yana, ibrat, hikmat va haqiqat timsoli. Ona o'lka tabiati, O'zbekiston tuprog'i shoir ko'ngliga so'z sehri va mehrini singdirdi; adiblik zuvalasini pishitib, kamol topdirdi.

Shuhrat estetikasida har bir so'z qanotli, ramzli. Osmonu falakda qushlar parvozi-yu bulutlar hayoli emas, odamlarning tabiat, jamiyat, dunyo haqidagi tasavvur va tushunchalari g'ujg'on o'ynaydi. Oftob qozonida qaynaydi. Daraxtlarning ko'm-ko'k bulut shaklini olgan fikr-o'ylari nimalarnidir aytishlikka oshiqib entikadi. Qaldirg'ochlar toliqib simyog'ochlarga, tok so'rilarining yog'och bag'azlariga emas, shoirning kipriklariga kelib qo'nadi. Bo'g'otlardan chak-chak tomgan tomchilar bahorning ko'z yoshlari emas, ular daryolaru ko'llarning, ummon-larning urug'i. Xurmoning ko'm-ko'k shapaloq barglaridan sizib oqqan sim-sim tomchilar, aslida, osmonning yerga aytmoqchi bo'lgan so'zlari. Yulduzlarning tovushlari, oftobning erib suvga aylangan, silqigan xotiralari.

Yomg'ir tomchilari ham ko'kni yer bilan bog'laydi. Ko'ngillarni barru bahrlarga ulaydi. Yomg'irdan keyin tomchilar oydin tiniqlikni, yorug' bokiralikni, nurli musaffolikni boshlab keladi. Yer gullaydi. Osmon gullaydi; Olam yomg'ir bo'ylariga to'lib ketadi. Xuddi tunlar og'ushida tonglar bo'y ko'rsatganidek, tunlar bag'rida yorug'lik gullagani misoli.

Timsollar Shuhrat poetikasida so'z-obrazlar, qiyoslar, ishoralar sistemasidan iborat rangin biro lam. Ana shu g'oyat turfa obrazli tahayurlar orqali aks etgan ma'nolar daraxti u. Qalbning to'rt fasli shabadalari oshiyon qurgan. Shu boisdan ham biz unga hamisha talpinamiz, bahra olamiz.

Sen qorda izingni mag'rur ko'rsatib,

Dedingki, muhrdek yonishiga boq.
Ismi qor emas, toshga naqsh etib,
Hokisor yurganlar bordir, ey o'rtoq. [3;160]

Ushbu satrlarda ifodalangan har ikki holat ham fikrlayapti. Burgut bilan ilonning xatti-harakatiga ramzli ma'no yuklash orqali shoir tabiatdan ibrat olishga, hikmatli ma'no o'qishga undaydi. Mazkur xususiyat Shuhrat she'riyatida tasviriyy san'atning ta'siri samarali va salmoqli kechganligidan dalolat beradi. Aslida tasviriyy san'at his-tuyg'ularning ifoda madaniyatidir. U Shuhratning she'riy shakllardagi izlanishlarida falsafiy mushohadakorlikni aks ettirishiga ko'ra alohida yo'nalishga aylangan.

Shuhrat to'rtliklarida lirik qahramonning psixologik holati, kayfiyati va kechinmalarini suratlantirish timsolning muhim belgilaridan biri sifatida bo'y ko'rsatadi "Nurdan o'z qalbing bebahra ekan, Ko'ksingga taqqaning gul emas, tikan"; "Tulkilar minbarda nutq so'zlaganda, Lozimdir xo'rozlar hushyor tortishi"; "Bu umr nodonga beqiyos uzun, Donoga tuyaning dumidek qisqa"; "Qatiqning yuzini yog' bossa agar, "Xo'p yaxshi bo'pti!"-quvonar onam. Do'stlarning ko'zini yog' bossa agar, faryodki, g'aflatda qolibdi olam"; "Sen kekkayma! Kekkaygan qamish bo'yra bo'lib yotar, ana boq! Ezg'ilasa ko'ksini oyoq, eshitilar hasratu nolish" kabi tasvirlarda shoirning ohorli badiiy-falsafiy, axloqiy fikrlari tabiat bo'yoqlari va ranglariga singdirib yuborilgan. Bu-tasviriyy san'atning samarasidir. She'rga ko'chib o'tgan ranglar falsafasidir. Tabiat unsurlarining shoir she'rlaridagi insoniylashgan ma'noli holat va kechinmalari tasviri bizni o'yga toldiradi, mushohadakorlikka undaydi. Zero, tasvir timsolga, ranglar tafakkurga aylanadi. "O'tgan umr...", "...Irmoq oqar...", "Bahorning ko'rki bor...", "Kuz ham keldi, yaproqlar...", "Kechqurun shafaqni o'g'irlab..." va h.k. to'rtliklari shu jihatdan e'tiborli.

Shuhratning she'rlari kamso'z, poydor, xalqchil, donolikka moyil,-deb yozadi Asqad Muxtor. Kitoblarining katta qismini kichik janrdagi lirik mulohazalar, sakkizliklar, to'rtliklar tashkil qiladi. Ixcham, aforistik ifodaga

intilish, umr mazmuni, odamning hayotdagi o'zni, izi, yoshlik, keksalik, vaqt va manguilik haqidagi fikr hamda hayotiy tajribalarini aytib olishga intilish, harakat qilish uning butun ijodiga poetik bir o'ychanlik ruhini bag'ishlaydi. Poeziyaning bu turida ishlashning o'z qiyinchiliklari bor. Unda shoirni har qadamda didaktikaga, nasihatgo'ylikka berilib ketish xavfi poylab turadi”.

Shuhrat she'riy shakllar borasidagi izlanishlari, xususan, to'rtliklarining estetik tabiati haqida yozadi: “Yozuvchi ...boshqalardan farqli o'laroq hayotni ijodkorga xos ko'z bilan ko'radi. Ijodkorga xos qalb bilan his etadi. Nainki hayotni o'ziga xos ko'radi va ijod etadi. Hatto uni o'ziga xos yo'l bilan tahlil qiladi. O'z munosabatini bildiradi. O'z fikr-mulohazalarini o'rtoq-lashadi. Shu tahlil va munosabatlarining to'g'riligiga keng kitobxon ommasini ishontirishi, uning qalbini hayajonga solishi, zavqlantirishi, ezgulikka mehr, qabihlikka qahr uyg'otishi kerak. Uni yangi nurli cho'qqilarga chorlashi, yuragiga kuch-g'ayrat baxsh etishi lozim. Qabihlikka qarshi o't ochishga otlantirishi kerak.

She'r esa, ana shu ijodkor niyatlarini ifodalashda shaklga solingan his-tuyg'u va fikrlardir. Uning o'z musiqasi, qonun-qoidasi va tartiboti bor... To'rtlikdagi ixchamlik, fikrlarni lo'nda qilib aytish menga yoqib qoldi. Lekin bular ruboiylar emas. Hamma to'rtlik ruboiy bo'lavermaganidek, hamma ruboiy ham to'rtlikdan yuqori emas. Men ruboiyning an'anaviy qat'iy shaklini saqlab o'tirmadim, o'zimni erkinroq tutib, qofiyalash tartibini fikr-hisning oqib kelishiga qarab tuzataverdim”.

Tabiat-jamiyat-inson o'rtasidagi aloqalarni badiiy tadqiq etishda Shuhratga ikkilik, to'rtlik, oltilik, sakkizlik singari poetik shakllar ko'proq qo'l keladi. Zero, dunyoni tushunish hamda tushuntirishdagi xalqona hikmatga moyillik shoirga falsafiy ma'nodorlikni o'zida tajassum etgan ana shu shakllarga ko'proq murojaat etishni taqozo qilgan. [3;163]

Fikrlarimizning umumiy xulosasi shuki lirikani, har bir shoir she'riyatini peyzaj tasviridan xoli tasavvur qilish qiyin. Shoir lirik qahramon qalbidagi rang-barang tuyg'ularni ochishga harakat qilar ekan, albatta, tabiatning turli tuman ko'rinishlaridan foydalanadi va shu orqali o'quvchida muayyan tuyg'ularni shakllantiradi, tabiatga havas ham uyg'otadi.

2.2. She'riyatda ramziy majoziy talqin va tuyg'ular uyg'unligi

Fikr va tuyg'u mushtarakligi she'ning badiiyatini belgilaydigan asosiy qoidalaridan biri. Shoir voqelik bilan inson ruhiyati o'rtasidagi turli-tuman hayot hodisalariga murojaat etganda, tuyg'ular fonida biror fikr aytishi, muhim g'oyani ko'tarishi shart. She'r qanchalik hayajon bilan yozilmasin, qanotli so'zlar, ramzli obrazlarga belanmasin, agar unda salmoqli fikr, dunyoqarashni boyitadigan muhim bir gap bo'lmasa, haqiqiy she'r sanalmasligi ilmda isbotlangan. Mutaxassislar orasida "Fikr-she'ning cho'g'i" degan gap yuradi. She'ning qoni va joni fikr tuyg'ular ruhiga qanchalik ko'p singdirilsa, talqin shunchalik mukammallashadi. Eng asosiysi, o'quvchi she'rdan ham estetik lazzat oladi, ham mushohadasi kengayadi. Guliston Matyoqubova bu sohada ham talay yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, shoiraning mustaqillik yillarida yozgan she'rlari, nashr etilgan kitoblarida har xil mavzular yoritiladi. Istiqlool g'oyalari ko'tarinki kayfiyat, jo'shqin kechinmalarda, teran fikrlar bilan kuylanadi. She'rlarda tuyg'ular bir dunyo bo'lsa, fikrlar, ma'nolar ham bir dunyo.[15;18]

Mustaqillik barcha shoir va yozuvchilar qatori G.Matyoqubova uchun ham ijod eshiklarini keng ochdi. Natijada, u yangi zamon, yangi adabiy muhitdan erkin nafas olib, adabiyotning bir necha janrlarida ijod qilishga kirishdi. Asardan asarga, kitobdan kitobga o'sib, qalami o'tkirlashib bordi. Kitobxonlar, ilmiy-adabiy muhit e'tiborini qozondi. Shoiraning istiqlool yillarida chop etilgan. "Men sen uchun yashayapman" she'riy to'plami mustaqillikning dastlabki yillaridagi ijodiy mehnatlari samarasi edi. To'plam O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupovning "Ayol yuragining nozik tuyg'ulari" so'zboshisi bilan ochiladi. Va unda shunday samimiy satrlar bor: "Guliston naqadar kamtarin, samimiy, xushmuomila, pokiza bo'lsa, she'rlari ham shunday. Uning she'rlarini o'qiganingizda, ayniqsa, lirikasidan shoiraning tabiati, jon-yuragi, ruhiy dunyosi, iztiroblari va quvonchlari, umidlari va armonlariga chin ko'ngildan ishonasiz, hammasi rost ekan deysiz. Nozik ayol tabiati, uning inson

qayg'usi bilan qayg'udosh qalbi, hayot tashvishlari bilan qaynab turgan toza buloqdek, tip-tiniq. Gulistonning she'rlarini uyning derazasini sal ochib qo'yib o'qisangiz, shamol kirib sizga shivirlaydi. Bu Amu bo'ylarida tug'ilgan shoironing yuragidan to'kilgan tuyg'ular ekanini bilib, beixtiyor uning hayollariga qo'shilib, suhbatlasha boshlaysiz. Bu Gulistonning she'rlari."

Bu fikrlarda G.Matyobubovanning ham shaxs, ham ruhiy olami, turfa tuyg'ularga boy shoiraligi, bu fazilat uning lirikasida bosh leitmotiv ekanligi iqrar etilgan.

To'plam "O'quvchimga" she'ri bilan ochiladi. Muallif she'riyat muxlisi bilan dardlashadi. Yaxshilik bilan yomonlikning hayotiy falsafasi, bu axloqiy normaning foydasiyu zarari haqida muloqotga kirishadi.

Do'stim mening,
Men ko'rgan tonglarning,
Bir yanog'i oq,
Bir yanog'i qora yovuzliklardan
Munis bir onaning,
Farzand dog'idan,
Qon bo'lgan jigari,
Ming tilka pora
Yovuzliklardan.
Men ko'rgan quyoshning,

She'rda lirik qahramonning ichki tug'yoni, ezgulik bilan yovuzlikka, sadoqat bilan hiyonatga, yaxshilik bilan yomonlikka munosabati, ruhiy kurashi real hayot, odamlar qismati misolida ochiladi. Bu ziddiyat, ezgulikni ulug'lash, jaholatga nafrat har bir misraning ichki mazmunini yoritib turadi.

To'plamdagi she'rlar shoirning hayot va odamlar haqidagi tasavvurlari yangilanib, fikrlari charxlanib borayotganini ko'rsatadi. Hayotning balandini

pastidan, odamlarning yaxshisini yomonidan, yolgʻonini rostidan farqlashda shoiraning tajribasi oshib boradi. Bir sheʼrida:

Bugun meni sergak, hushyor torttirdi,
Oq bilan qoraning oʻrgatdi farqin- [25;57]

deb yozishi muayyan mantiqqa asoslangan. Har bir inson, ayniqsa, ijodkor hayot sinovlarida toblanadi, chiniqadi. Bu hayotiy saboq, keyinchalik uning ijodida turmush material vazifasini bajaradi. Demak, mazkur sheʼrga singdirilgan lirik qahramonning kechinmalarini muallifning real turmushni kuzatish tufayli shakllangan taassurotlari, qalb tugunlari, orzu armonlari maʼnosida tushunsak, xato boʻlmas.

Shoiraning “Holat”, “Yomgʻir”, “Umid”, “Men chiqqan yoʻl”, “Kurashlarda chiqsin jon”, “Dil shishasi”, “Tinchlan shamol”, “Xotiralar” va yana boshqa sheʼrlari lirik qahramonning qalb koʻzgusi, lirikaning original namunalari. Ularda quvonch qaygʻu, orzu-umidlar, insonlarga, tabiatga daxldorlik hissi betakror poetik obrazlarda yoritiladi.

Tomirlaringdagi qirmiz qon ichra,
Quvonch ham, qaygʻu ham tinadi bir kun,
Ishonib yashading sodda quvonchingga,
Sevgi, mehr, ishonch, sadoqat butun.

Bandlardagi ”quvonch”, ”qaygʻu”, ”sevgi”, ”sadoqat”, ”tugʻyon”, ”orzu”, ”mehr”, ”tong” obrazlari sheʼrning mazmunini ochish, ritmik ohangdorlikni taʼminlashga, lirik qahramonning turli vaziyatdagi holatini, ruhiyatidagi bezovtalikni oʻquvchiga yetkazishda muhim vosita boʻlgan. Sheʼrning ichki mazmunidagi ziddiyat orqali har bir shaxs qalbida abadiy mavjud, doimo oʻzaro toʻqnashib, insonda murakkab psixologik holatlarni sodir etadigan tuygʻular ustuvorligini his qilamiz.

Mazkur kitob mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab shoironing hech ikkilanmasdan, ishonch bilan, milliy istiqlol gʻoyalari ruhida ijod qila boshlaganining isboti. Har bir sheʼr, dostonlar ham muallifning yangi zamonga nisbatan mehrining aks sadosiday, taassurot qoldiradi.

Shoironing ozod va obod yurt kamolidan olgan ilhomi galdagi kitoblarida yanada joʻshqin, yanada badiiy mukammal, gʻoyatda koʻtarinki pafosda kuylaganiga guvoh boʻldik.

Muallifning “Ayting menga Toʻrtkoʻl haqida” (1993), “Intizorlik” (1995), “Yoʻllaringga chiqdim” (1997), “Daryoga botayotgan quyosh” (1998), “Izlaganlarim” (2000), “Oybaldoq” (2001), “Vatan ruhi” (2011), “Ota uyim” (2014) kitoblari istiqlol yaratgan imkoniyat mevalaridir. Kitoblarda mustaqillik va yurt ozodligi, zamon va zamin koʻrinishlari, millatning oʻtmishi va buguni, kelajagi, qadriyatlari, odamlarning ongu shuuridagi oʻzgarishlar, tabiatigacha, yangi mezonlar, yangi qarashlar, yangicha tafakkur bilan idrok etiladi, talqin qilinadi. Kitoblar yana bir jihatdan ahamiyatli. Har birida muallifning badiiy mahorat bobida tadrijiy oʻsib borganini koʻramiz. Sheʼrlar mavzusining muhimligi yoki xilma-xilligi bilangina emas, balki har bir sheʼr ifoda usulining yengilligi, fikrlarning salmogʻi, obrazlilikka qurilgani, xulosalarning ibрати bilan ham ahamiyatli. Oddiylikka asoslangan teran maʼno, poetik ohang, samimiy tuygʻu oʻquvchini seyrdaydi, fikrini charxlaydi.

Koʻzlarimni berdim osmonga,
Yulduz boʻlib senga termulsin.
Yarqiragan toʻlin oy boʻlib,
Derazadan senga intilsin.

Bandlarning shakli, ifoda yoʻsini, ramziylik, insoniy munosabatning goʻzal xislatlari jozibali ohangda, nafis tuygʻular fonida ifodalangani talantning olmos qirralaridan biri.

Ramziylikni o'zni-o'zida ishlata bilish ham san'at. Agar ramzlar muallifning biror hodisaga munosabatini oydinlashtirmasa, ma'noni kuchaytirishga xizmat etmasa, asarda ortiqcha "yuk". G.Matyoqubova poetik talqinda, ramziy obrazdan maqsadga muvofiq foydalanishda mahorat oshib bordi. Fikrimizga misol:

Xazonlar ko'chadi bog'dan yurakka,
Mungli xayollarni ko'zlarga bog'lab,
Bu ne kulfatlardan kelgan darakmi,
Bu ne azoblarki ko'ngilni dog'lar?

Osmon ham yashirgan o'z oftobini,
Taqdir seni mendan qizg'ongansimon,
Bilsayding sog'inchning o'y azobini,
Sevinchlarning rangi kuzday za'faron...

Tabiat obrazi orqali biror fikr aytish, turli fasllarni odam o'y-xayollariga moslashtirib talqin etish adabiyotda yangilik emas. Bu an'ana azaldan bor. Hatto mumtoz adabiyot ham bu masalada yaxshigina tajribaga ega. Tabiatga murojaat etmagan, inson kechinmalarini o'quvchiga yetkazishda bu imkoniyatdan foydalanmagan shoir yoki yozuvchi yo'q hisobi. Gap shundaki, tabiatning qaysi fasli yoki qay bir ko'rinishi, inson ruhiyatidagi ziddiyatni ifodalashga, asar g'oyasini ochishga xizmat qila oladi? Muallif shuni to'g'ri tanlay olsa, maqsadga muvofiq foydalansa, nur ustiga a'lo nur. Aks holda, o'rinsiz ishlatilgan peyzaj, qanchalik go'zal bo'lmasin, inson psixologiyasiga uyg'unlashmasa, asarda ortiqchaligi ko'rinib qoladi. G.Matyoqubova ko'p she'rlarida lirik qahramon qalbidagi tug'yonni, tasdiq va inkorni oddiy so'zlar bilan emas, balki tabiatning turg'un va harakatdagi bo'yoqlaridan foydalanib talqin etadi.

Mayli yomg'irlar yog'sin, suron solsin shamollar,
Mayli, qora tumanlar to'shalsin so'qmoqlarga,
Bilaman, qora tuman, qora maqsad, xayollar,

Kezib yurar yonimda, goh yaqin-yiroqlarda...[24;-]

Shoira lirik qahramonning iztiroblari, hasratlarini ta'sirli chizish uchun yana tabiat obraziga murojaat etadi.

Yo'llarning chetidan ma'yus teraklar,
Sizni so'roqlaydi to'rt tomon boqib.
Pushti gullarini to'kib o'riklar,
Zor-giryon yig'laydi ichlarim yoqib...

Shoiraning tabiatiga g'oyat maftunligini, turli ko'rinishlaridan mohirona foydalanib fikr ayta olish uslubini dalillaydigan yana bir xarakterli misolga diqqatingizni qaratmoqchimiz.

Shamollar ruhimni uyg'otar,
Goh zamin, goh osmon ustida,
Derazam ortida tong otar,
Uzaygan tunlarning qasdida.

Qizketgan chayqalar bir sovuq,
To'lqinlar qirg'oqqa bosh qo'yar.
Qoradol mudraydi ko'z yumib,
Yomg'irga aylanar savollar...

Muallifning ba'zi she'rlaridagi "Boshlarim ustida bulutlar, Beayov yog'moqqa shaylangan", "Ko'kda yulduz tiziladi", "Oyning iztirobidan", "Majnuntol kokilin o'radi shamol", "Kurtaklar bag'rida mudragan xayol", "Uzun teraklarning dardin tingladim", "Ular yaproqlarin to'kib yig'laydi...", "Shamollar boshimni silar", "Qoraygan barglarning bag'rida dog'lar" va yana o'nlab, yuzlab, undan ham ko'p tabiat mavzusiga murojaat etilgan betakror misralar, bandlar

borki, ularda lirik qahramonning ruhiy dunyosi, fikr olami tabiat orqali ochiladi. Tabiat manzaralarini kuzatgan, zavqlangan, idrok etgan va eng muhimi, ularni insonda ro'y beradigan turli ma'naviy psixologik holatlarga-shodligiyu qayg'usiga, o'tkinchi armonlariga payvandlab, fikr bilan tuyg'uni uyg'unlashtirib tasvirlay olgan ijodkor maqsadiga yetadi. G.Matyokubovaning tabiatga bag'ishlangan she'rlari, aynan shu g'oyaga xizmat qiladi. Tabiat muallif uchun fikr aytish vositasi. "Ilmiy-adabiy jamoatchilik orasida "Guliston Matyoqubova-tabiat kuychisi" degan gap bor. Bu bekorga aytilmagan, nazarimizda. Shoiraning turli yillarda bosilib chiqqan kitoblaridagi "Yomg'ir yog'di", "Qizketgan bo'ylarida", "Keksa gujum", "Anorlar bag'rida armon so'tilar", "Tiniq osmon", "Keldingmi bahor", "Yana yomg'ir yog'ar", "Yo'qlasa bir shamol meni daraklar", "Oyning iztirobi", "Shamollar"... She'rlar shoirning nafaqat tabiat kuychisi, balki peyzaj orqali lirik qahramon ruhiyatidagi turfa o'zgarishlarni yoritish bobida ham talantli ijodkor ekanligini ko'rsatadi"[15;36].

Xullas, tilga olingan she'rlarda fikr va tuyg'ular omuxtaligi ta'minlangan. Kechinma bilan fikrning o'zaro bog'liqligi she'r go'zalligini namoyish etganidek, badiiy ma'no salmog'ini ham oshiradi. Bu esa she'rning chinakam badiiyat unsure, shoira poetik mahorati ifodasidir.

Ha shoir so'zdan so'zga, she'rdan-she'rga o'sib bordi. Uning aytmoqchi bo'lgan dil gaplari hali ko'p. Ular mushtday yurakda o'zin qay tamonga urishni bilmas «Agar osmonga aylanib qolsa, barcha umidlarini yomg'irga burardi». Ya'ni go'zallik yaratadi, chunki shoirlar go'zalliklar oshig'idir. Go'zallikni his qilgan odam ezgulik odamidir. "Yovuzlik-dag'al, ezgulik-inja, yovuzlik qora-ezgulik oq, bu oqlik uchun kichik bir gard ham dog'. Demak ezgulik odamining ko'ngli ham inja. U daf'atan shod bo'luvchi, qayg'uruvchi, hayratlanuvchi, iztirob chekuvchi, goh-goh dunyo ishlaridan ozor chekib uzlatga chekinuvchi, uzlatda ko'ngil olamini mushohada etuvchi, eng go'zal tuyg'ularini she'rga soluvchi, kuylovchi, yig'lovchi zot".[34;4] Demak, Guliston Matyoqubova ezgulik odami, mana uning quyidagi she'riga e'tibor beraylik.

Tomchi-tomchi bo‘lib quyardim yerga,
Nish urgan o‘tlarga baxsh etardim jon,
So‘ngra ozod shamol, tong bilan birga,
Cheksiz kengliklarni aylardim makon.

Guliston Matyoqubova lirikasining mavzulari ham turlicha. Insonning ruhiy olamini tabiat obrazi orqali, hayotiy lavhalarda, poetik detallar bilan qanchalik samimiy va ta’sirli yoritgan bo‘lsa, boshqa mavzudagi asarlariga ham muallif shu talab bilan yondashadi. Vatanni kuylash shoiraning sevimli mavzularidan biri. Uning Vatan haqidagi she’rlarida ona yurtiga mehr tuyg‘usi, sadoqati, kamolidan iftixor ufurib turadi. Tor va keng ma’nodagi Vatan tushunchalarini uyg‘unlashtirib, tutashtirib, shunday talqin etadiki, siz Vatan tushunchasi dunyodagi eng go‘zal, eng ardoqli va eng muqaddas tushuncha ekanligini his qilasiz. To‘rtko‘l G.Matyoqubova tavallud topgan makon. U shoira uchun faqat tug‘ilgan joy emas, parvozig qanot bo‘lgan tabarruk diyor hamdir. Shoira bir she’rida yozadi:

- Tog‘li qishloqlarni bir ko‘rmabsizlar,
Salqin havolari dardlarga darmon.
Eh, o‘sha yerlarda tug‘ilmabsizlar,
Bu yerlarning changi, issig‘i yomon...

Lirik qahramon nazdida, garchi tug‘ilgan vatanning “yerlari chang, issig‘i yomon” bo‘lsa-da, u hech narsaga alishtirib bo‘lmaydigan, o‘ta noyob va aziz, qudratli tuproq. “Teraklari bizdan baland bu yurtning”, deb yozganida qanday ramziy ma’no borligini sezgandirsiz. Quyidagi to‘rtlikda “Vatan” obrazining boshqa bir qirrasi, Vatan ichidagi vatanning betakror qiyofasini gavdalantiradi:

Mening yurtimday yurt yo‘qdir olamda,
Olamda ta’rifiga maqto‘v so‘zi yetmaydi.
Saxiy, ko‘ngli ochiq, mehmondo‘st uyi,

Oldidan o‘rganlar kirmay ketmaydi.

Shoiraning “To‘rtko‘lga”, “Salom mening ona yurtim” va boshqa she‘rlarida, “Aytgin menga To‘rtko‘l haqida”, “Eng nafis gul” poemalarida, turkum publitsistik maqolalarida ona zamini odamlari to‘g‘risida ilhom va g‘urur bilan yozadi. Yurtdoshlarining Vatan farovonligi yo‘lidagi mehnatlarini sharaflaydi. O‘zi ham mustaqil elning bir fuqarosi ekanligidan faxrlanadi. Shoir tasavvurida Vatan keng ma’noli tushuncha. Shuning uchun ham Qoraqalpog‘iston yoki To‘rtko‘l ta’rifi misolida o‘quvchi yaxlit O‘zbekistonning umumlashma obrazini ko‘ra oladi.

Ko‘ngillar ichida yuksalar Turon,
Qadim ajdodlarning umidi hamon.
Qoraqalpog‘iston, hur O‘zbekiston,
Biri ona zamin, biri hur osmon.

Tarixing so‘zlagay Beruniy so‘zin,
Qo‘ng‘irotda Hakim otaning ko‘zi
Guliston der, obod bu Vatan,
O‘zbekiston elin muqaddas izi...

Garchi misralarda fikr oshkora, obrazlilikdan xoli ifodalanayotgan bo‘lsa-da, hayotiy faktlar real yoritilgani she‘rning fazilati. Istiqlool zamonidagi vatanparvarlikning shukuhini, ahamiyatini o‘quvchi idrok etadi, his qiladi.

G.Matyobova lirikasida bunday she‘rlar ko‘p va har birida Vatan yuqori pardalarda kuylanadi. “Vatan gulag ko‘chgan ruhimiz bog‘i”, “Ozod zamonim bor”, “Vatan”, “Kel yilim yaxshilik ziyosi bo‘lib”, “Ko‘rindi”, “Qoraqalpog‘iston”, “Har Vatanning” kabi she‘rlar turkumi, “Amudaryo oqib kelar, qadami qutlug‘” sonetlar guldastasida Vatanning o‘ziga xos badiiy obrazi gavdalantiriladi. Ba’zilarida Vatanning ozod va obodligi haqida so‘z ochilsa, ayrimlarida Vatan

tarixida o'chmas iz qoldirgan siymolar ulug'lanadi, yana birlarida esa Vatanni yuksaltirayotgan mehnat kishilari vasf etiladi. Shu taxlitda Vatanning yaxlit obrazi o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Shoiraning "Vatan ruhi" kitobi bu mavzuni ixlos bilan yoritishda yangi bosqichdir. To'plam publitsistik maqolalar, she'rlar va bir dostonidan iborat. Vatan haqida adabiyotda ko'p asarlar bitilgan. Biroq mavzu har xil shoirda har xil uslub va usullarda yoritiladi. Haqiqiy iste'dodlar hech qachon biri boshqasini takrorlamaydi. G.Matyoqubova ham mavzu talqinida original yo'l tanlaydi, hech kimga o'xshamaydigan poetik usulda yozadi. Vatanga sadoqat, u bilan hamnafas yashash, taqdirini Vatan taqdiriga bog'lash va shu orqali baxtga erishish g'oyalari she'rlarining yetakchi pafosi. To'plamdagi "Ozod yurt, ozod ko'ngil", "Gullar vodiysi", "Yurtim", "Buyuklik kelmoqda O'zbekistonga", "Yurt iqboli", "Mustaqil farzandla-ringmiz", "O'zbekiston-hur, yagona", "Vatan", "Qadim diyorim", "Sadoqat" she'rlari butunligicha bir mavzu-Vatanni ulug'lash, tarixi va buguni haqida kitobxonda faxr hissini uyg'otishga qaratilgan".[15;30]

Ozod yurtim, tonglaringda ochiq osmonim bor mening,
Ochiq osmonim ostida ozod davronim bor mening.
Ajdodlardan kuch olguvchi ruhi ravonim bor mening,
Dunyolar ichida dunyo jonu jahonim bor mening,
Istiqloli baxt-iqbolim, ota makonim bor mening.[24;18]

Qalbida Vatan tushunchasi bor inson, she'rni o'qib shoir bilan teng zavqlanishi tabiiy. "Vatan" atamasi, bu shunchaki, yer-suv, tuproq, bog'u-bo'ston, hashamatli binolardangina iborat emas. Uning tikanli changalzorlari, o'jar tabiati, inson qalbiga uya qurgan jaholat illatlari, Vatan-ning o'tmish va yaqin tarixida ro'y bergan iztirobli voqealar ham borki, bular ham Vatanning bir qismi. G.Matyoqubova bu murakkab jarayonlarni ham afsus bilan qalamga oladi.

Tortilgan Orolning qirg'oqlaridan,

Chaqaloq qushlarning nolasi kelar.
Farzandini bag‘riga erkalab bosgan,
Munis onalarning allasi kelar.

Shoir qaysi usulda Vatanni ta’riflasi ham, muqaddasligini ta’kidlaydi. Ona yurtga hiyonat kechirilmaydigan xato, gunoh ekanligidan ogohlantiradi. Biz G.Matyoqubovaning ona vatanni madh etuvchi she’rlarini kuzatar ekanmiz K. Baxriyevning yuqoridagi so‘zlari esimizga keladi. Shoir she’rlarida quruq madhiyabozlik, balandparvozlik sezmaymiz.

Yon yuragim, yongin xazonlar bilan,
Zero har bir yaproq sening bo‘laging,
Jannati bog‘larga bog‘langan vatan,
Har bargda saqlaydi ezgu tilaging.

Shu go‘zal baytlarda ona-vatan qadr qimmatining bebaholigi shoirona ochib berilgan. «Oh, vatan, men seni sevaman!» – deb baqirib chaqirgandan ko‘ra, mana shu tarzda samimiy, chuqur ma’noli lutf qilishda vatanparvarlik his-tuyg‘usi o‘ziga xos bir tarzda, betakror insonga bir ohangda sado beradi”. [33;-] Vatanni sevish, faxrlanish, ardoqlash, Vatanga sodiq bo‘lib yashash va mehnat qilish-mana muallifning Vatan turkumi she’rlaridan chiqadigan mantiqiy xulosa.

G.Matyoqubova she’riyati haqida so‘z yuritganda muhabbat mavzusidagi she’rlarini chetlab o‘tish mumkin emas. Bu mavzu muhim o‘ringa ega. Adabiyotda muhabbat haqida she’r yozmagan shoir yo‘q va har biri mavzuga o‘ziga xos talanti bilan yondashib, o‘zgacha talqin etadi. G.Matyoqubovaning muhabbat mavzusiga yondashuvi, badiiy-estetik idrok etish salohiyati ham hech bir shoirga o‘xshamaydi. Muallifning “Sevib qolsin”, “Yo‘llaringga chiqdim”, “Izlaganlarim”, “Qaytmoq uchun ketmoqdaman”, “Vatan ruhi”, “Ota uyim” kitoblari, qator dostonlari va sahna asarlari bilan tanishgan o‘quvchi, mavzu shoir uslubi xos, turli poetik obrazlarda yorqin aks etganini ko‘radi. “Sen qolarsan ko‘nglimda”, “She’rlarimdasan”, “Mayli, men roziman”, “Rost deding, sog‘inib kelganim”, “Ko‘zlaring quvonchi”, “Hammasi sen uchun”, “Yuragim uzilar”, “Quvontirib

ketding”, “Men har safar”, “Aylansin” va yana boshqa she’rlarida bu boqiy tuyg‘uning yangi talqini bor. Ularda lirik qahramonning muhabbatdan zavqlanishi, qalbi orom olishi emas, aksincha, dil iztiroblari, yurak tug‘yonlari tasviri ustuvordek tuyuladi.

Yuragim uzilar, yig‘lar muhabbat,
Yuragim titraydi, eziladi ishq.
Yurakni bo‘shatib, yuksaladi baxt,
Yurak to‘kiladi, yaralar qo‘shiq.

Band yurak haqida yozilgandek. Aslida shoira yurakning “tuzog‘iga ilinib”, “yig‘layotgan muhabbat” haqida so‘zlamog‘da. Satrlar kuchli ehtiros, hayajonga to‘la. Savol tug‘iladi. Lirik qahramonni bunchalar qiynagan sabab nimada? Nega uning hislari bezovta, hayollari notinch? Gap shundaki, hayot juda murakkab, inson qalbi undan ham chigalli, qarama-qarshi hislarga limmo-lim. Qolaversa, muhabbatdek sehrli tuyg‘u insonlarda kamdan-kam holatlarda silliq kechadi. Ko‘pincha, u sevgan yoki sevilgan qalbning ruhiy dardi, hijroni shaklida o‘zini ko‘rsatadi. Yuqoridagi bandda mana shu qalb isyoni real chizib berilgan, nazarimizda. Shoiraning masnaviy shaklida yozilgan yana bir she’rida mana bunday misralar bor.

Meni izlab, istab yurmang,
Visol hijronga aylansin.
Yuzim nechun so‘lg‘in so‘rmang,
Umid armonga aylansin.

She’rdagi “hijron”, “armon”, “isyon”, “tug‘yon” so‘zlari misralarga emotsional tuyg‘u bag‘ishlash bilan birga, lirik qahramon kayfiyatini, ichki dunyosidagi g‘alayonni o‘quvchiga oddiy ifoda usulida, ma’nodor va ta’sirli yetkaza olgan. Muallif shunday so‘z marjonlarni terganki, ular she’rning ichki mazmunini nurlantiradi, poetik g‘oyaning salmog‘ini oshiradi. “Visolning

hijrona”, “Umidning armonga”, “Ozorning isyonga”, “Sog‘inchning tug‘yonga” aylanishi har bir inson hayotida, psixologiyasida bo‘lib turadigan, doimo o‘zaro “raqobatlashib”, biri odamlar ko‘ngliga zavq ulashsa, ikkinchisi, dilga ozor yetkazadigan, hech qachon so‘nmaydigan tuyg‘ular ekanligi she’rda juda hayotiy aytilgan.

G.Matyoqubova she’r yozayotganda real hayotga taqlid qilmaydi, estetik tahlil orqali turmush faktini badiiy faktga aylantiradi, obrazli fikrlaydi. Shuning uchun ham she’rlarida quruq qofiyalangan, oddiy vaznga solingan, maqsadsiz ishlatilgan ifoda vositalari, detallar juda kam uchraydi. She’riyat tabiatiga xos barcha badiiy unsurlarni o‘rni-o‘rnida foydalanadi.[15;36]

Xullas, har bir she’rida, qaysi mavzuda bo‘lishiga qarmasdan, lirik qahramonning kechinmalari orqali ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy hayot, odamlar yoki tabiatning umumlashma obrazi yaratilib, kundalik turmush misolida yangi g‘oyalar ko‘tariladi, xulosalar chiqariladi. Bu ham shoira lirikasining go‘zal sifatlaridan biri.

Guliston Matyoqubova she’riyatida bir xususiyat ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Uni boshqa shoirlardan ajratib turadigan o‘ziga xosligi ham balki shundadir. Bu inson qalbidagi ruhiy dramani kuchli hayajon bilan yoritishi, hayot materialiga murojaat etganda ham shu tamoyilga mos ramzlarni tanlab, she’rda foydalanishi bilan bog‘liq masala. To‘g‘ri, bu holat boshqa shoirlarda ham shunday kechishi mumkin. Chunki, haqiqiy lirika ehtirosli tuyg‘ular to‘lqini bilan go‘zal va jozibali. Biroq G.Matyoqubova she’riyatida bu jarayon juda shiddatli va o‘ta ta’sirli. Shoiraning ko‘p she’rlarida quvonch bilan qayg‘u, vafo bilan jafo, baxt bilan baxtsizlik, vijdon bilan vijdotsizlik, visol bilan hijron, sadoqat bilan xiyonat, adolat bilan nohaqlik, ezgulik bilan yovuzlik va yana boshqa bir-biriga zid ma’naviy-axloqiy tushunchalar doimo yonma-yon yuradi. O‘zaro to‘qnashib, lirik qahramon qalbini qo‘zg‘aydi, bezovta qiladi. Buni, biz shoiraning suyunib, kuyinib, kuchli ehtiros bilan yozishi bilan izohlagan bo‘lardik.

Bu, bir jihatdan, uning murakkab hayot to'liqlariga, odamlar harakteridagi fazilatu illatlarga befarq emasligida, ijodkorlik pozitsiyasi mustahkamligida bo'lsa, ikkinchidan, hayot go'zalligini ulug'lab, nopok narsalarga qarshi kurashishni qalami burchi deb hisoblaganida bo'lsa kerak. G.Matyobovning ham shaxs, ham ijodkor sifatidagi hayotiy etiqodi, olam va odam haqidagi qarashlari tilga olingan ahloqiy normalarning badiiy talqinida oydinlashadi. U nimani ma'qullaydiyu, nimadan norozi. Shoir qalbiga ohangdosh narsaga qanchalik xayrixoh bo'lsa inson zotiga yot illatlarga nafrati shunchalik ayovsiz.

O'zing ayt, to'la-ku atrofimizda,
Bahoni amalga qarab berganlar.
Bari xalq uchun deb uqtirib bizga,
To'tiqushday sayrab yurganlar.

Yana bir to'rtlikda xudbin, mansabparast, qing'ir-qiyshiq yo'llar bilan lavozim kursisiga o'tirgan, mol-dunyo to'plab, to'qlikka sho'xlik qiladiganlar shoiraning yanada keskinroq tanqid nayzasiga ilinadi.

O'ylardi, pul bo'lsa oshig'i olchi,
Orqasi, mustahkam, ishi bekamu ko'st.
Kamchiligin aytsa yoqadan oldi,
Yuqorida ko'p-da, oshna-yu, yor-do'st.

Bandlarda fikr yolg'onchiligi, obrazlilikning etishmayotgani, vijdonini unutganlarga lirik qahramonning munosabati, shunchaki ma'lumot shaklida berilayotganidan qoniqmaslik mumkin. Lekin misralarda kundalik turmushda uchrab turadigan kamchiliklar oshkora tanqid qilinar ekan, fikrlarda ibratli javob borligini hisobga olsak, she'r ijobiy bahoga munosib. Shoiraning shunday she'rlari ham borki, ramziylik lirik qahramonning qalb dramasini nihoyatda ta'sirli ochib berishga qaratiladi.[15;41] "Yaxshilikning yo'llarida" she'rining har bandi, har misrasi yomonlikka otilgan o'q, yovuzlik ustidan o'qilgan hukmdan yangraydi.

Bo'shat mening oyoqlarim, ey soviq ilon,
Silliqlik po'sting avramasin qora ko'zimni.
Ochko'z nafsning tuzog'iga tushgan, ey inson,
Vujudimdan ololmaysan yorug' so'zimni...
She'rlarimning har qatori bir o'tkir tig'dir,
Tuhmat qilgan tillaringni bir-bir kesarlar...

She'rdagi "ko'ngil", "mehr", "umid", "armon", "imon", "qora tosh", "qonli ko'z yosh", "sovuq ilon", "o'tkir tig'" kabi muvaffaqiyatli tanlangan poetik obrazlar, ma'nodosh detallar lirik qahramondagi ruxiy dardni ocha olgan. Pokiza qalbli insonlarni ta'qib qilishga, ezgu ishlariga to'g'anoq bo'lib, oyoqlari ostida "sovuq ilondek" taxdid etishga urinadigan pastkash shaxslar, oz bo'lsa-da, hayotda bor. Shoirning ezgulik dushmanlariga qarshi kurashida she'rlari bir qurol vazifasini o'taydi.

Shoiraning ba'zi she'rlarida tushkunlik kayfiyati borligi seziladi. Aytaylik, lirik qahramon adolat izlaganu, adolatsizlikka uchragan, mehr kutgan odamlaridan jafo ko'rgan, sadoqat ko'rsatganlari tuhmat yog'dirgan, kimdan vafo kutsa, xiyonati bilan javob qaytargan v.h. va bu bezovta tuyg'ularini shoira qat'iy hayotiy pozisiyada she'rlariga soladi. Inson tabiatiga yot illatlardan o'rtangan lirik qahramon nidolari, alamlari o'quvchini ham befarq qoldirmaydi.

Makkorlik, xiyonatga to'lmish o'ngu so'llarim,
Mehru vafo izlasam jafo topar yo'llarim,
Makru xiyla sehridan oqarmaydi tunlarim,
Kulfatdan xabar kelsa, oldiga chiq, kunlarim.

Shoira lirikasida dard-hasrat, armon tuyg'ulari girdobida qolgan lirik qahramonning ruhiy dramasini yorituvchi bunday she'rlar oz emas. Nega bu mavzu shoira lirikasida yetakchi? Nega u inson zotiga yot illatlarga o'ta

murosasiz? Nima uchun shoirada ruhiy norozilik, afsus-nadomat kechinmalarini to‘kib solishga moyillik kuchli? Buning tub sababini, bizningcha, avvalo real hayotdan, qolaversa, shoira shaxsiyatidan izlash o‘rinliroq. Odamlar turli xarakter belgilariga ega. Birov yaxshi xislatli, yuragi ezguliklarga boy bo‘lsa, ikkinchi birida buning teskarisi, xulqiga yomonliklar in qurgan, ma’naviy tubanlikni kasbiga aylantirgan. Hayotda mana shu ikki to‘lqin o‘rtasida hamisha kurash bo‘lib kelgan. Va bu ma’naviy to‘qnashuv kelajakda ham davom etmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Ijodkor hayotdan nafas oladi. Turmushning barcha ko‘rinishlari, tarbiyaviy-ma’rifiy mohiyat kasb etadigan hayot materialimi yoki odamgarchilikka yot harakatlarmi, hammasi shoirning badiiy-estetik tafakkurida namoyon bo‘ladi, ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, shoir real hayot materialiga murojaat qilganda, bu qarama-qarshi axloqiy xislatlarga munosabat bildirishi tabiiy. Bu masalada ikkinchi bir omilni ham unutmaslik kerak. Har bir she’rga shoir shaxsiyati ham aralashadi. Lirik qahramon kechinmalari, eng avvalo, shoir shaxsiyatiga daxldor. Lirik qahramon kechinmalari, birinchi navbatda, shoir kechinmalari tarzida idrok etiladi. Ilmda isbotlangan haqiqat bu. Demak, G.Matyoqubova she’rlaridagi kechinmalar kurashi, qaysidir ma’noda shoir shaxsiyati bilan ham aloqador. Uning nimaga qarshiyu, nimaga xayrixoxligi, axloqiy pozitsiyasi, e’tiqodi she’rlarida aks etadi. Bu har bir shoir she’riyatiga xos tamoyil.

Mazkur masala bilan bog‘liq yana bir mulohaza. O‘tgan asrning 70-yillari ikkinchi yarmida G.Matyoqubova mashhur shoir Ibroyim Yusupovdan bir xat oladi. Xat uning “Qaytmoq uchun ketmoqdaman” kitobiga kiritilib, e’lon qilindi. Maktubda I.Yusupov shoira talantini ma’qullagan holda ba’zi she’rlaridan ko‘ngli to‘lmaganini, bu kamchilikdan qutulish uchun qanday yo‘l tutish zarurligini ham ko‘rsatadi. “Sizda shoirlik bor. Buning ustiga siz mehnatkashsiz. Dunyoga shoirona ko‘z bilan qaray olasiz... Lekin sizni yo‘ldan qoldirguvchi bir necha illatlar bor: birinchidan, tonggi shudringni, quyoshni kuylaysiz. She’rlaringizda qandaydir bir insoniy qayg‘u, hayajon sezilarli emas... Shoir bu butkul zamon,

odamlar, jamiyat turmushining, hatto butun dunyoning quvonchlari va qayg‘u dardlari bilan yashaydigan inson... Shodlik, quvonch bor joyda uni qayg‘u-hasratlar ham doimo kuzatib yuradi. Bu bilan men sizga faqat qayg‘u-dardlar haqida yozing demoqchi emasman, also. Istagim shuki, insoniy fazilatlar bilan yurak urib turar ekan, insoniy dardlarga to‘la satrlar ham lozim...”.

Tabiiyki, bu fikrlar G.Matyoqubovani e’tiborsiz qoldirmagan. O‘z ijodiga nisbatan talabchanlik va ma’suliyatni kuchaytirib, kengroq o‘ylashga, intim kechinmalardan ko‘ra, umumbashariy muammolar, umuminsoniy ruhiy qarama-qarshiliklar ustida bosh qotirishga va shular haqida ko‘proq yozishga undagan. Shular haqida o‘ylaganda, V.G.Belinskiyning mana bu fikrlari ham xayolimizga keldi: “Hech bir shoir o‘z shaxsiy iztiroblarini yoki o‘z shaxsiy quvonchlarini ifodalash bilan, ya’ni o‘z-o‘zicha va o‘z shaxsiyati orqali buyuk bo‘la olmaydi. Poeziyada muvaffaqiyat qozonish uchun endilikda faqat talantning o‘zi kifoya emas. Ijodkor zamin va davr ruhi bilan uyg‘unlikda yuksalgan bo‘lishi kerak. Shoir hozirgi vaqtda xayollar olamida yashay olmaydi, u o‘z zamonidagi voqelik saltanatining grajdani bo‘lishi lozim, unda butun tarix yashamog‘i kerak”.

She’riyat shoir qalbining oynasi degan gap bor. Qanday tuyg‘u bo‘lsa ham, ijobiy yo salbiymi, yaxshimi yoki yomon, qayg‘ulimi yo qo‘rqinchli, bari yurakdan o‘tadi, his qilinadi, idrok etiladi. “Tuyg‘ulari o‘ziga xos shoirning bitganlari ham hech kimnikiga o‘xshamaydi. [22;531] Yurak biror g‘oyani ifodalash uchun poetik obrazga ko‘chadi G.Matyoqubovanning ko‘p she’rlarida “yurak” ramziy obraz. U yurak bilan dardlashadi. Yurakni quvonchiga sherik, qayg‘u-o‘kinchlariga hamdard timsolga aylantiradi. Lirik qahramon kechinmalarini kuchli ehtiros bilan talqin etadi. Yurakning taqdiriga qayg‘uradi.

Yurakni to‘ldiradi hazin xazonlar,
Yurakni to‘ldiradi sog‘inch armonlar,
Yurakni to‘ldiradi oydin tuyg‘ular...

Muallifning boshqa bir she'rida bu fikr yanada shiddatliroq, yurak nidolari bundanda keskin, dramatik ohangda.

Yuragim uzilar yo'lingda umr,
Yuragim qon yig'lar, yurak qaqshaydi,
Yurakka cho'kadi bardosh va sabr,
Yurak qoyadagi toshga o'xshaydi.

Lirik qahramonning yurak to'lqinlari shu tarzda she'rga singadi. Insonlarni ruhan qiynab, g'am-alamlarga giriftor etadigan illatlarga qarshi shoira she'riyat tili bilan murosasiz kurashadi. Mantiqan o'ylab ko'rilsa, yurakning noroziligi, dardu hasrat chekishga sabab turmushdagi inson sha'niga noloyiq harakatlar, shoira qalbini o'rtagan ma'naviy tubanliklar. Shoira yurakning sabr bardoshiga tan berib, uni badiiy ramzga ko'chirar ekan, hayotning bu muammolarini tahlildan o'tkazib, hayot va qalb haqiqati to'g'risidagi qarashlarini umumlashtiradi.

G.Matyobubovning yurak ta'rifiga bag'ishlangan alohida-alohida she'rlaridan tashqari, boshqa mavzudagi she'rlarida ham "yurak" bilan "dardlashish" holatlari uchraydi. Masalan bir she'rida: "Yurak oydin quvonchlarin yo'qotgisi kelmaydi", "Aziz tuproq, aziz yerim, har qariching yurakda" degan satrlarni o'qiymiz. Boshqa bir to'rtlikda "yurak" obrazining yangi bir qirrasini ochiladi:

Moviy rangni olib ketar tuman bag'riga,
Quyosh tiniq nurlar sochsa, qizg'anar bulut.
Boshga toshday urinadi "kimningdir gapi"
Zor-zor yig'lar yolg'izlanib qolgan hayajon.

Garchi, band misralarida "yurak" tilga olinmagan bo'lsa-da, u bilan bog'liq fikr, ma'no boshqa ramzlarga yuklangan. Banddagi "quyosh", "bulut" timsollari, shunchaki, yorug'lik va qorong'ulik ramzigina emas, balki insonlararo

munosabatdagi iliqlik va sovuqlik o'rtasidagi qarama-qarshilikning ham badiiy ifodasi. Inson qalbini ezgulik nurlaridan mahrum etishga uringan yovuz kuchlarga nisbatan aytilgan hayqiriqdir. Shoiraning: "Mening yuragimga cho'ka-verar tosh", "Tuproq yuragimning haroratlari", "Yuragingni ehtiyot qil qora toshlardan", "Yuragim singadi osmonlaringga", "Kel, yurak, kech endi, bor joningdan kech", "Yurakdagi hasrat-qadah to'la moy", "To'xtab qolib sukut saqlaydi yurak", "Dardlarin to'kishga betlamas yurak", "Bu azob yukini ko'tarar yurak", "Yurak entikadi, ochilar yaram" v.h. satrlarida, boshqa she'rlarida ham bu timsol badiiy-estetik g'oyani ifodalashda muallif uchun yaxshi imkoniyat bo'lgan.

Albatta, shoira bu masalada faqat muvaffaqiyat qozondi. Yurakni poetik obraz sifatida doimo original talqin eta oldi, desak unchalik to'g'ri bo'lmas. Ayniqsa, muallifning yurak dardiyu hasratini ehtiros bilan yoritgan she'rlarida takrorlar, yurakni bir xil ma'noda, (ko'proq norozilik ohangida) talqin qilingan o'rinlarida bir xilliklar onda-sonda uchrab turadi. Istardikki, muallif bir xil poetik ramzdan foydalanganda, har bir she'rida obrazni har xil maqsadda, turli mazmunda qo'llasa, fikr ham, talqin ham original chiqardi.

Yuqorida tahlil qilgan misollarimiz, asosan, shoirning barmoq usulida yozilgan she'rlaridan olindi. Shoiraning erkin vaznda bitilgan she'rlarida ham "yurak" obrazi bor. Lirik qahramon ruhiyatidagi keskinlikni ochish quroli vositasida keladi. Muallifning "Yurak siniqlari" turkumida aynan yurak kechinmalari badiiy talqin etilgan. Turkumning markazida ham lirik "men", shoir shaxsiyati, ma'naviy qarashlari turadi.

Xulosa qilib aytganda G.Matyoqubova lirikasi mavzularning dolzarbligi, obrazli mushohadalarning kuchliligi hamda zamonga hamohangligi bilan alohida ajralib turadi. U ham boshqa shoirlar singari mustaqillik davri o'zbek she'riyatiga munosib hissa qo'shgan adiblar safida borayotgani ibratli hodisadir.

III BOB

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA SHAKLIY IZLANISHLAR

(Modern she’riyati misolida)

3.1. She’riyatda modern yangi yo‘nalish sifatida

Ma’lumki, ming yillik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she’r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas asosan, qanday tasvirlaganiga e’tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she’riy san’atlardan foydalanish mahorati badiiy san’atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Zero, “she’riy san’atlar badiiy asarda ifodalangan g‘oyalarning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishiga lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati musiqiyligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan”. [27;4] U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asar haqida bahs ketar ekan, ijodkor ifodalayotgan g‘oya o‘z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ahloqiy, ma’rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsollar jilosi bir vaqtda qo‘llangan she’riy san’atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.

Umuman, adabiyotimizning har bir bosqichida she’riyat yetakchilik qilib kelgan. Mumtoz she’riyatimizning eng yaxshi an’analarini davom ettirib, ulardan novatorana foydalanib, o‘z ijodiy individualligi bilan bugungi she’riyatimizda o‘ziga xos o‘rin egallagan iste’dodli shoirlarimizdan biri Rauf Parfidir. Shoir hozirgi o‘zbek she’riyatida hech kimga o‘xshamaslikka intilayotgan, o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan va kitobxonlar e’tiborini qozongan, o‘zbek she’riyatining yorqin namoyondasi hisoblanadi.

“Rauf Parfi 1943- yili Toshkent viloyati Yangi yo‘l tumani Sho‘ralisoy qishlog‘ida tug‘ildi. Uning ota-onasi, aslida Farg‘onalik bo‘lib, XX asrning 30-yillari o‘rtalarida sho‘ro zamonining zayli bilan shu yerga kelib qolganlar. Shoirning otasi Parfi Muhammad Hamroqul Tursunqulov, Abdurahmon Vodiliy singari Farg‘onalik do‘st-yoronlari bilan davrdosh bo‘lgani sababli Rauf Parfi bolalik kezlaridayoq birining boy kutubxonasidan, ikkinchisining esa she‘riy ijodidan bahramand bo‘lib o‘sdi”. [30;56]

Darhaqiqat, o‘tgan asrning 60-yillar o‘zbek she‘riyatida kechgan yangilanish jarayonini Rauf Parfi ijodisiz tasavvur etish qiyin. U bir tomondan o‘ziga qadar bo‘lgan o‘zbek she‘riyati an‘analarini, ayniqsa, Oybek, Mirtemir, Asqad Muxtor she‘riy izlanishlarini, ikkinchi tomondan, Nozim Hikmat, Gariya Korna singari xorijiy shoirlar ijodini mehr bilan o‘rganib, o‘z iste’dodi gullarini ular bo‘stonidan oqib kelgan sharbat bilan sug‘ardi. Ammo ayni paytda ularning hech biriga o‘xshamagan, o‘ziga xos shoir bo‘lib yetishdi. Rauf Parfi o‘z tabiatiga ko‘ra, nozik tuyg‘ular, dilbar xayollar kuychisi. Ammo, shu bilan birga, uning she‘riyatida zamon zayli bilan bog‘liq holda o‘qtan-o‘qtan bezovta yaproqlar ham shovullab-kuylab turadi.

Shoirning «Karvon yo‘li» nomli dastlabki she‘riy to‘plami 1968- yili chop etilgan. Shundan keyin o‘n yillik ijodiy izlanishlar mevasi bo‘lgan «Aks sado» (1970), «Tasvir» (1973) «Xotiro» (1975) to‘plamlari she‘riyat muxlislari qo‘liga tegib, ularni o‘ziga xos go‘zal she‘riy uslubga ega shoir bilan bir umrga oshno etdi. Shundan beri kechgan davr ichida Rauf Parfi kitobxonda o‘zi xususida paydo bo‘lgan tasavvurni aslo aldamadi. Ayniqsa, «Sabr daraxti» (1986) to‘plami she‘riyatimizda katta voqea bo‘ldi.

Umuman, Rauf Parfining o‘zbek she‘riyatida paydo bo‘lishi ajoyib hodisadir. Har qanday yangilikdek, uning o‘ziga xos she‘rlarining Hamza va G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon va Uyg‘un asarlarini o‘qib tarbiyalangan kitobxon, hatto tanqidchilar ommasi tomonidan idrok etilishi qiyin kechadi. Matbuotda ham, turli a dabiy davralarda ham Rauf Parfi she‘rlari bir-biriga

qarama-qarshi fikr va munohazalarni uygʻotdi. Agar jahon sheʼriyatining soʻnggi yutuqlaridan xabardor yoshlar uning sheʼrlarini katta quvonch bilan qabul qilgan boʻlsalar, estetik didi allaqachon shakllangan va yangi badiiy hodisalarga oʻzida mayl sezmagan kishilar, jumladan, tanqidchi va adabiyotshunoslar «raufona» sheʼrlarni rad etishgacha bordilar.

Shubhasiz, Rauf Parfi atrofida boʻlgan bunday munozaralar mohiyatini tushunish uchun XX asrning 60-yillar sheʼriyatiga nazar tashlash lozim boʻladi. Ammo kechagi sheʼrlarga nazar tashlashdan oldin yana bir hodisani aytib oʻtish zarur. Gap shundaki, Rauf Parfining dastlabki sheʼrlari maydonga kelishi bilan yangi badiiy izlanishlarga ehtiyoj sezgan talaygina yoshlar raufona sheʼrlar yozishga kirishdilar. Raufona ifodalar va tashbehlar bilan toʻlgan sheʼrlar oqimi paydo boʻldi. Garchand bu taqlid sheʼrlar adabiyotimiz tarixida qolmagan boʻlsa-da, ularning bir zumda maydonga kelishi Rauf Parfi sheʼrlarining katta badiiy ehtiyoj orqasida tugʻilganini tasdiqladi.

Rauf Parfining olti juzvdan iborat «Shoir» sheʼrida «shoir» soʻzi «sheʼr» tamsili 4 marta, «tush» ramzi 6 marta ishlatilgan. Genetik ildizlari sharq ijtimoiy-ruhiy atmosferasiga, aniqrogʻi, barmoq vaznining ijodiy imkoniyatlari hamda musiqiy tabiatiga hamohang shoir badiiy izlanishlarida obraz tabiatining idrokda turlanishi fikrni mantiqan taʼkidlash, maʼno boʻyoqdorligini kuchaytirish imkonini beradi.

Badiiy tushuncha soʻzning maksimal ifodadagi mikromodelidir. Binobarin, maʼno va struktura yaxlit majmuaviy yoʻnalishda poetik obrazni sifatlaydi. Badiiy munosabatlarda xoslanganlik darajasi yuqori bosimga egaligini inobatga olsak, ijodkor fitrati (subyekt) ichki qonuniyatlar hamda tashqi omillar vositasida shakllanishi ayon boʻladi. Oʻz navbatida, tasvir va tahlilning qorishiq tabiati tasavvur chiziqlarini ijodiy kengliklarga olib chiqadi hamda soʻzning nisbiy mustaqilligini chegaralab, yaxlit gʻoya – umuminsoniy kayfiyatni shakllantiradi. «Poetik soʻz formalari poeziya tili

uchun ma'lum nutqiy imkoniyatlarni yaratsa-da, bu formalarni nutq qo'llash jarayonida, ularning adabiy til sistemasiga mosligi, normativligi masalasini chetlab o'tib bo'lmaydi. Chunki she'riyatda qo'llanilgan har bir so'z u yoki bu darajada adabiy til normativligiga asoslanishi shart" – deb yozadi tilshunos B.Umurqulov.[35;19]

Muallif poetik nutq tabiati, unga ta'sir o'tkazadigan omillar xususida bir qadar nazariy qimmatga molik mulohazalarni bayon etadi. Mazkur ilmiy tahlillarda zukko olimning teran umumlashmalari ko'zga tashlanadi. Biroq, bu o'rinda hukm noto'g'ri. Chunki, she'riy ifoda ham poetik tizimning, ham adabiy tilning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Jumladan, XX asrning 60-yillarda E.Vohidov poetik leksikonida qo'llangan «ummon», «bashar», «sarafoz», «samovot», «qamar», «dilband», «lojuvard», «xirom» tushunchalari, A.Oripov badiiyatini belgilagan «surur», «falak», «maskan», «otash», «pokdomon», «sarbaland», «mohtob», «eldirim» konstruktsiyalari, R.Parfi uslubiga hamohang «hilqat», «rangin», «gulgun», «farah», «xotirot», «billur», «nasim» va «irganch» birliklari adabiy til takomiliga ham ijobiy ta'sir o'tkazganligi sir emas. Qolaversa, lisoniy munosabatlarning me'yoriyligi masalasi ham nisbiy tushunchadir. Demak, ijodiy birikmalar shaxsiy kayfiyat namunasi bo'lish bilan birga, umumtafakkur halqasi hamdir.

Obrazlilik Rauf Parfini adabiyotning birinchi unsuri – til xususida o'ylashga majbur qiladi.U so'zlarga jilo bera oladi, uning asarlarida bizga noma'lum konstruksiyalar yangicha ma'no kasb etgandek tuyuladi.Ba'zi fikrlarni betakror shakllar bilan ifodalay oladi.Bu holat ham qadim turkiy tilning, ham o'zbek adabiyotining ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishini e'tiborga olsak, masalaning mohiyati bir qadar oydinlashadi. Odatda, qaysi tilda so'z ma'nodoshligi ustuvor bo'lsa, o'sha tilning ijodiy miqyoslari ham oshib boradi. Ayni paytda masalaning yana bir nozik tomoni mavjudki, lug'at tarkibida bor, ammo foydalanilmagan ibora o'likdir, deya e'tirof etilgan

aforistik mushohada mavjud. Demak, ohori to'kilmagan tushunchani o'rinli va unumli qo'llash badiiy tizim uchun hayotiy ehtiyojdir. Shoir biz tasavvur qilganimizdek, sof sharqona kalomlarga vaqti-vaqti bilan murojaat qiladi. Xususan, bir she'rida u «surat» va «siyrat» tushunchalarini muvoziy tarzda qo'llaydi. Aynan ikki konstruktsiya o'zaro aloqadorligi (surat tashqi shamoyilni ifodalasa, siyrat ichki olam sarhadlarini izohlaydi).

Ikkinchi tomondan, ijodiy takomil lisoniy munosabatlarning ishlanganlik darajasi bilan chambarchas bog'liq. Tilning ifoda quvvatini oshirish Rauf Parfi she'riyatining tarkibiy qismi darjasiga ko'tarilgan. Biroq, shoir adabiy mahoratini faqat so'z tanlash va tashbeh tanlashdan iborat deb tushunmaslik lozim. Chunki unda hayotiy detallar, afsonaviy mushohadalar, ma'nodor voqealar uyg'unligi aks etadi. Bu uyg'unlik hayotiy ziddiyatlarning falsafiy teranligini umumlashtirish tarzida yaxlit badiiy axborotga aylanadi. Zotan, ijodkor fitrati va shoir uslubi mushtarakligi ijodiy etuklikning bosh sifat ko'rsatkichidir. To'g'rirog'i, bu usullar ijodiy manerani berishning imkoniyatlarini yanada boyitadi. Shu ma'noda, shoirning ba'zi she'rlaridagi obrazlilik nazm va nasr orasida kechadi. She'riy nutqning ijodiy zalvori shundan dalolat beradi.

Bugungi kunda o'zbek she'riyatidagi badiiy yangilanishlar shakliymundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo'lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq. Milliy badiiy tafakkurning yangilanishi tufayli o'zbek adabiyotida badiiy asar tili, adabiy matnning qurilishi, ritm, vazn, qofiya, she'riy san'atlarni qo'llash tamomila boshqa ma'no kasb etadi. Bu davrda ruh falsafasini anglatishga bo'lgan intilish, ziddiyat qarama-qarshiliklar mohiyatiga chuqurroq kirib borishga harakat, ranglar uyg'unligi va tasvirining quyuq bo'lishiga e'tibor kuchaydi. Shoirlar tamonidan olam hodisalariga, hayot manzaralariga turli jihatdan yondashish-«bir predmet bir tolay nigoh tashlash» o'zlashtirildi. O'zbek

she'riyatidagi ijodkorlarning o'z ichki dunyosi sirlarini inkishof etishga kuchli urinishlar ko'zga tashlanadi. Modernizm, formolizm, simvolizm singari yo'nalishlarga xos belgilar kirib keldi. Buning oqibatida she'rning shakli, shoirning uslubi o'zgaradi va she'riyat oldingi davrlarga nisbatan ranglashdi. Ruhiyat manzaralarini aks ettirish badiiy matn tiliga mavhumlik unsurlari, serqirra ishoralarini singdirdi.

She'riyatda ijodkorning kechinmalari va ruhiy holatiga e'tiborning kuchayishi shakliy izlanishlarning ko'payishiga olib keladi. O'tgan asrning 80-yillar she'riyatida bo'y ko'rsatgan bu holat 90-yillarga kelib, yosh ijodkorlarning deyarli barchasida kuzatila boshladi. Shakliy izlanishlar samarali bo'lgan va o'zbek kitobxoni ko'nikib ulgurmagan asarlar o'quvchilar tamonidan harxil kutib olindi. Masalan, G'ulom Mirzo she'rlarini alliterasiya hodisasi, so'zlarning omonimlik xususiyatdan foydalanish asosiga quradi. Tashkil belgilariga ularning punktuasion funksiyasidan tashqari, boshqa vazifalar ham yuklaydi. Rustam Musurmon she'riyat tilini sheva leksikasi va og'zaki unsurlari bilan boyitdi. Shoir tovushlarini orttirish, cho'zish, juftlash yoki yozuvlarni bo'g'inlarga ajratish orqali she'riy ohang hosil qilishga erishadi. Faxriyor ijodida amfiboliyalar (iboraning kamida ikki ma'noda kelishi), ruhiy kechinma tasvirini istiora, metonimiya singari she'riy san'atlar va ramzlarda berish, so'zlarning oxirgi bo'g'iniga turlash orqali shakliy o'zgachalikka erishish, bir so'zni ikki turkumga xos qilishga urinish singari xususiyatlar kuzatiladi. Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarida kayfiyatning shaklini chizishga bo'lgan ishtiyoq kuchlilik qilsa, Zebo Mirzaeva va Abduvohid Hayit ijodida tasavvufona kuzatishlar ustunlik qilishi seziladi.

Darhaqiqat, istiqlol yillari o'zbek she'riyatida falsafiy-intellektual ohang ancha kuchaydi. Inson ahvol-ruhiyasini, ehtiros, his-tuyg'ularning keng silsilasini turfa ziddiyatli bo'yoqlarda aks ettirish, odamzod shuurini band

etgan muammolarni butun murakkabligi bilan suvratlantirish, shaxsning yuksak milliy-umuminsoniy mohiyatini ekspressiv tarzda ochib berishga intilish yetakchi yo‘nalishga aylandi.

Ijtimoiy ongda yuzaga kelgan o‘zgarishlar ifodasi sifatida ko‘ngil dunyosining teran qatlamlariga kirib borish, o‘zgarayotgan ma’naviy olamni idrok etishning yangicha shakl-tamoyillarini kashf etish uslubiy-shakliy izlanishlar tabiati hamda ko‘lamini belgilab bera boshladi. Ijod, e’tiqod va so‘zga munosabat tubdan yangilandi.

Shu o‘rinda Rauf Parfi talqinidagi badiiy idrok va ijodkor shaxsiyati masalasi yuzaga chiqayotir. Bu borada ham R.Parfining nuqtai nazari g‘oyat e’tiborli. Xususan, shaxsiyat butunligisiz asl san’atning bo‘lishi mumkin emas; tuyg‘u-kechinmalari ko‘lmakka aylanib qolgan holatdan shoir shaxsiyatining san’atdagi inqirozi boshlanadi. Bu-ijodkor shaxsiyatining sinishi demakdir. Bu-asl san’atga yolg‘onning aralashishi, ijodkorning hukmron mafkuralar malayiga aylanishi oqibatidir. Buni, qulochga sig‘mas katta bidondagi as alga bir tomchi siyohning aralashishidek gap, deya tushintiradi. Ustozi A.Vodiliyning quyidagi mulohazalaridan iqtibos keltirib, o‘z fikrini tasdiqlashga erishadi: „Ma’lumingiz, soddalik, haqiqat va tabiiylik san’atning hamma turiga ham bir xilda zarur. Biroq teranroq boqish kerak, soddalik ostida jo‘nlik, haqiqat qiyofasida yolg‘on, tabiiylik libosida soxtalik bo‘lmasin yana”

R.Parfi shu holat bilan bog‘liq yana bir masalaga munosabat bildiradi. Ustozi A.Vodiliy she’riyatining hayotiy mag‘zi haqida to‘xtalar ekan, yozadi: “Moddiy va ma’naviy og‘irliklarga qaramasdan shoir qalamini qo‘lidan qo‘ymadi, yuragidagi dardu hasratini qog‘ozga tushirib qoldirdi. Bu asarlar bugun davr haqidagi kuchli hujjatga aylandi. “Beshikdan qabrgacha ilm izla” , deyiladi Muqaddas kitobda. Ammo, boshingda zulm qilichi yalang‘och ekan ilm izlamaysan, bir osuda nafas, bir burda non izlaysan. Ko‘zingga tashlangan ochlik pardasi iymon pardasini yuzdan ko‘taradi. O‘z nafsining ustidan g‘alaba qilgan inson chin shoirdir. Chin shoir faqat, o‘z o‘limini ardoqlashga, istasa masxara

qilishga qodir”. Ko‘rinadiki, shoir talqiniga ko‘ra iymon-e’tiqod ilohiy nurning ko‘ngilga joylashgan shu’lasi. Shu bois uni Haqni bilish va tanishdan holi anglash mumkin emas. Bu borada ustoz A.Vodiliyning mulohazalariga tayanadi; o‘z fikrini quvvatlantiradi: „Alloh taolo sizga bunday muazzam aqlu zakovatni kibrilanish, zulm qilish, zo‘rluk bilan mol-mulk orttirish uchun bergani yo‘q. Allohning birligini tanish, insonlarga mehr-oqibatli bo‘lish, insonga fidoyi bo‘lish uchun bergan. Unutmangki, bosgan har bir qadamingiz, olgan har bir nafasingiz Allohning nazaridadir”. R.Parfining alohida ta’kidlashiga ko‘ra, xudosizlik iymonsizlik demakdir. So‘z ruhni qayerdan oladi? Shoir so‘zi ko‘ngildan suv ichar ekan, yurakning tub-tubiga ekilgan iymon nuridan ruhlanadi, quvvatlanadi, qanoatlanadi. Shu ma’noda, so‘z bilan ruhni bir-biridan ayro holda anglash mumkin emas. So‘zda ilohiylik bor. Alloh taolo bandasining tiliga o‘z so‘zini berish barobarida ilohiylikni, ruhni ko‘ngliga ekadi. Shu boisdan ham so‘zlar quruq, yalang‘och g‘oyalarni ifodalashga bo‘ysundirilgan, agitkalarga, targ‘ibot-tashviqot quroliga aylantirilgan paytlarda ruhiyatdan mahrum bo‘ladi. Ilohiylikdan mosuvo so‘z yolg‘onga yuz tutadi. Yolg‘on-ning esa hamisha yuzi shuvut. Ruhsiz, ta’sirsiz, qadrsiz so‘z qanoti sinib, oyoqlar ostiga yiqilib tushadi. Tuproqqa qorishadi, toptaladi. Zero, so‘z–Xudodandir, degan kalima bor muqaddas kitoblarda. So‘z-ijodkor ruhiyatining ko‘zgusidir. Ijodkorning shaxslik darajasini belgilovchi, ko‘rsatuvchi ustuvor mezondir.

Rauf Parfi qarashlariga ko‘ra, badiiy-estetik tafakkurda ham inson ruhiyatini teran tadqiq etish barobarida shaxs va jamiyat manfaati uchun ibratli, saboq bo‘larli fikr aytish joiz. Mazkur ijtimoiy-falsafiy ma’no insonni aqlan va ruhan kamol toptirishga, jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan mohiyati bilan qimmatlidir. Inson ruhiyatining muttasil tahlili o‘zlikni kashf etish bilan birga muayyan sintezga ham ega bo‘lishi, samarasiz so‘z o‘yiniga o‘xshash aql o‘yini bo‘lib qolmasligi lozim.

Rauf Parfining poetik madaniyatimiz taraqqiyotidagi o‘rni, xizmati, avvalo, badiiy tafakkurdagi stereotip-qotib qolgan tasavvur va tushunchalarni sindirganligi

bilan belgilanadi. Xo‘p, stereotip tushuncha va tasavvur degani nima o‘zi? “Bo‘ladigan bolaning peshanasi do‘ng bo‘ladi” , degan hikmatni suyib tilga olamiz. Ayniqsa, o‘g‘il ko‘rsak manglayiga tikilamiz. Peshanasi keng va do‘ng bo‘lsa, ich-ichdan g‘urur tuyamiz. Farzandimiz fe‘li keng, bag‘ri butun, olijanob, aql-zakovatli, dono-bilimdon bo‘ladi; yozug‘ining belgisi qutlug‘, deya totli umidlardan ko‘nglimiz qanotlanadi.

Bu-asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tabarruk tushunchalardan biri. Xuddi shu taxlit ong-shuurimizda shakllangan tushuncha va tasavvurlar hayotimizga alohida mazmun, shukuh bag‘ishlaydi. Badiiy adabiyot, shu jumladan she‘riyatning ham yozilmagan qonuniyatlari-dan biri, bu-stereotiplarni also hazm qilolmasligidir. San‘at asarlari ongda shakllangan turg‘un tasavvurlarni sindirish asosida yuzaga keladi. Badiiy tafakkur ko‘z ochib dunyo tanibdiki, ming yillar mobaynida ana shu tabiatini asriy an‘analardan biri sifatida saqlab kelayotir.

Poetik tafakkur salohiyatini simob donachalariga qiyoslash mumkin. Simobni garchand, ko‘z bilan ko‘rsakda, qo‘l bilan ushlab, ko‘rib bo‘lmaydi. Ularni yolg‘iz his etamiz, ichki hissiy idrok ila tuyamiz. Tahayurlar asosiga qurilgan majoziy obrazlilik, bu-voqelikni, insonni, ruhiy hayotni realistik idrok etish shakllaridan biri. Badiiy tafakkurning mazkur yo‘nalishi XX asr o‘zbek she‘riyatida Rauf Parfi ijodiy izlanishlari bilan bog‘liqlikda go‘zallik hodisasiga aylandi. Salkam yarim asr badalida badiiyat maktabi sifatida shakllandi. Bu-millat badiiy didi va estetik saviyasining yangi bosqichi demakdir.

Xo‘p, buning mohiyati nimadan iborat? Xususan, birgina R.Parfi she‘riyati misolida kuzatadigan bo‘lsak, Vatan mustaqilligi, millat ozodligi, shaxs erki masalalarining badiiy talqin-larida, ezgulik, adolat, go‘zallik haqidagi tasavvur va tushunchalar kanorasini umumbashariy qadriyatlar ma’nosi ila behad kengaytirib yubordi. Jumladan, R.Parfi estetik qarashlariga ko‘ra san‘atkor asarlarining badiiy-estetik nafasati, ijtimoiy-falsafiy ahamiyati muallif qaysi millatga, yoxud Mag‘ribu Mashriq, kunchiqaru kunbotar madaniyatlariga mansubligi bilan belgilanmaydi. Badiiy asarning qadr-qimmati milliy-bashariy qadriyatlarni nechog‘lik himoya

qilganligida, ulug'lay olganligida, umuminsoniy mazmun mohiyatida, odam ko'nglini qanchalik kashf eta bilganligida, deb tushunadi. Bu tabiiyki, yangicha dunyoqarash va dunyoviy did mahsulidir.

Shu ma'noda, Rauf Parfi va uning avlodi sho'ro davri farzandlari emas, madaniyat farzandlari bo'lib qoldi. Mag'ribu Mashriq, kunbotaru kunchiqar qozonidagi taomlardan bahramand bo'lishga va shu asosda, yangi o'zbek she'rini-o'z dasturxonini yozishga muvaffaq bo'ldi. Shoirning badiiy-estetik tajribasi sho'ro mafkurasining ta'qib va tazyiqlari ostida ongimiz-ga, dunyoqarashimizga katta to'lqin olib kirdi. Xususan, shaxslarni tarbiyalashga, shaxsiyatlarni shakllantirishga, shaxslar mamlakatini vujudga keltirishga qaratildi. Ushbu jarayonda Rauf Parfining ijtimoiy-siyosiy qarashlari badiiy-estetik tuyg'usi bilan omixta kamol topdi. Shu boisdan ham ularni bir-biridan ayirish yoki bo'lak-bo'lak o'rganish mumkin emas. Ular bir mag'izning ikki pallas, bir olmaning ikki bo'lagi misoli. Shoir estetik qarashlarining ildizi xalqimizning ming yillar mobaynida qaror topgan ijtimoiy, badiiy, falsafiy tafakkuri sarchashmalariga borib tutashadi. Undan hayot suvini ichadi. Shoirning adabiy asarni baholashdagi nuqtai nazarini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, u she'rdagi so'zning badiiy-estetik vazifasini belgilash tarzida anglashiladi. Ma'lumki, jahon estetikasi tarixida Sharq she'riyati ramzlar asosiga qurilgan majoziy badiiy tafakkur madaniyati, deb tasniflanadi. Hegel „Estetika“ asarining „Eposning mohiyatan farqli belgilari“ bobida Sharq eposi simvolik tipdagi, ramzlar asosida yuzaga kelgan, deya ta'rif beradi.

To'g'ri, majoziylikni yolg'iz bir xalq she'riyatiga xos, deya cheklash mumkin emas. U turli shakllarda barcha xalqlar she'riyatida mavjud. Shu boisdan Rauf Parfi: „Biz biladigan barcha tog'larning cho'qqilari bor. Bunda metafora eng baland-bosh figura“, deyish bejiz emas. U she'riyatimizning o'ziga xosligini, o'zgarish jarayonida kechgan xususiyatlarini belgilashda unga yopishtirilgan turli xil zo'rma-zo'raki yorliqlarni, sun'iy alomatlarni keskin rad etadi. Tanqidchilik o'zbek she'riyatining XX asr 60-yillarida oddiylik, soddalik, samimiyluk singari alomatlarni badiiyatning muhim xususiyatlari sifatida qayd etgan edi. Lekin bu

ta'rif-tasnif she'riyatimizning mazkur davri rivoji uchun xos yetakchi belgilarini to'la-to'kis ochib berolmaydi. R.Parfi xalqimizning badiiy-estetik tafakkuri an'analariga suyanadi.

Adabiyotshunos H.Umurov R.Parfi she'riyatidagi yangiliklardan biri haqida shunday yozadi. «Uchlik, she'riyatimizga XX asrda kirib kelganiga qaramay, bugun u katta e'tibor qozonmoqda. U mustaqil janrga aylanmoqda uchlikka asoslangan noyob asarlar dunyoga kelmoqda.

Men ko'zlaringga qarayman,

Sen o'zgalarga

Kimning ko'zlaridan izlaysan meni?

Yer o'z o'qidan ayrilar, inson

Inson, osmonidan ayrilar quyosh,

Agar biz ayrilsak.

Rauf Parfi qalamiga mansub bu asarlarni tahlil qilishdan ko'ra, uni o'qib, bir olamni o'zida jo qilgan «Jajji», ammo barcha olamga tatiydigan asar degan ishonchli xulosa chiqargan ma'quldir. Ha aynan shu musallasdagina bu o'tli muhabbatning izlash, ayrilish tuyg'ulari bus-butun, tugal, fikriy mushohadaga undaydigan, zavqqa ko'madigan tarzda gavdalanishi mumkin edi va uni shoir mahorat bilan voqe qilgandir".[40;58]

She'riyat fikran botiniyligi tufayli o'zida jamiyatga qarshi tanqid urug'ini asray oladi, - deya tushintiradi u So'zning badiiy-estetik ma'no qirralariga diqqatni qaratar ekan.-U hamma zamon-larda o'z bilganidan qolmay, haq so'zni aytishning turli yo'llarini topgan, biz uning ovozini doim eshitib turdik, - deydi u. Anglashilyaptiki, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish o'zbek she'riyati taraqqiyotining barcha davralari uchun ham bosh xususiyat bo'lib kelgan. Lekin unga erishish yo'llari ko'p, usullari nihoyatda xilma-xil. Xususan, majoziy

obrazlilik haq soʻzni aytish-ning, voqelikni realistik idrok etishning shakllaridan biridir. R.Parfi taʼbiri bilan aytganda, shoirni kuylatgan Hazrati inson. Uning haqqi-huquqlari-sheʼriyatning ham haqqi-huquqlaridir. Jaholat-ning ranglarini, zulmning maʼnosini, adolatsizlikning sirti shakar, botini zaxar tabiatini obrazlar tiliga koʻchirgan timsolli realism Rauf Parfi ijodiy individualligini tayin etadi.

Ushbu xususiyat Rauf Parfi yetakchiligidagi bir necha avlodga mansub shoirlar ijodiy izlanishlaridagi yetakchi uslubiy yoʻnalishdir. Ramzlar, timsollar vositasida fikrlash madaniyati oʻtgan asrning 70-yillaridan eʼtiboran sheʼriyatimizda ustuvor tendentsiyaga aylandi. Oʻtgan asrning 80-yillari oʻzbek tanqidchiligida badiiy tafakkurning ushbu koʻrinishi mohiyatini tushunmaslikdanmi yoki tushunishni istamaganlikdanmi, "Sheʼringizni tushuntirib bersangiz", "Shoir nima demoqchi, sheʼr nima deyapti" qabilidagi maqolalar yuzaga keldi. Ularda Rauf Parfi, Miraziz Aʼzam sheʼrlaridagi badiiy shartlilikni, majoziy obrazlarni, ramzlarni Gʻarbga taqlidchilikda, oʻta murakkablik va mavhumlikda ayblash rasm boʻldi. Timsolli obrazlar sarbastdagi izlanishlarida yorqinroq tajassum topgani boisidanmi, ularni Gʻarb sheʼriyatiga taqlidda ayblashdi. Vaholanki, maʼlum boʻlishicha, sheʼrning bu shakli avvalgi ming yillikda moʻysafid Sharqning qadimiy bitiklaridayoq mavjud ekan. Ushbu hodisa, ayrim tanqidchilar aytgandek Gʻarb va Lotin Amerikasi adabiyotiga taqlidan emas, aksincha, estetik taʼsir samarasi oʻlaroq yuzaga keldi. Shu boisdan ham shoir bu yozuvlarda oʻzimiz anglamagan oʻzimiznikini topdik, deydi.

Bu sanʼat-sanʼatkor-jamiyat masalasida yangi nuqtai nazari, yangi tushuncha va yangi nigohi ila badiiy tafakkur madaniyatida shoir oʻzgacha yoʻnalish yaratdi, demakdir. Bu-sanʼat asarlarini tushunish, tushuntirish va baholashda ham estetik mezonlarni oʻzgartirdi, yangiladi, demakdir. Shoir estetikasida dil erkinligi masalasi alohida oʻrin tutadi. Ruh fenomeni, koʻngil hurriyati, erk fenomeni Rauf Parfi estetikasida ijtimoiy-falsafiy kategoriya darajasida badiiy tadqiq etiladi.

Xususan, ongimiz-shuurimizdagi ko‘rinmas, sezilmas temirdek qattiq bir kuch bizni metin iplari bilan bog‘lab turadi. Yurish-turishimizdan tortib, gap-so‘zlarimizgacha, xatti-harakatimiz o‘y-fikrlarimizgacha, bir so‘z bilan aytganda, izimiz so‘zimizni, ko‘rar ko‘zimizu o‘zimizni boshqaradi. Bu-dil basirligining belgilari. Ichimizdagi siyosiy nozirning farmonbar-dor hukmron mavqei bizni ruhiy mutelik holatiga solib qo‘yadi. Ana shu narsa aksar ijodkorlarni hukmron mafkuralar tog‘arasiga o‘tkazib, nog‘arasiga o‘ynatib qo‘yadi. Qachonki, ijodkor ruhan erkin bo‘lmas ekan, hech qachon mutelikdan, ta‘magirlikdan, nafs manfaatdorligidan halos bo‘lolmaydi. Mafkuraviy qoliplar qobig‘idan bosh olib yorib chiqib ketolmaydi. Zamonasozlikka beriladi, zamonasozlik botqog‘iga botib boraveradi.

Ruhiy erkinlikning mazmuni nedir? Dil erkinligining ta‘mi qanaqa bo‘ladi? Qanday odam erkin bo‘ladi. Dilidan bo‘lak, o‘zidan boshqa hech qanaqa davlati yo‘q, ship-shiydam Bandai mo‘minmi? Yoxud, sochidan tirnog‘igacha hukmron mafkura bo‘tanasi botirib olingan kimsami? Qanday jamiyat ozod bo‘lgandagina uning fuqarolari ham emin-erkin yashashi, dorilo-mon kun kechirishi mumkin?

Shaxs erkin bo‘lmas ekan, u mansub millat ham, Vatan ham ozod bo‘lolmaydi. Bu-shoir talqinidagi erkning baland holati. Ana shu maqomga yetishish esa, avvalo, odam o‘zini o‘zi tanishdan boshlanadi. Bani Odam moddiy borliqni ham, ruhiy dunyoni ham idrok etishda xolis. Uning ko‘nglida hamisha to‘rt fasl shavqi barq uradi. Yeru osmonlar oralig‘ida, barru bahrlar sarhad-larida tizginsiz badiiy didi o‘ziga xon ekanligini tasdiqlab turadi. Uning ilohiy ko‘tarinkiligi, hech qanday o‘lchovlarga sig‘masligi-badiiy didining betakror asl tabiati. Barcha buyuk san’atkorlar insoniyat tarixi badalida yaratgan eng go‘zal va mumtoz badiiyat namunalari milliy mansubiyatlaridan, makon va zamondan qat’i nazar, badiiy didning bezavol me’zonlaridir; yuksak o‘lchovlari, ideal tosh-tarozusidir. Agar, ko‘kdagi bir tilim hilol, tuproqqa sanchilgan gullar mukammal go‘zallik namunalari bo‘lsa, Muhammad s.a.v. komillik maqomiga yetishishning

eng mumtoz timsolidir. Chinni koʻzli buloq suvlari bokiralik va musaffolikning koʻzgusi ekan, Yusuf Xos Xojib va Yassaviy, Bedil va Navoiy, Dante va Shekspir, Pushkin va Choʻlpon sheʼriyatlari badiiy goʻzallikning ideal namunasi emasmi?

Rauf Parfi estetik qarashlarining ildizlarini-bahramandlik omillarini yolgʻiz togʻ-tosh, buloqlardan izlash mumkin emas. U Magʻribu Mashriq, kunchiqaru kunbotar badiiyatining mumtoz namunalaridan hayot suvini ichadi. Shu boisdan ham shoirni jahon estetikasidagi timsollar realizmiga moyil sanʼatkorlar koʻproq qiziqtiradi. Xususan, realizm estetikasiga koʻra shoirni zulm-istibdodga qarshi shaxs erki masalasi, tabiatning toʻrt fasliga monand kechinmalar tugʻyoni, hayoti band etadi. Shu bois shoir adabiy asarlarning estetik qimmati va ahamiyatini belgilashda ularning badiiyatini bosh mezon, deb biladi. Boshiga qilich kelganda ham faqat rost soʻzlash, Haq va Haqiqatni yoqlash, har qanday yolgʻon, riyo, makr, zulm va xiyonat koʻrinish-larini inkor etish, ularga qarshi isyon koʻtarish Rauf Parfi estetikasining magʻzini tashkil etadi.

Shoirning koʻnglini, ijodini bilmoqchi boʻlsang, uning ona yurtini borib koʻr, degan hikmat bor. Shoirning Vatani-bu uning sehrli, purhikmat maʼnolarni oʻziga singdirgan poetik obrazlari. R.Parfi lirikasidagi Soʻz, Koʻz, Qushcha, Buloq, Daraxt, Chiroq, Hayol, Nur singari obrazlar tagdor, purmaʼno mazmun ifodalashiga koʻra timsolga aylanayotir. Ular Turon-zamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantiradi. Turkiy xalqlar taqdiridagi zilzilali voqealar mohiyatini aks ettiradi. Millat taqdirida oʻchmas iz qoldirgan va ayni keying yuz yilliklarda mudragan joʻmardlik, jangarilik ruhini qayta tiriltirish, oyoqqa qoʻyish, faollikka daʼvat Rauf Parfining Turon-Turkiston mavzuidagi sheʼrlarining yetakchi xususiyatlaridandir”. [3;212]

Ana shu yoʻnalishda Rauf Parfi Choʻlpon estetikasidagi erk gʻoyalarini nechogʻlik rivojlantirganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, Choʻlpon estetikasida milliylik, asir Turkiston, erk istagi va erk ruhi yetakchilik qiladi. Rauf Parfi sheʼriyati ana shu ruhni oʻz tabiati-ga singdirgan holda yangi-yangi qirralarini

nurlantiradi. Chunonchi, milliy birliksiz shaxs ham, millat ham o'z borligini saqlab qola bilmaydi. Vatan mustaqilligi, millat hurriyati, inson erki bevosita shaxs ruhining erkinligi, millat ruhining uyg'oqligi bilan hosil bo'ladi, degan badiiy-falsafiy kontseptsiya ustuvor.

Shoir ilgari surgan mazkur g'oyalar XX asr sho'ro zulmidan, kommunistik istibdod zug'imidan bolalagan mutelik ko'rinishlari orqali yoritiladi. „Turkiston yodi“, Turkiston-eng shirin bo'sa“, „Ona tilim“, „O'zingni ayama borayotgan ildiz“, „Qadimiy turkiylardan“, „Uxlama sen, haqiqat“, „Uyg'onar Turkiston, uyg'onar dunyo“ va h.k. o'nlab she'rlari ana shu qutlug' g'oyalarning badiiy-falsafiy talqinlari o'laroq yuzaga keladi .

Yana yiroqlarga chorlaydi moziy,
Vatan tushunchasi kelar yetaklab
Ayrilgan, xo'rlangan ulus ovozin,
Shoirning beshigi aytar ertaklar.
Yassaviy maqbari mung'aymish mag'rur,
Tovushga aylandi har bir g'isht rangi.
„Dunyo mening deganlar...“ Nido kelur,
„Karkas qushdek...“ qadim so'zlar jarangi.

Vatanimizning eng buyuk olimlari, shoirlari Turkiston xalqlarining birligi uchun kurashdilar. Turkistonni bir butun holda ko'rishni orzu qildilar,-deb yozadi Rauf Parfi. Bu mavzu she'riyatda Vatan, Ona tuproq kabi muqaddas so'zga aylandi.

Har qanday chiroyli obraz ham aytiladigan teran fikrning o'rnini bosa olmaydi. Haqiqiy shoir avvalo fikr izlaydi, biroq u fikrlarni obrazlarda topadi. Rauf Parfi mushohadalari falsafiy umumlashma shaklida muayyan bir ko'lamga ega bo'lib, hayotiy ziddiyatlarning ijtimoiy teranliklarini uyushtiradi. Mazkur uyushiq bo'laklar yaxlit holda kitobxonni yangi ma'naviy sarhadlarga etaklaydi:

Yoshlik. Zangor fasl. Kechdi. Sarg'ardi.

To'kildi u. Shafqat bilmas bargrezon.

Qora sovuqlarga otib yubordi.

Shamollar poyida sinmoqda xazon.

Shoir jamiyatning barometri degan gap bor. Sirtidan qaraganda, bu shoirlar sha'niga to'qilgan maqtovdek. Aslida maqtov emas, balki shoirlikning achchiq taqdiri, peshonaga bitilgan yozuq, yaxshiligu yomonlikni qalbdan kechirib, yana uni so'zga evirish majburiyatiga ishoradir. Barometr issiqni ham, sovuqni ham, engil shabada-yu, beayov bo'ronni ham o'zining sezgir millari bilan ko'rsatadi, yasalishiga binoan unga shunday vazifa yuklatilgan.

Barometr-ku jonsiz narsa, u ob-havoning har qanday holatini pinak buzmay ko'rsataveradi. Shoir – jonli odam, bo'lganda ham – dardchil odam. Hayotdagi turli-tuman hodisa uning qalbidan, shuuridan o'tar va she'riy obraz tarzida qog'ozga tushar ekan, qancha iztiroblar unga azob beradi... Biz faqat iztirobning hosilasini ilg'aymiz, xolos. Ular bizning nuqtai nazarimizga yoqmasa, e'tiroz bildiramiz. Aslida, shoir nafaqat she'rlari, ularda ifodalangan fikru tuyg'ular bilan emas, balki taqdiri, hayotiy yo'li, yashash maslagi bilan ham jamiyat barometridir. Shoirlikning faxri ham, tavqi la'nati ham shunda. «Oh, shoir umriga havas qilmagil, U quyun ichida ungan bir daraxt!»

Bu gaplar dunyo qadar ko'hna va dunyo qadar sobit. Ular takrorday, hamma zamon shoirlarining azaliy dard-alamlarining quyqasiday tuyular. Ammo bu achchiq haqiqat hayotda tinimsiz takrorlansa, tinimsiz o'zini ko'rsatsa, uni ko'rgan, ilg'agan va poetik obrazga ko'chirgan shoirda ne ayb? Soddadil o'zi kam bo'lsa, bori ham shikasta va ko'zi nam bo'lsa, firibgar ko'p bo'lsa-yu, yana barchasi shod-xurram bo'lsa. Bu dardning alamiga

qanday chidash mumkin. Bu asriy jumboqni kim va qachon yechadi. Umuman uning yechimi bormi o‘zi?

Rauf Parfi badiiyatining xizmatlaridan biri, bu-Cho‘lponning erkchilik g‘oyalarini rivojlantirganlikda ko‘rinadi. Ya’ni, u Cho‘lpon yo‘lini davom ettirdi. XX asr o‘rtalari-XI asr boshlari o‘zbek badiiy madaniyatida Turkistonda turkchilik ruhini barqaror etdi. Adabiyotda, millat-sevarlik, vatanparvarlik, milliy ruhni yangi bosqichga ko‘tardi. Shu ma’noda, XX asr boshlari Cho‘lpon va asr o‘rtasi XXI asr tongi Rauf Parfi estetikasining ma’naviy madaniyati uchun ahamiyati uzviy. Shu ma’noda, Cho‘lpon yo‘lini tutgan Rauf Parfi o‘zbek ruhini, o‘zbek so‘zining qadri-qaddini ko‘targan, madaniy-ma’naviy qadriyatlarni yangilashga, takomillashtirishga intilgan ilg‘or munavvardir.

XX asr tongi va oxirlarida alohida-alohida zohir bo‘lsa-da, va lekin, ruhan bog‘liq har ikki go‘zallik hodisasi tabiatini anglashda shoirlarning poetik obrazlari bizga ko‘makka keladi. Cho‘lponning XX asr boshi she‘rlarida birgina sukunat obrazi turfa hayotiy detallar zimmasiga yuklatilgan rangin ma’nolarda ifodalanganini kuzatish mumkin. 1921-yili yozilgan „Amalning o‘limi“ she‘rida bir o‘rinda hayolda porlagan shamlarning sinishidan ingan og‘riqni tuyadi. Shu boisdan kecha sukunati „jon olg‘uvchi qorong‘ulik“ qiyofasida ko‘rinadi. Erk-ozodlik timsoli: ko‘kdagi yulduzlar uning izi bo‘lib anglashiladi. „Amalning o‘limi“ she‘ri Cho‘lponning erkka intilgan yuragining, ozodlik orzularida aldangan xalq irodasining yoniq alangasi. Ona o‘lkada kechayotgan, xalq qalbini kemirayotgan, yuragini yondirayotgan istak-bu erk-mustaqillik dardi ekanligini, she‘riyatning bosh vazifasi ana shu azob-alamlarni, qilichlar tig‘ida qotgan qizil qon yig‘isini, nayzalar uchiga sanchilgan ma’sum go‘daklar nolasini ifodalashi shartligini shoir yaxshi bilardi.

Endi, Rauf Parfi badiiy so‘zning ana shu salohiyatini timsolli tafakkur qudrati ila boyitdi. Dunyoviy dil, olamgir ishq, ilohiy yorug‘lik insoniyat tarixining barcha zamon va makonlarida kechgan san’atkorlarni, ularning badiiy barkamol asarlarini birlashtiradi. Zulm-zalolat, yolg‘on va xiyonatdan hazar qilishlikdek

mushtarak salohiyat ularga yuqtirilgan, peshanasiga bitilgan. Rauf Parfi estetikasidagi dunyoviy dil, olamgir ishq tushunchalari o'zining teran ma'nolari ila hurmat uyg'otadi. Xususan, shoirning san'atga qarashida nekbinlik hazin tushkinlikdan xoli, timsollarga asoslangan realistik ifoda madaniyatini rivojlantirish, o'zbek so'z madaniyatini yolg'ondan, yaltoqi maddohlikdan xalos etish singari ezgu yo'nalishlardir.

Bugungi kunda o'zbek she'riyatidagi badiiy yangilanishlar shakliy-mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo'lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq. Milliy badiiy tafakkurning yangilanishi tufayli o'zbek adabiyotida badiiy asar tili, adabiy matnning qurilishi, ritm, vazn, qofiya, she'riy san'atlarni qo'llash tamomila boshqa ma'no kasb etadi. Bu davrda ruh falsafasini anglatishga bo'lgan intilish, ziddiyat qarama-qarshiliklar mohiyatiga chuqurroq kirib borishga harakat ranglar uyg'unligi va tasvirining quyuq bo'lishiga e'tibor kuchaydi. Shoirilar tamonidan olam hodisalariga, hayot manzaralariga turli jihatdan yondashish - «bir predmet bir talay nigoh tashlash» o'zlashtirildi. O'zbek she'riyatidagi ijodkorlarning o'z ichki dunyosi sirlarini inkishof etishga kuchli urinishlar ko'zga tashlanadi. Modernizm, formolizm, simbolizm singari yo'nalishlarga xos belgilar kirib keldi. Buning oqibatida she'rning shakli, shoirning uslubi o'zgaradi va she'riyat oldingi davrlarga nisbatan ranglashdi. Ruhiyat manzaralarini aks ettirish badiiy matn tiliga mavhumlik unsurlari, serqirra ishoralarini singirdi.

3.2. O'zbek modern she'riyatida estetik va badiiy qarashlar

Rauf Parfi estetikasida Ruh erki masalasi ayrica ahamiyatga ega. U inson hayotining har ikki dunyosiga dahldor, tayanch asosi. Odam ma'naviy faoliyati ko'rinishlarida o'zligi, demakki, ruhi ham mujassamlashgan bo'ladi. Agar odamzod Ruh degan oliy masnadni bilmaganda edi, bashariyat tarixi ham bitilmagan bo'larmidi. Inson hayoti ma'naviy kuch-qudrat tajallisi emas, qup-quruq bo'shliqdan iboratligicha qolarmidi. Odamni inson degan oliy maqomga ko'targan ham, to'rt oyoqli jonzotdan farqlantirib turgan narsa ham, aslida, ana shu

Ruh. Ruhsiz odam qul bo‘ladi,-deydi Rauf Parfi. -Ichida Olloh qo‘rquvi bor odam erkindir. U hamma narsadan erkin. Xudosiz odam qafasdagi odamdir. Ular o‘zlarini o‘zlari qafasga solishgan. Toki Ollohn topmagunlaricha bu qafasdan chiqolmaydilar. Yerdagi tirikchilik qilib yurgan odam uchun o‘lim haqida ochiq gapirib bo‘lmaydi. Guvullab, garangsib yurgan olomon buni anglashi og‘ir. San’at hamisha odamni, odamlarni “ushlab” turgan.

Rauf Parfining ruhli so‘zi bamisoli nur. U yolg‘iz yorug‘likdan iborat. Ruhli so‘z riyoni ko‘tarolmaydi. Unga yolg‘on aralashsa, fig‘onidan tutun chiqib ketadi. Riyoni ko‘rgan zahoti nigohi zambarak o‘qiga aylanadi. So‘z ko‘rpa-ko‘rpachalar qavish uchun asqotadigan paxta emas. Yombi so‘zda muqaddas ruh bo‘lmasa, u titilib, chok-chokidan so‘kilib ketadi, avra-astari ag‘dariladi. Ruhli so‘z nurdek bo‘lgani uchun qozonlarda qaynamaydi, o‘choqlarda kulga aylanmaydi. Lo‘la bolishlar misoli ter bosgan biqinlarda dimiqib bo‘g‘ilmaydi. Ruhli so‘zlar qoshida shamollar chopqillab choy tashib yuradi. Chaqmoqlar ko‘kdan yerga tushadi. Qovoq uygan qop-qora bulutlarning ham chehrasi qo‘qqisidan yorishib ketadi.

Rauf Parfi estetikasida badiiy so‘z shafqatsiz haqiqatni yoqlashiga ko‘ra realizmning tahayyurlar asosiga qurilgan timsolli tafakkur yo‘nalishiga yangi to‘lqin olib kirdi, o‘tli ruh bag‘ishladi. Lirikamiz tabiatini shartli realistik ifoda madaniyati bilan chuqurlashtirdi. Bizni hamisha dil uyg‘oqligiga, hayot ma’nosini, yashash mohiyatini anglab yetishga da’vat etadi. Haqiqat ranglari-ni his etishga, adolatning achchiq ta’mini totib ko‘rishga majbur qiladi. Haqiqat, aslida, go‘zallik demakdir. Haqqa yetishish ruhiy erkinlikning asl saodati. Adolat tuyg‘usini ko‘ngillarda ko‘kar-tirish ham go‘zallik hodisasidir.

Rauf Parfi estetikasida ruhiy erkinlik haqiqatning o‘zidir, deya talqin etiladi. U olloh jamoliga yetishish yo‘llaridan biridir. Lirik qahramon tirikchilik vodiysidagi ko‘rimli va sezimli narsalarni o‘z hayot tarziga muvofiq kelmagani bois inkor etibgina qolmaydi. Aksincha, illatlar bo‘lgani uchun ularni yo‘qotishga oshiqadi. U ruhning buyuk yaratuvchi, bunyodkor kuchini alqaydi. Yo‘qlik

vodiysidan borliq saodati sari yo‘nalgan ruhning zohir tuyg‘ulari rangini ko‘rsatadi, ma’nolarini suratlantiradi”.[37;-]

Shu ma’noda tuyg‘u va fikr Rauf Parfi estetikasida ruhiy erkinlikka erishish uchun olis safarga chiqqan yo‘lovchi. U nihoyatda sezgir va dilgir. Xususan, ko‘zlarida titragan tong shu‘lalarini silkitib, shudringdek to‘kib yubormaydi. Oppoq tong tuproqqa qorishib ketmaydi. U lirik qahramonning qorachig‘ida kunlarini uzaytiradi. Tonglar lirik qahramon qorachig‘ida kunlarini uzaytiradi. Tonglar lirik qahramon qorachig‘ida yashab qoladi. Fikr-tuyg‘uning ham joni bor, ruhi bor. Shoir she’riyatida ular millat va Vatan timsolida qaddini rostlaydi. Fikr-bu ulkan Vatan. Qir-adirlaru tog‘lar, bog‘-rog‘laru vodiylar, ko‘llaru daryolar tafakkur tomirlari. Shu bois fikr ko‘ngil buloqlaridan suv ichadi. Rauf Parfi estetikasida o‘tmish o‘z-o‘zini anglash, yangi so‘z aytish, kelajakka odimlash uchun suyanadigan tayanch tog‘. Bir varaq qog‘oz bamisoli joynamoz bo‘lsa, shoirning Ollohga tazarrusi kechadigan maydon-bu she’r.

Kelajak deganda shoirning lirik qahramoni ruhning erkinlikka yetishgan emin-erkin nafasini, dovqur ovozini tushunadi. Millat ravnaqi, Vatan iqboli bilan bog‘liq ezgu intilishlar uning qanotlari. Har qanday mafkuraviy qoliplar, cheklash-chegaralashlar unga xalaqit berolmaydi. Inson o‘zligini, ko‘nglini qanchalik teran anglay borsa, erkning tabiatini tushunishga tayyorlanadi.

Ruhiy erkinlik-ko‘kdan quvilgan osmon farishtalari emas. Shoirning lirik qahramoni ana shunaqa erkin tafakkur, hur tuyg‘ular sohibi. Tirikchilik-nafs manfaatdorligi ko‘ngil erkini tushovlaydi. Shu bois lirik qahramon ushoqdek yesada, shukr qiladi. Shukronalik ila yana fikrlashga tutinadi. Dilni bilish-Haqqga yetishish yo‘llaridan biridir. Bor ham o‘tadi, yo‘q ham yetadi. Dunyo qurg‘ur omonat. Odam degani, bamisoli bir piyola suv, to‘kilding bas, tuproqqa shimilasan ketasan. Shu bois yorug‘ ochunda hech kim tong otishiyu kun botishini, subhidam shamoliyu momoguldirak qaldirog‘ini, ummonlar shiddatiyu purviqor tog‘lar salobatini, sukunatni meniki, deya uyiga olib kirib ketolmaydi. Ko‘rpa-to‘shak qilib, taxmonga taxlab qo‘yolmaydi. Ular erkin ruhoniyyat jilvalari. Yolg‘iz,

bastakor kuylarida, rassom bo‘yoqlarida, she‘rlarning badiiy sehri-salohiyati orqali ko‘ngillarda muhrlanib qoladi.

Rauf Parfi estetikasida so‘z o‘zini tanish, o‘zlikni bilish, ko‘ngilga qaytishgina emas. Yana, jamiyat sir-sinoatlarini, xalqning dard-alamlarini chuqur tuyish va tushintirish ham demakdir. Qaynoq voqelikka singib ketish, xalq ko‘nglida bo‘lish, millat idealini bilishdir. Shoir ta’kidlashiga ko‘ra, san’atning bosh vazifasi insonni himoya qilish, insonni ulug‘lash, insondagi odamiylikni, yuksak ma’naviy-axloqiy xislat-fazilatlarni ardoqlash, kamol toptirish va shu tariqa Olloh jamoliga yetishishdir. Alalaxusus, so‘z Vatan demakdir. Zero, “Vatansiz so‘z yo‘qdir. Inson Ollohgga ibodat vaqtida ham sirli bir umid bilan uning ovozini tinglashga chog‘lanarkan, avvalo o‘zining so‘zida o‘zini eshitadi. So‘z bizning vujudimizdadir. Bizdan yiroqlashib va yana bizga qaytib, tug‘ilganimizdan to o‘limimizga qadar minnatsiz xizmat qiladi. So‘z borliqning ruhini, koinotning cheksizligini bildirib turadi; bu hol hali hozircha bizning bilimlarimizdan tashqari, biz faqat buni so‘zning sehridan deb hayol qilamiz. Shu bilan bir vaqtda so‘z har qachon shaxsiyatimizning ayni tamg‘alangan foto nusxasidir”.

Alisher Navoiy vafotidan so‘ng dunyo 500 yoshga qaridi. Abdulhamid Cho‘lpon yuzga kirdi. Dunyo yuz yoshga yoshardi. Butun turk dunyosi o‘zining buyuk shoirini sharaflamoqda. Uning siymosida biz haqiqat shoiriga o‘lim yo‘q ekanini, “Xalq yo‘li, albatta bir o‘tilgusi”ni, she‘riyat huquqi g‘alabasining guvohi bo‘ldik. So‘z, ko‘cha-ko‘yning mijg‘ovlaridan, xonim-oyimchalarning injiqliklaridan, idorabozlarning mash‘um o‘yinlaridan, johilligidan qo‘rqoq, qo‘rqoqligidan johil kimsalarning mudhish qiliqlaridan, shubhasiz ustun turgan. She‘riyat borasida, she‘riyat huquqi va Abdulhamid Cho‘lponning olamshumul ulug‘ shoir ekani xususidadir”, -deb yozadi “She‘riyat huquqi” maqolasida. Ushbu mulohazalardan shoir nuqtai nazarining asosiy yo‘nalishlari shundoqqina bo‘rtib turibdi. Xususan, she‘riyatning bosh vazifasi millat koriga yarash, Vatan xizmatida bo‘lish, yumishlarini ado etishlikdir. Bu borada adolatni yoqlash, haq gapni aytish, haqiqatni mudofaa qilish uning asl qiyofasini belgilab beradi. Zero, zulmni

qoralash, shaxsning erkka, xalqning ozod yashashga bo'lgan haq-huquqlarini himoya qilish badiiy so'z madaniyatining bosh a'moli bo'lib kelgan.

Ne tongki, hayotda hamma narsa qo'shaloq voqe bo'larkan. Tonglar shomlar bilan o'rin almashingani, tunga joy bo'shatib bergani kabi yorug'likning og'ushida qorong'ilik gullar ekan. Ezgulikning yonida qabihlik, zalolat qilich qayrarkan. Yaxshilikning yonida yomonlik ko'zlarini lo'q qilib, chaqchayib turarkan. Bir qo'li bilan non bersa, ikkinchisi bilan tortib olarkan, yuzla-ringga shapaloq tortarkan. Shunday kuchlar, shunday kimsalar borki, bir qo'li bilan peshanangni silasa, ikkinchi qo'li bilan ko'zlaringni o'yib oladi. Shu bois hayotda nohaqliklar, nomukammal-liklar shunchalar bijg'iganki, turlariyu ko'rinishlarini aytib adog'iga yetib bo'lmaydi. Mijg'ov loflar, oyimchalarning injiqliklari, mash'um o'yinlar, johillik, qo'rqqoqlik va hokazo xunuklik xillari ham aslida odamlar fe'li-faoliyatidan qalqqan zulm ko'rinishlaridir. Zulmning bu xil urvoqlari ham shoirni iztirobga soladi, yuragini zirqiratadi.

Rauf Parfi talqiniga ko'ra Cho'lpon she'riyati shunchalar yuksak, shunchalar olijanobki, u bashariy maqomga ega. „Abdulhamid Cho'lpon she'riyati butun XX asr qadriyatlarini o'zida mujassam qildi. Uni olamshumul maqomga olib chiqqan omil-shoirning cheksiz ehtirosli gumanizmidir. Bu dunyodagi insonning hasratlari, quvonchlari shoir ijodining o'q tomiriga aylandi. Turk dunyosining birligi, ulug' Turkiston qayg'usi, insonga muhabbat, juvonmardlik, sahovat Abdulhamid Cho'lpon she'riyatining asos belgilaridir. Bu fazilatlarni ichkin, ilohiy samimiyatsiz ifoda qilib bo'lmaydi. Cho'lpon samimiyati-Dunyo insoniga bo'lgan mehri, sadoqatida namoyon bo'ldi". Rauf Parfini ruhiyat musavviri deymiz. Bu hol shoir dardu alamlarni, qayg'u hasratlarni, o'kinch-iztiroblarni haddan ziyod yaxshi ko'radi, degani emas. Aslo, shoirning adabiy-tanqidiy maqolalarida ham mung yuzaga keltirgan ijtimoiy-siyosiy omillarga nisbatan olamgir nafrat va uning alamli oqibatlarini boshidan kechirib kelayotgan bani bashar ahliga, millatdoshlariga dardkashlik ruhi ustuvor. Hasratkashlik, alamkashlik ruhi shoir she'riyati badiiyatining g'oyat muhim belgilaridan biri sifatida bo'y ko'rsatadi.

Shu ma'noda, shoir qayg'u-alamlarni nihoyatda sevadi, degan g'alati kayfiyat, biryoqlama cheklangan qarashlarning o'tlab yurishi o'rinsiz. U millat boshiga yog'ilgan mangu mungga nafrat uyg'otish barobarida tosh qotgan qalblarni poklanishga va demakki, jamiyatni zulm-zalolatdan, axloqsizlik ko'rinishlaridan poklashga da'vat etadi. Odamning odamga zulm qilishini u eng qabih axloqsizlik deydi, ma'naviy tubanlikning eng razil ko'rinishidir, deya baholaydi. Shoir she'rlaridagi o'tkir, shiddatli ohangning, keskir nafasning omillaridan biri ham ana shunda.

R.Parfi Cho'lpon she'riyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini yoritarkan, shoirning va demakki, she'riyatning bosh vazifasi haqning qaror topishida, haqiqatning vojib bo'lishida millatga, jamiyatga ko'mak berishdir, deya anglatadi. Boisi, shoirga Olloh taolo hammadan ko'ra o'tkir nigoh, o'zgacha salohiyat ato etgan. Shu ma'noda, shoir iste'dodi, avvalo, millatga, keyin bashariyatga mansub, deydi. Har qanday sun'iy g'ovlar, turfa to'siqlarga qaramay, she'riyat, avvalo, inson haq-huquqlarini yoqlaydi, qaror topishida kamarbasta bo'ladi. Shoir o'z zimmasiga yuklatilgan ana shu muqaddas burchni ado etarkan, davr, ijtimoiy voqelik ko'ndalang qo'ygan muammolarga hamisha yangi-yangi tasvir vositalari, ifoda madaniyati orqali javob izlab kelgan. Bu narsa realizmning ifoda imkoniyatlari naqadar kengligini tasdiqlash barobarida yangi tasvir usullari bilan boyitgan. Bu narsa realizmning hayotbaxsh ta'sir kuchini ham ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, R.Parfi she'riyatning ijtimoiy ahamiyatiga alohida diqqat qaratadi, san'atning shaxs va millat manfaatlari uchun xizmat qilishi shartligini ta'kidlaydi; dunyoni, tabiatni yangicha idrok etish ko'ngillarni go'zallik ruhida, adolat tuyg'usida tarbiyalashi vojibdir, deya uqtiradi. Tuyg'ular haqgo'y, adolatli, tafakkur esa inson va jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga ega bo'lishi lozim, deydi. Yo'qsa u o'zining ezgu va muqaddas burchini ado eta olmaydigan, burnidan narini ko'ra olmaydigan xarxasha xirgoyilar tusini oladi, deya afsus bildiradi.

R.Parfining adabiy-estetik qarashlarida jamiyat hayotidagi, inson faoliyatidagi noxush-negativ ko‘rinishlarni fosh etivchi satirik yo‘nalishga oid fikr-mulohazalar negadir uchramaydi. Bu hol she‘riyatida ham kuzatiladi.

R.Parfining estetik qarashlarida she‘rning mazmunan milliy ruhi, mohiyatan bashariy qimmat alohida o‘rin tutadi. Xususan, Cho‘lpon she‘riyatidagi ushbu sharaflı tuyg‘ular tabiati xususida yozadi: “Misr-Bobil, Xitoy-Hindiston, Rum, Eron, Ovrupo, Amerika singari Turon-Turkiston-Turk dunyosi jahon ilmu fani, madaniyati, adabiyoti va san‘ati xazinasiga o‘zining munosib merosini berdi va berajakdir. Ulug‘ shoir Abdulhamid Cho‘lpon o‘zbek ruhini kuyladi. Zero o‘zbek ruhi o‘lmasdir. O‘zbek ruhi abadiydir. O‘zbek ruhi butun Turk dunyosining merosidir. O‘zbek millati bu oltin merosning egasi, bu meros butun jahon uchun, butun insoniyat uchun, Olloh inoyati-la go‘zal armug‘ondir. O‘zbek millati-jahon sivilizatsiyasini bir pog‘ona baland ko‘targan buyuk millatdir, O‘zbek bo‘lib tug‘ilgan, o‘zbek degan nomni muqaddas bilib tanu ruhida asragan inson naqadar baxtli insondir”. [3;224]

Ko‘rinadiki, shoir shaxsiyati bilan iste‘dodining vobasta namoyon bo‘lishida hayotiy sharoitning, ijtimoiy voqelikning ta‘siri, ahamiyati ulkan. R.Parfi talqiniga ko‘ra voqelikning ijodkor zimmasiga yuklajak vazifasi va ushbu ma’suliyatni so‘z san‘atkori qanchalik uddalashi, ado etishi muhimdir. Xususan, bu borada davr farzandi. Jamiyat a‘zosi sifatidagi burchini bajarishida tabiatiga yuqtirilgan ilohiy salohiyatning o‘rni beqiyos. Zero, ushbu holatda hayot haqiqatini san‘at haqiqatiga aylantirishda badiiyat ijodining qimmatini belgilovchi bosh mezon hisoblanadi. Cho‘lpon ijodining XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan benazir o‘rni va ahamiyati ham avvalo ana shu ijtimoiy voqelikni idrok etishdagi badiiy kashfiyotlari bilan belgilanadi; hayotni badiiy-estetik tadqiq etish jarayonida ko‘ngillarni shaffof tuyg‘ular, ong-shuurlarni tafakkur zakosi bilan boyitishi, tarbiyalashi bilan aziz va mukarramdir. Ana shu holatda shoirning betakror ijodiy individualligi birinchi o‘ringa ko‘tariladi, o‘zligini to‘kis namoyon qiladi. Ana shu sharaflı tuyg‘ular Cho‘lpon ijodida porloq ifodasini topdi, deydi R.Parfi.

Cho‘lponning badiiy kashfiyoti zulmga qarshi-Rusiya istibdodiga qarshi bosh ko‘targan erkparvarlik, millatsevarlik g‘oyalaridir. Qadim Turkiston xalqlari boshini qovushtirishga, yaxlit jinslikka, birlikka da‘vat etgan vatanparvar fikrlaridir. Cho‘lponning ijtimoiy-siyosiy lirikasi erk va elparvarlik g‘oyalari bilan to‘yinganligi boisidan ham ijtimoiy adolatsizlikka, zulmga qarshi isyon sifatida boshini ko‘tardi. “Zulm-bashariyatning muqaddas beshiklaridan bo‘lmish ulug‘ Turkistonga bostirib kirdi,-deb yozadi R.Parfi.-Milyon-milyon gunohsiz insonlarimizning pok qonlarini to‘kdi, jahonning ko‘rki bo‘lgan obidalarga bomba yog‘dirdi, mening ulug‘ xalqim-o‘zbek turklariga har xil laqablar, tamg‘alar, yorliqlar yopishtirib keldi. Lekin o‘zbek turklarining ilohiy Ruhini, qutlug‘ tilini sug‘urib ololmadi”

R.Parfi ijtimoiy zulmning asl basharasini chizar ekan, hayotiy detallarga, aniq va yorqin ma‘lumotlarga tayanadi. Shu tariqa zulmning har qanday ko‘rinishi yakka-yolg‘iz hodisa emas, aksincha, umumbashariydir, degan fikrni ilgari suradi. Shu ma‘noda, shoir solnomachi emas, adolatsizlik, zulm-zalolatning ming bir ko‘rinishga ega manfur qiyofasini yaratadi. Ana shu badiiy kashfiyotlariga erishishda shoir insoniy taqdiralar kechmishiga, dil nolalari-yu tafakkur tug‘yonlariga tayanadi.

-Ona sayyoramiz she‘riyat kabi poyonsiz,-deydi R.Parfi zulm-zalolatning olamgir mohiyatini tushuntirish barobarida, insoniyatning dardu quvonchi Abdulhamid Cho‘lponning dardu quvonchi bo‘ldi. Shoir o‘z vatanining farzandi o‘laroq o‘z xalqining inon-ishonchi, shodligi, uqubatlarini o‘zida, so‘zida ifoda qildi; dunyoviy alamkashlik uni jahon fuqarosiga aylantirdi. Shu tariqa uning ovozi butun bir xalqning hayqirgan ovozi bo‘lib qoldi, deya ta‘kidlaydi Rauf Parfi.

Cho‘lpon o‘zbek xalqining sinmas va so‘nmas ruhini badiiy kashf etganligi uchun ham milliydir; millatning erkka noil muqaddas maylini badiiy haqiqatga aylantira bilganligi, ozod hayotga bo‘lgan haq-huquqini tuyg‘ular realizmi tariqasida yoritishga erishganligi boisidan ham she‘riyati bashariy, umuminsoniy mazmun-mohiyatga egadir.

Abdulhamid Cho‘lpon zulmga qarshi, stalinizmga qarshi, manqurtlikka qarshi ozodlik uchun, she‘riyat huquqi uchun kurashayotganlarning sardorlaridan biridir,-deb yozadi R.Parfi.-Xalq shunday shoirini ko‘p zamonlardan beri kutgan edi. U keldi va kurash maydoniga chiqdi. Haq va haqiat yo‘lida qurbon bo‘ldi. Bu yorug‘ dunyoda u yolg‘iz emas edi, uning tengdoshlari, maslakdoshlari, o‘likdoshlari juda ko‘p edi, bu eski shaytanatda. Ular yuzlab shoirlar milyon-milyon xalqlarning faryodiga aylangan zulmga qarshi, inson haqlari uchun, she‘riyat huquqi uchun o‘rtaga chiqqan muqaddas she‘riyat lashkari edi”.

Ko‘rinadiki, Abdulhamid Cho‘lpon millatdoshlarining hur fikrlarini, milliy ruhiyatini she‘riyat tilida badiiy kashf etganligi uchun ham turk dunyosining so‘nmas yulduzi, ulug‘ jahon-shumul shoiri bo‘lib qoldi, degan xulosaga keladi Rauf Parfi. Anglashilyaptiki, she‘r-shoir-adabiyot ijtimoiy hayotdan holi yashashi mumkin emas. She‘riyat o‘z xalqining ovozigacha aylangan taqdiridagina bashariy qadriyat masnadiga erishadi. Ushbu holatlarda ham R.Parfining estetik printsiplarini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Xususan, ijodkor so‘zining qadr-quvvati uning ijtimoiy salmog‘i bilan ahamiyatlidir; millatning ma‘naviy-intellektual yumushlarini ado etishi bilan qimmatlidir, deya baholayotir. Badiiy so‘zga, she‘rga, shoirga u ana shu mezonlar asosida yondashadi. Millat ma‘naviy hayotida tutgan o‘rni va rolini belgilash jihatidan e‘zozlidir, degan to‘xtamga keladi.

Ushbu jarayonda badiiy didlarni o‘stirishi, takomillashtirishi, ong-shuurlarni uyg‘otishi, tafakkur ziyosi bilan yoritishi, atrof-tevaragida kechayotgan voqea-hodisalar xususida, ularni yuzaga keltirgan sabab va oqibatlar to‘g‘risida xolis, ob‘ektiv, mustaqil fikrlay olish madaniyatini va baholay loish salohiyatini shakllantirish mas‘uliyatida she‘r-shoir-so‘zning asl tabiati ko‘rinadi. Haq va haqiqatga xizmat qilishdek burchi ayonlashadi. Shu tariqa badiiy so‘z ko‘ngil-larga yo‘l ochadi; xalq ko‘nglining ifodasiga aylanadi; benazir yorug‘lik maqomiga erishadi.

Rauf Parfi anglatishiga ko‘ra adabiy-tanqidiy maqola she‘riy so‘zda tilga olingan, tasvirlangan ijtimoiy voqelikning tabiati va mohiyatini keng, atroflicha

tushuntirishi lozim. Shu ma'noda adabiy tanqidiy maqolalar ham badiiy adabiyot singari san'at asarlaridir, adabiy madaniyat namunalari. Shu jihatdan R.Parfi adabiy-tanqidiy maqolalar oldiga aniq, konkret vazifalar qo'yadi. Xususan, R.Parfi nuqtai nazariga ko'ra adabiy-tanqidiy asar badiiy so'zning ahamiyatini, qimmatini ko'rsatish bilan kifoyalanmaydi; yana u kitobxonga asarning ijtimoiy-falsafiy ma'no qirralarini anglashida ko'maklashadi, shoir ijodining kuchli va zaif jihatlarini ochib berish orqali o'z ustida tinmay ishlashiga, qalb ma'rifatini tinimsiz boyitib borishga da'vat etadi. Adabiy tafakkurning bosh vazifasi ijodkorning badiiy dunyosiga kira olishi, ma'naviy-intellektual olamining sir-asrorlarini keng kitobxonga kashf etib berishi bilan azizdir. Va yanayam muhimi, badiiy asarning yuzaga kelishidagi ijodiy niyatni, idrok va ifoda jilolarini, bir so'z bilan aytganda, badiiy fikrning tug'ilishidan to'yoqqa yetishigacha, o'zligini namoyon etishigacha bo'lgan sirli-sehrli jarayonlarni anglata bilishi bilan betakrordir".[3;228]

R.Parfi talqiniga ko'ra Cho'lpon she'riyati millat faryodiga aylangan, zulmga qarshi-inson haqlari uchun, she'riyat huquqi uchun o'rtaq chiqqan muqaddas she'riyat lashkari bo'lgani boisidan ham jahongir maqomiga ega. Shoir voqelik bilan inson ruhiyatini ko'rsatishi, anglatishi, kashf etishi barobarida shaxs va jamiyatning haqqi-huquqlari uchun kurashchi hamdir („Muqaddas she'riyat lashkari edi"). Shaxs erkinligini bo'g'uvchi turfa xil zulm turlaridan xoli hur fikrlik ta'mini tushuntirish ham she'r badiiyatini belgilovchi omillar sirasidandir. Hayotni sevishtirish, tiriklikning bebaho qadriyat ekanligini anglatish va ushbu jarayonda hur fikrlik tuyg'ulari talqinini berish she'r badiiyatining bosh belgilaridir. Shu ma'noda, "she'riyat-hamisha favqulodda hodisadir,-deb yozadi Rauf Parfi Ismatulloh Hamid Tasmachi she'rlari xususidagi "She'riyat-ilohiy musiqa" maqolasida.-Insonni Olloh, Tabiat va Koinot bilan bog'laydigan ilohiy musiqa, inson shuurining anglamas, belgisiz in'ikosi; qutlug' ona til qudrati-la ifodalangan mo'jizasi desak to'g'riroq bo'lur, ehtimol"-deb yozadi.

Ko'rinadiki, shoirning deyarli barcha adabiy-tanqidiy maqolalarida badiiy so'zning realistik tasvir salohiyatiga, ma'no talqinlari qudratiga, tuyg'u-

tafakkurning haqligiga, haqiqatligiga asosiy urg'u beriladi; ushbu masalalar shoir diqqat-e'tibori mehvarini tashkil etadi.

Ma'lum bo'ladiki, R.Parfi she'riyatida qanchalik teran, falsafiy fikrga ega bo'lsa, adabiy estetik qarashlarida ham shu darajada chuqur nazariy bilimga ega edi. She'riyatning sir-sinoatini, nazariy qoidalarini yaxshi biladi. Shoirning o'z safdoshlari haqidagi estetik qarashlari naqadar to'g'ri va haqqoniy ekanligini ko'rish mumkin. Shu ma'noda R.Parfi ham shoir ham alloma adabiyotshunos-tanqidchi edi.

XULOSA

Magistrlik dissertatsiyamizning uch bobidagi tahlillardan taxminan shunday xulosaga keldik. Mustaqilik davri o'zbek she'riyati istiqlool yillarida har jihatdan yuksaldi. Buning asosiy omili mustaqillik yillarida ijodkorlarga yaratib berilgan ijodiy erkinlik. Adabiyot tajribasidan bilamizki, har qanday adabiyotda biror janr mavjud ekan, u albatta o'zigacha bo'lgan tajribalarga tayanadi, an'analarga suyanib ish ko'radi. Mavjud shakl va mazmunni yangi zamon talabiga moslashtirib rivojlantiradi, yangilik qo'shadi.

Mustaqillik yillaridagi o'zbek she'riyati ham xuddi shunday yo'ldan bordi. Mavjud an'analarni davom ettirdi, yangicha yondoshdi va eng asosiysi yangi fikr aytishga intildi. Istiqloolning adabiyotga, jumladan, she'riyatga bergan ulug' ne'matlaridan biri shu bo'ldiki, ijodkorlarga xoxlagan shakl va mazmunda qalam tebratish imkonini berdi. Sobiq sho'rolar tuzimi davrida taqiqlab qo'yilgan mavzularda asar yozishga keng yo'l ochildi. Shu yo'llardan biri, har bir adabiy asarda, aytaylik, she'riyatda milliy ruhni talqin etish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga sharoit yaratildi. Mustaqillik yillaridagi o'zbek she'riyatida yana bir o'ziga xoslik nazarga tushadi. Bu- shakldagi yangilanish. Unitilib ketgan she'riy shakllarni adabiyotga olib kirish, unitilib ketgan milliy an'analarni tiklash va ularni milliy ruhda talqin etishdir. Mustaqilik davri o'zbek she'riyatining darg'alari deb atasak arziydigan E.Vohidov, A.Oripov, H.Xudayberdiyeva, O.Xojiyeva, R.Parfi, M.Toyir, S.Sayyid, K.Rahimboyevadek shoir va shoiralar o'zbek she'riyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari deganda, biz eng avvalo o'sha so'z zargarlarining ijodini, ularning milliy qiyofadagi go'zal she'rlari va dostonlarini ko'z oldimizga keltiramiz.

Biz yuqorida tilga olgan har bir shoirlar ijodi alohida-alohida o'rganilsa arziydi. Ularning ayrimlarining ijodi haqida salmoqli ilmiy ishlar ham yozilgan. E.Vohidov, A.Oripov kabi shoirlar ijodini nazarda tutmoqdamiz. Bu shoirlar safida atoqli shoira H.Xudayberdiyeva ham bor. Biz magistrlik dissertatsiyamizning bir bobini uning she'riyatiga bag'ishlaganimiz bejiz emas. Chunki shoira mustaqillik

yillarida juda barakali ijod qildi. Emin-erkin qalam tebratib o'ziga xos she'riyat saltanatini yaratdi. Magistrlik dissertatsiyamizning birinchi bobida H.Xudayberdiyeva she'riyati haqida sho'z yuritib shunday xulosaga keldikki, shoir she'rlarida yangi zamonni, milliy qadriyatlarni obrazli shaklda, hech bir shoiraga o'xshamaydigan ifoda usullarida alqin etdi. Shu bilan mustaqillik yillari o'zbek she'riyatiga betakror yangi talqin, poetik ohang olib kirdi. Shoiraning har bir she'rida majozilik kuchli ekanligini, fikrni yalong'och emas, ramziy ma'noda berishga mohir ekanligini ko'rsatishga urindik. Tadqiqotimizda mustaqillik yillaridagi o'zbek she'riyatida an'anaviylik va novatorlikning o'ziga xos jihatlarini ochib berishga intildik. An'anaviyliksiz, novatorlik bo'lishi mumkin emasligini faktlar misolida tahlil qilishga harakat qildik. Har bir shoir o'z ijodining ildizlarini mumtoz so'z san'atining nodir namunalaridan izlansa albatta maqsadga erishishi mumkin ekanligini ba'zi misollarda asoslashga muvaffaq bo'ldik deb hisoblayman.

Magistrlik dissertatsiyamning maxsus uchinchi bobida modern she'riyati to'g'risida fikr yuritdik. Bu she'riy shaklning o'zbek adabiyotiga kirib kelish tarixi, mustaqillik yillarida bu she'riy shaklda qalam tebratgan ba'zi shoirlar haqida ularning ijodiy tajribalari xususida so'z yuritdik. O'zbek modern she'riyaining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini R.Parfi ijodisiz, uning adabiy tajribalarisiz tasavvur qilish mumkin emas degan xulosaga keldik. Shu boisdan ham R.Parfi ijodiga, uning she'riyatiga ko'proq to'xtadik. Shoir an'alarining bugungi o'zbek she'riyatida davom etayotgani to'g'risidagifikrlarimizni bayon etishga ko'proq etibor berdik.

Ushbu tadqiqotimizda imkon qadar mustaqillik davri o'zbek she'riyatining taraqqiyot tendensiyalari, rivojlanish yo'llari haqidagi shaxsiy kuzatishlarimizni ifodalashga intildik. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati, o'zbek adabiyotining boshqa janrlari singari har jihatdan boyib bormoqda, mazmuni ham chuqurlashmoqda. Eng muhimi, bugungi o'zbek she'riyatida chinakam milliylik, milliy qadriyatlarni badiiy talqin qilishga intilish kuchaydi. Taqiqlab qo'yilgan mavzularga keng yo'l ochildi. Qalb haqiqatini bor bo'yicha ko'rsatish bugungi

o‘zbek she’riyatining etakchi xususiyatida ko‘rinadi. Tadqiqotimizga tahlil ob’ekti bo‘lgan R.Parfi, H.Xudayberdiyeva hamda G.Matyoqubovalar, ularning go‘zal she’riyati o‘zbek adabiyotini, she’riyat sahifalarini boyita oldi.

“Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida shakliy rang-baranglik va o‘ziga xoslik” mavzusidagi tadqiqotimizning umumiy xulosasi shundan iboratki, bu davr she’riyatida har qanday zo‘rma-zo‘raki tiqishtirilgan siyosiy mafkuraning ta’siri yo‘q. Sho‘rolar davri she’riyatiga xos dabdababozlikdan xoli, chinakam milliy ruhda bitilgan ijod namunalaridir. Bu davr she’riyatining yana bir o‘zgachaligi shundaki, shoirlar istiqlol g‘oyalarini ko‘proq kuylashga, mustaqillikning xalqimizga bergan erkinlik va ozodlik nashidasini baralla kuylashdan iboratdir. O‘zbek she’riyatining katta avlod vakillaridan tortib kichkina avlod ijodkorlargacha mustaqillik bergan keng imkoniyatdan foydalanib rang-barang asarlar yaratayotgani bu davr she’riyatining eng go‘zal sahifalaridan biridir.

Ishimizning umumiy xulosasi shuki, mustaqillik davri she’riyati tobora yuksalib bormoqda. Yangi avlod shakllanayapti. Adabiyotimiz, she’riyatimiz yangi shakllar va yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Istiqlol g‘oyalarini kuylash uning bosh maqsadi bo‘lib kelmoqda. Bundan keyin ham o‘zbek she’riyati ijodning yuksak cho‘qqilarini egallashi shubhasizdir. Buning uchun ijodkorlarga barcha sharoitlar yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov .Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. I.A.Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kedajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009
3. N.Rahimjonov. Istiqlol va bugungi adabiyot. Toshkent: 2012.
4. N.Rahimjonov, M.Hamidova. H.Xudayberdiyeva lirikasi. Toshkent: 2004.
5. N.Rahimjonov. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent: 2005.
6. O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. Toshkent: 2004.
7. R.Parfi. Tavba. Toshkent. 2000.
8. R.Parfi. Turkiston ruhi. Toshkent. 2013.
9. R.Parfi Shoir dardi-shoir qismati. Sharq yulduzi. 1994. 1-son.
10. R. Parfi. Sabr daraxti. – Toshkent. 1988.
11. U.Jo'raqulov. Nazariy poetika masalalari. Toshkent. 2015.
12. U.Uljaboyev. Zamon talabi va ijodkor ma'suliyati. Toshkent. 2012.
13. B.Karimov. Ruhiyat alifbosi. Toshkent. 2015.
14. M.Qo'shjonov. Saylanma. 1-jild. Toshkent. 1982.
15. K.Quramboyev, G.Quramboyeva. Gul bor Guliston ichinda. Toshkent. 2016.
16. K.Quramboyev. Adabiy jarayon, ijod ma'suliyati, adabiy aloqalar. Toshkent. 2009
17. K.Tashanov, A.Allambergenov. Moderncha talqin shukuhi. Toshkent. 2015.
18. Q.Yo'ldoshev. Rauf Parfi ijodi bo'yicha uch dars. Til va adabiyot ta'limi? 1994. 1-son.
19. H.Xudayberdiyeva. Chaman. Toshkent. 1994.
20. H.Xudayberdiyeva. Bu kunlarga etganlar bor. Toshkent. 1993.
21. R.Raxidov, M.Xoshimova. She'riyat shoir yuragi. Toshkent.
22. Q.Yo'ldoshev. Yoniq so'z. Toshkent. 2006.
23. G.Matyoqubova. Ota uyim. Toshkent. 2014
24. G.Matyoqubova. Vatan ruhi. Toshkent. 2011
25. G.Matyoqubova. Men sen uchun yashayapman. Toshkent. 1993.

26. G.Matyoqubova. Muhabbat yurti. Toshkent. 2002.
27. A. Hojiahmedov. She'r san'atlarini bilasizmi? – Toshkent. 2001.
28. A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent. 1999.
29. S.Sodiq. Ijodning o'ttiz lahzasi. Toshkent. 2005.
30. B.Nazarov va b. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. Toshkent. 2012.
31. I.Yoqubov. Badiiy matn va estetik talqin. Toshkent. 2013.
32. N.Karimov va b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1999.
33. K.Baxriyev. "Vatan haqida o'ylar"
34. Abduvoxid Xayit. "Go'zal so'z aytish istagi", "Yosh kuch" №4. 1995.
35. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –Toshkent: Fan, 1990.
36. M.Yo'ldoshev. Hozirgi modern she'rlarda timso. O'zbek tili va adabiyoti.2003.
37. B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent. 2004.
38. B.Narboev. Istiqlol va ist'edod tarbiyasi. Toshkent. 1996.
39. S.Mirzaev. Hayot va adabiyot. Toshkent. 2001.
40. H.Umurov. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. 2002.
41. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. 2005.
42. U.Hamdorov. Yangilanish ehtiyoji. Toshkent. 2007.
43. U.Normatov. Umidbaxsh tamoillar. Toshkent. 2000
44. U.Normatov. Ijod sehri. Toshkent. 2007
45. T.Jo'rayev. Ong oqimi. Modern. Farg'ona. 2009.
46. A.Rasulov. Badiiylik-bezavol yangik. Toshkent. 2007.
47. U.To'ychiyev. Lirik adabiy turlar va janrlar. Toshkent. 1992.
48. S.Matyakupov. She'riyatda dialog yaratish mahorati. Toshkent. 2013

Internet saytlari:

1. www.ziyouz.com
2. www.kutubxona.com
3. www.ijod.uz
4. www.adabiyot.uz
5. www.pdfactory.com
6. www.o'zbekadabiyoti.com
7. www.Ziyonet.uz
8. www.nuqf.intal.Uz